

Muassislar:

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi,
O'zbekiston yoshlar ittifoqi

1982-yildan chiqa boshlagan.

Tahrir hay'ati:

Sirojiddin SAYYID
Alisher SA'DULLAYEV
Minhojiddin MIRZO
Iqbol MIRZO
Nodir JONUZOQ
G'ayrat MAJID
O'razboy ABDURAHMONOV
Kengesboy KARIMOV
Abatbay DANIYAROV
Shuhrat SIROJIDDINOV
Bahodir KARIMOV
Sobir O'NAR
Ilhom TO'XTASINOV
Rustam MUSURMON
Farrux JABBOROV

Bosh muharrir:

Faxriddin HAYIT

Bosh muharrir o'rinbosari:

Nurilla ChORI

Mas'ul muharrir:

G'iyosiddin O'NAROV

Adabiy muharrir:

Husan MAQSUD

Muharrir:

Dilnoza RUSTAMOVA

Manzilimiz:

Toshkent shahri, Chilonzor tumani,
Bunyodkor ko'chasi, Adiblar xiyoboni,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi binosi.
Indeks 100066

E-mail: yoshlik-jurnali@umail.uz

Veb sayt: www.yoshlikjurnali.uz

Tel.: (0371) 231-20-58, 231-20-59

Navbatchi muharrir: G.O'narov



3

**Muhiddin
Abdusamatov**

Shirin so'z ham saxovatdir

6

Usmon Azim

Boysun –
umrlik yo'l...



10

Shodmonqul Salom

Tog' boshiga qor tushibdi,
qor...



20

Bayram Ali

Tunkezar
bolalar



60

**Dilnoza
Rustamova**Karantin
mutolaasi

47

Nabi Jaloliddin:Yagona haqiqat –
hayotning o‘zi

63

**Shirinoz
Azadova**Mening qalbim
tog‘larga ketdi...

50

Akmal TursunovEng baland pardada
kuylay hayotni

65

**Ravshan
Burhonov**Har kim o‘qishi
va ayni damda
o‘qimasligi kerak
bo‘lgan asar

52

**Charos
Nizomiddinova**

Sirk

**Qiyomiddin Qotiy**

Bulbul kabi xushnavo bo‘libsən

72

Djordj Oruell

Filming otilishi

74

57

**Adhambek
Alimbekov**“She‘r – go‘zallik
singlisi

Shirin so‘z ham saxovatdir

...O‘sha kuni kun peshinga og‘ayotib, telefonim jiringlab qoldi. Mirzacho‘lda safarda bo‘lib turgan qarddon do‘stimiz Muhammad Siddiq ekan. Telefonning yashil tugmachasini xotirjam bosdim:

– Allo! Assalomu alaykum, aka, bizga yurtdosh bo‘lib ketdingiz... El-yurtimiz omonmi?

– Va alaykum assalom, – nafasi bo‘g‘zidan titrab chiqdi shoir do‘stimning.

– Eshitmadingizmi?

– Nimani? – so‘radim ichimga vahima cho‘kib.

– Internetga kirmabsiz, chog‘i... Sardobada suv toshqini yuz beribdi. Biz turgan Mirzacho‘lga aholini yoppasiga ko‘chirib kelyapti...

So‘rayotganim, opalaringiz qaysi tumanda yashaydi...

Qulog‘im tom bitgandek boshqa so‘zga toqat qilolmadim. Xayolim jigarlarim tomon o‘qdek uchib ketdi... Muhammad aka bilan suhbatimiz nima bilan yakun topganini hozir ham eslolmayman. Darhol qo‘lim titrab Gulistonga opamga telefon qildim. Aksiga olib ko‘tara qolmadi... “Odamning ilk dushmani – xayoli”, degan gap o‘z o‘rnida aytilgan, o‘ylarim potirlab, eng qo‘rqinchli tusga kira boshladi. Shoshib, jiyanimga chiqdim, go‘shakni oldi. Xayriyat, ulardan xavotirim o‘rinsiz ekan...

Ko‘p o‘tmay, Sardobadagi fojia haqidagi xabarlar o‘rgimchak to‘ridek internetdagi barcha tarmoqlarni qamrab oldi. Hadik bilan voqealarni kuzatib borar ekanman, bexos bolaligidagi shumlig-u sho‘xliklarimizni esladim.

Bolaligimizda chumolilarning iniga suv quyib o‘ynardik. Toshqindan qochgan mitti

jonivorlarning nochor, ojiz ahvolini ko‘rib zavq olardik. Bugun tong sahardan xavfsiz hududlarga ko‘chirilayotgan sirdaryoliklar yuzidagi hadik, xavotirni ko‘rib bolaligimizda qanchalar katta gunoh qilganimizni anglab yetdim. Xalqimiz oyoqqa qalqidi, barcha hamjihatlikda jabrdiyda yurtdoshlarimizning dardini bo‘lishishga, yo‘qotganlarining o‘rnini to‘ldirishga, ko‘ngliga yupanch bo‘lishga oshiqdi. Xayriyat, hali mehr-oqibatimiz o‘lmabdi...

Darhaqiqat, el boshiga ish tushganda yordam qo‘lini cho‘zish chin mo‘minlik sifati, xalqimizga xos fazilatdir. “Sardoba” suv omborida yuzaga kelgan voqea sodir bo‘lganidanoq yurtimizning har bir viloyat va tumanlarida Sirdaryo aholisiga ko‘mak berish tadbirlari boshlanib ketgani mahzun qalblarga katta dalda bo‘ldi.

Boshidan katta sinovni o‘tkazayotgan matonatli el – sirdaryoliklarning g‘am-u



g'ussalariga sherik bo'lib, ko'ngillarini ko'tarish, butun millat ular bilan birga ekanliklarini bildirish maqsadida "Sirdaryoliklarga yordam" mehr-saxovat xayriyasi boshlanib ketdi.

Yozuvchilar uyushmasi hamda "Ijod" jamoat fondi jamoasi ham oziq-ovqat mahsulotlari, shaxsiy gigiyena vositalari hamda Uyushma tomonidan chop etilgan mingdan oshiq badiiy kitoblar, qolaversa, bolajonlar uchun rangli qalam, rasm daftar, chizg'ich va shu kabi o'quv qurollaridan iborat muruvvat yukini tayyorladi. Mazkur jo'natma mamlakatimizning barcha viloyatlaridan kelayotgan, turli tashkilot va idoralarga tegishli avtoulovlardan iborat bosh-u adog'i ko'rinmaydigan mehr karvoniga qo'shilib, izma-iz Sirdaryo tomon yo'l oldi...

Yangiyer shahar hokimiyati binosi oldida shahar hokimi Elyor Xo'jayev, Yozuvchilar uyushmasi Sirdaryo viloyat bo'limi rahbari, senator Hayotxon Ortiqboyeva hamda tadbirkor Gulchehra Jonjigitovalar Yozuvchilar uyushmasi rahbariyati, uyushma a'zolari, shoir-yozuvchilarni kutib oldi.

Aholi bilan uchrashuvlarga o'tlanib turilganda yupungina kiyingan, ozg'in bir kishi kelib: "Kechirasizlar, plastik kartochkamdan qiynalganlarga mablag' o'tkazib bermoqchi edim, qayerga to'lasam bo'ladi?" – deb so'rab qoldi.



Odmigina va kamtarin bu insonning ismi Sulaymon ekan. Akaning Sulaymondek salobati, kelbati bo'lmasa-da, Sulaymondek saxiy yuragi borligi barchamizni hayratlantirdi. U bir necha yildan buyon ter to'kib ishlab, yashab turgan uyini ta'mir qilish uchun yig'ib yurgan mablag'ini bir kunda bor-budidan ayrilgan yurtdoshlariga hadya qilish istagi bilan kelibdi.

– Baraka toping! Yiqqan pullaringizdan orttirib eldoshlaringizga yordam qilay debsiz-da. Qancha yig'dingiz o'zi?

– Bir million...

Yuraklar jimirlab ketdi. Ana sizga haqiqiy elparvarlik, ana sizga oddiy saxovatpeshalik! Ana bag'rikeng o'zbek millatining fidoyi bir farzandi! Xudo biladi, bu odam mana shu millionni to'plaguncha qancha mashaqqat chekkan ekan?! Ehtimol, o'ziga yangi ust-bosh olmagan, qozoni bir burda go'sht ko'rmagan, pulini tejab ishlatgan. Yaxshi niyatda jamg'argan millionginasini eldoshlarimga yordam deb olib kelib turibdi. Yurtdoshlarimizning matonatli, qudratli, tanti xalq ekanligining oddiy bir timsoli sifatida qarshimizda turgan bu hazrati insonga nisbatan mehrimiz jo'shib ketdi.

Qushning ham uyasi buzilmasin deydi, momolarimiz. O't balosi, suv balosidan o'zing asra, deb duoga qo'l ochadi bobolarimiz. Sinovli kunlarni boshidan kechirayotgan odamlar vaqtincha ko'chirilgan joylarga birma-bir kirib, ular bilan suhbatlashdik.

To'g'risi, joni og'rib turgan odamga, bir so'z aytishning yuki og'ir bo'ladi. Safar oldi dilimizdan bu uysiz-joysiz qolgan odamlar ko'ngliga kitob sig'armikin, qanday qarshi olarkin, degan hadikli o'ylar o'tgan edi. Biroq hammasi aksincha bo'ldi. Olib borilgan kitoblar bir zumda qo'lma-qo'l bo'lib ketdi... Kitob – eng katta ruhiy ozuqa, deb bejizga aytilmagan. Badiiy so'z, yozuvchilarning asarlari, shoirlarning she'rlari hamisha odamlarga dalda bo'lgan:

– ...menga To'ra Sulaymonning kitobini bering.

– ...Ozod Sharafiddinovning kitobini...

– ...Halima Xudoyberdiyevaning she'rlar to'plamini uzatib yuboring...

Demak, xalq o'z adiblari so'zidan taskin topadi, ovunadi, kuch oladi. Hamma zamonlarda ham, hamma balo-yu ofatlarda ham kitob o'z o'quvchisi uchun ahamiyatini yo'qotmagan. Gospitalda yarador yotgan askarni yana jangga, qahramonlikka undagan, sunamidan jon saqlab o'tirgan qizaloqqa yapon imperatorini ta'zim qildirgan ham mana shu – kitob!

Bir chetda qimtinib turgan qizchaga mehr bilan olib kelgan shirinliklarimizdan uzatdik.

– Men rasm chizishga qiziqaman.

Qalamlarim, daftarlarim uyda qolib ketdi. Iltimos, menga rasm daftar bering...

Shoshib istagini bajo keltiramiz. Qizaloqning jovdirab turgan ko'zlariga quvonch qaytadi...

Mahalliy hamrohlarimizning aytishicha, har kuni aholi ko'chirilgan binolarning atrofi kiyim-kechak, ko'rpa-to'shak va bolalar o'yinchoqlariga to'lib ketarkan. Har kim ehtiyoji va o'ziga to'g'ri kelganini oladi, deyishdi. Shu yaqin atrofda yashovchi ayollar esa turli-tuman taomlar tayyorlab, qozonlarda, katta-katta tovoqlarda taomlar keltirishar ekan.

Onasiga ergashib kelgan to'rt yo besh yoshlardagi bolakay qo'lidagi jondan ortiq ko'rgan o'yinchog'ini o'zidan sal kichik qizaloqqa hadya qiladi. Iymanibgina qo'l cho'zadi qizaloq... Insonning jismiga ezgulik urug'i jon bilan birga ekilsa kerak, ota-onasining bu ofatlar haqida kuyinib suhbatlashishi bolakayning mitti qalbini ham uyg'otib yuborgan bo'lsa, ajabmas. U endi hech qachon qizg'anchilik qilmaydi. U shu bugun millatning bir kurtagi bo'lib ko'z ochdi...

Davlatimiz rahbari suv toshqinidan ziyon ko'rgan, turmush sharoiti vaqtincha og'irlashgan irodasi kuchli sirdaryoliklar bilan bir necha marotaba yuzma-yuz suhbatlashib, ularga dalda berdi. Voqea joyini ko'zdan kechirib, favqulodda vaziyat oqibatlarini bartaraf etish, aholini xavfsiz hududlarga ko'chirish va ularga har tomonlama yordam berish bo'yicha birinchi galda hal etilishi lozim bo'lgan muhim topshiriqlar bo'yicha tegishli rahbarlarga bir qator ko'rsatmalar berdi.

Prezidentimiz Oqoltin tumanida aholi bilan uchrashuvi chog'ida: "Bu hech kim kutmagan

Qanday og'ir sharoitga tushmasin, o'zining nechog'lik matonatli millat ekanligini aslo esidan chiqarmagan.

sinov. Birinchi harakatimiz odamlarni ehtiyot joylarga ko'chirish bo'ldi. Eng katta masala – o'lim bo'lmasligi. Oqsoqollar, mahalla raislari va nozirlaridan iltimos qilaman: odamlarni yig'ib, uylarga, palatkalarga joylashtirib, oziq-ovqat bilan ta'minlab, mahallama-mahalla saranjom qilib olishimiz kerak. Buning uchun hamma kuch va vositalarni safarbar qilamiz. Sharoit yaxshi bo'lmaguncha bironta rahbar ketmaydi. Sabr qilib, og'irlikni yelkamizga olib, chidashimiz kerak. Bironta xonadon, bironta odam e'tiborsiz qolmaydi", – deya ta'kidladi.

O'zbek xalqi boshidan ko'p sinovlarni kechirgan. Qanday og'ir sharoitga tushmasin, o'zining nechog'lik matonatli millat ekanini aslo esidan chiqarmagan. Birlashib, jipslashib, hamjihatlikda har qancha og'ir bo'lmasin barcha sinovlarni ortta qoldirib yorug' manzillarni, ulug' marralarni zabt etgan. Bu sinovli kunlardan ham, albatta, katta saboqlar bilan o'tib olmog'imiz muqarrar!

Garchi O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan olib borilgan kitoblar "Sardoba"dan toshgan obi hayot o'rnini to'ldirmas, biroq ma'rifatsevar yurtdoshlarimiz ko'ngil daryosiga bir irmoq bo'lib qo'shilishiga umid qilgan holda poytaxtga qaytdik.

Shoir-yozuvchilarning Sirdaryoga safarini eshitgan sevimli bolalar shoirasi Kavsar Turdiyeva, qashqadaryolik yozuvchi Sharofat Ashurova va boshqa ijodkorlar ham o'z asarlari, kitoblarini sirdaryoliklar uchun xayriya sifatida yubordi. Bu kitoblarda xalqimizning suyukli ijodkorlarining qaynoq mehri, shirin so'zi, quyoshdek taskini mujassam.

Zero, shoir Jo'rabek Jahon o'z she'rida ta'kidlaganidek:

*Bu dunyoda eng ojiz kuch jaholatdir,
Tabassum ham, shirin so'z ham saxovatdir.*

Muhiddin ABDUSAMATOV



Usmon AZIM,
O'zbekiston xalq shoiri

Boysun – umrlik yo'l...

Shoir qismati. Cho'li iroq

Buncha yig'ladi kuy,
Buncha qiynadi.
Azob jondan o'tdi –
Yordi siynani.

Nechun tugamaydi
Vido sahrosi –
Ayriliq balosi,
Sog'inch savdosi?

Naychi, sozing tindi –
Kuy bo'ldi ado.
Faqat men bu kuyga
Mangu muhtalo.

Xonumonim yongan,
Taqdirim tolgan –
She'r meni shu ko'yda
Chalgani chalgan.

Mug'anniy, to abad
O'rtanib – ohkim! –
Shu dodda bo'zlashga
Mahkumman, mahkum.

21.04.2020

– Qanchada boriladi Boysunga, Usmon Azim?
– Boysun – umrlik yo'l, Abdurahmon.

– Boysungacha qancha yo'l, Usmon Azim?
– Hamma yo'l Boysunga boradi, Abdurahmon.

– Barcha yo'ldan yurdim, Boysun yo'q-ku, Usmon Azim?
– Yurganing yo'l emas, Abdurahmon.

– Ayt, Boysunga qayerdan boriladi, Usmon Azim?
– Boysunga she'rdan boriladi, Abdurahmon.

– Boysunni topolmadim, Usmon Azim.
– Men olib ketgandirman, Abdurahmon.

7.05.2020

To'ti

To'tini aqlli etdi bu davron:
Magar to'lg'onsa ham jismida jur'at –
O'zining so'zini aytmas hech qachon,
Birovning gapini qaytarar faqat.

Xo'rozday qichqirmas – garchi tong yetdi –
Axir, bir aylanib, tushadi-ku shom,
Axir, qancha xo'roz so'yilib ketdi...
To'ti qafasida omondir, omon.

3.03.2019

Vahima

Olatasir yomg'ir. Chaqmoq.
 Tun – jiqqa ho'l tahluka.
 Qorong'uda soy to'la sel –
 Qarso-qursli vahima.
 Otlar nega kishnayapti,
 Nechun mo'ng'rar sigirlar?
 Falokatmi kelayapti –
 Guvulladi ungurlar.
 Xavf-u xatar yuraklarni
 G'ijimlashga botinar.
 Zulmatga zum tik boqar-u
 Itlar tunga otillar.
 Kamarlarning qatlariga
 Qo'rqinch o'ralar besas.
 Kecha – yoppa qorong'ulik –
 Arang oladi nafas.
 Changaroqlar g'ijirlaydi,
 Mayishadi keraga.
 Qo'y-echkilar qaltiraydi –
 Dahshat kirar qo'raga.
 Hayqiradi birov, kimdir
 Miltiq otar!.. To'polon!
 – Bo'ri!..
 Qo'rquv bu kechani
 Asir oldi bearmon.

Bo'ri esa osoyishta –
 Tinch mudraydi inida.
 Quloq tutar – ba'zan esnab –
 Mayning g'alva tuniga.
 Nechun telba bezovtalik –
 Esni yamlagan g'ulu?

Bo'rida ayb nima qilsin –
 Vahimaning ishi bu.

20.02.2019



Do'mbira nolalarini anglash

Bu nola – dunyoning oxiri.
 Bu nola – dunyoning boshidir,
 Bu nola – baxtning eng og'iri,
 Bu nola – uysizning yomg'iri –
 Tomchisi taqdirning toshidir.

Bu nola – “Yo, haq!” deb kechgan jang,
 Bu nola – bobomning loshidir.
 Bu nola – hasratdan ko'chgan rang,
 Bu nola – vatanda bevatan
 Barchinning noiloj yoshidir,

Bu nola – bahorning keluvi,
 Bu nola – kuzakning yetuvi,
 Bu nola – umrning o'tivi,
 Bu nola – dard ichra buralish,
 Bu nola – qaytadan yaralish,
 Bu nola – paymona to'livi,
 Bu nola – jasadning o'livi –
 Ruh ichra dunyoga taralish.

Bu nola ko'ngilni tuzatar,
 Bu nola haq jomin uzatar –
 Ming qavat osmonga yetaman,
 Mingidan bir onda o'taman...

Xayr endi!.. Jo'ralar kuzatar.
 Tovushim titranib ne dedim?

Keluvda birgina kas edim,
 Qaytuvda bir xalqday ketaman...

18. 04. 2019



Qadim rivoyat

Tog'lar orasida
Yashayman yakka,
Ichimda – ilonday –
G'amim eshilib.
Giyohlar shivirin
Yig'ib yurakka,
Toshning zil so'zlarin
Toshday eshitib.

Tirnoqday mamlakat
Podshohi edim.
Ammo maqtashardi:
"Sultoni olam!.."
Barcha maqtov so'zni
Haqiqat derdim,
Go'yoki haqiqat edim
O'zim ham.

Qirq o'g'lim bor edi –
Qirq ko'rar ko'zim.
Toj-u taxt taloshi
Ammo beayov –
Ularning birini
O'ldirdim o'zim,
O'ttiz to'qqizini
Boshin oldi yov.

Qirq qizim bor edi –
Qirqta yulduzim,
Ammo osmonimni
Tubanlar yengdi –

O'zini o'ldirdi
O'ttiz to'qqizi,
Erkam – kenja qizim –
G'olibga tegdi.

Tog'lar orasida
Yashayman yolg'iz.
G'ussa qorday oppoq
Etgan sochimni.
Qayg'u ro'zgorimni
Etganda tanqis,
Bir daraga otdim
Hatto tojimni.

O'zimning korimga
O'zim tergovchi –
Tog'-u tosh kezaman,
Bo'riday uvlab,
Qayoqqa bormayin –
Beshafqat ovchi –
Xotira baribir
Yetadi quvlab.

Namozshom chog'ida
Yoqaman gulxan.
Qorong'udan qonday
Chiqadi sizib –
Mening o'ttiz to'qqiz
Bahodir bolam,
Mening o'ttiz to'qqiz
Nomusli qizim.

Gulxan tegrasida
Cho'kadilar jim,
Kiftlaridan bosib
Qorong'u olam,
Meni yaxshi ko'rgan
Yetmish sakkizim.
Ammo... Qayda qoldi
Ikkita bolam?

To'ng'ichim boshini
Ko'tarib og'ir,
Gap boshlar – har so'zi
Rost-u diyonat:
– Ular qaydan kelsin,
Otajon? Axir,
Bizning safimizga
Sig'mas xiyonat.

Uning so'zlarida
Mardona ta'lim,
Mening ko'zlarimda
Yoshim shashqator:
– Birgina so'z ayting,
Jannatilarim,
Ular ham bu safda
Ko'rinsin bir bor!

To'ng'ichim bosh egar,
Cho'kar sukunat.
Gulxan lovullaydi
Har taraf to'zib.

Anglayman, o'g'limning
Gapi haqiqat,
Tilidan ko'chgan lafz –
Tangrining so'zi.

Bo'zlayman beovoz –
Tanim silkir g'am,
Yelkamda qorong'u
Mavj urar to'zib.
Ana, zulmat to'lgan
Olis ungurdan –
Mo'ltiraydi ikki
Bolaning ko'zi.

Oqaradi ufq.
Tong ham yetadi.
Hamon yig'layapman
Qaqshab band-bandim.
Saharga tumanday
Singib ketadi,
Mening yetmish sakkiz
Aziz farzandim.

Endi bir ungurdan
Chiqar urinib,
Ikki padarfurush,
Ikki gunohkor.
Men tomon kelishar
Orga urilib,
Uyatga surinib –
Izillab zor-zor.

Toqat chirt uzilar
Diydor o'yida –
Ular ho'nragancha
Oxir uchadi:
Kelib osiladi
Biri bo'ynimga,
Biri yelkalarim
Hidlab quchadi.

Nafasim siqilar
Faryod zo'ridan.

Tangrim! Ixtiyorim
Yo'qdir o'zimda.
Otilib chiqar-u
Qalbim to'ridan,
Bir mehr xanjarday
Botar bo'g'zimga.

– Sho'rlik bolalarim!
– G'am shashti – zug'um!..

Nogoh olislardan
Kelar bir ovoz:
– Ota, xiyonatni
Quchasiz nechun?
Ulg'ayib ketadi!
Quchmang! Iltimos!

Bu to'ng'ich o'g'limning
Haqqarvar sasi.
Haq so'z ham ba'zida
Tuyular bosqin.
– O'g'lim, xiyonatni
Quchmadim, asli
Ikkita bolamni
Bag'rimga bosdim!

Bu suhbat shashtiga
Kim beradi dosh?
Bag'rimdan sitilar
Ikki fig'onim –
Ortiga qaytadi
Ko'tarolmay bosh,
Ortiga qaytadi
Ikki giryonim.

Men esa kul bosgan
Gulxan qoshida
Bir o'zim qolaman,
Jimman. Jimman. Jim.
Mening hasratimning
Jon taloshiga,
Kim ham sherik bo'lar,
Hamdard bo'lar kim?

Faryodim – zilzila.
To'lg'onar olam.
Tizimdan kuch ketar,
Cho'kaman idrab.
Boshimni ko'tarib,
Bunday qarasam,
Tog'lar qochayapti
Toshlarin sudrab.

Ular mendan hazar
Etdilar, yoxud
G'amimga chidolmay
Meni tashladi...
Endi atrofimda
Bir sahro – behud –
Meni ko'rgan zahot
Uvlay boshladi.

Bu nima – barxanga
Qo'qqayib botgan?
Voh! Mening tojimonim!
La'nati tojimonim! –
Tog'lar ketarida
Jirkanib otgan! –
Tojsiz yuksaklikdir
Axir, rivoji.

Tangrim! Bu ko'riming
Nima haqida?
Menga dars berasan
Yana qanchalar!
Ishoning-ishonmang,
Shuvoq tagida.
Tojni o'ynab yotar
Tulkibachchalar.

Azob ulkanlashar –
Miyamni yirib,
Jonimga beto'xtov
Yopishar zug'um...
Men tirik turibman!
Tirikman! Tirik! –
Har lahza ming marta
O'lmoqlik uchun.

30.04. 2020

TOG' BOSHIGA QOR TUSHIBDI, QOR...



Shodmonqul SALOM

1980-yili tug'ilgan. Ter-
miz davlat universite-
tining kimyo fakultetini
tamomlagan. "Yurak
iqlimi", "Ko'ngil kitobi",
"Borligini bilganlar"
she'riy to'plamlari va
"Ko'ngil obidasiga yo'l"
esselar to'plami chop
etilgan.

*Q'*zbekistondagi eng baland cho'qqi – Hazrati Sulton Boysun tog'la-
rida barqarordir. Shu tog'larda, shu ulug' tog'lar adog'ida yashab-yashnab
yotgan el-u xalqning jamiki orzu-armonlariga timsol bo'lgudek bir ne'mat
bor. Bu – mo'miyo! Mo'miyo tog'ning odam oyog'i yetmas joylarida silqib,
ko'zyoshdek tomchilab, yig'ilib qora mumdek sizib paydo bo'ladi. Unga
kiyik bora oladi faqat. Yarador kiyik shu giyohdan yeb tuzalib ketadi.
Burgutlar mo'miyodan cho'qib-cho'qib yeydi, taniga quvvat oladi. Mergan
ovchilar mo'miyoni pastdan turib otib oladilar. Yuragi katta qo'rqmas
alplar beliga arqon bog'lab yuqoridan osilib-tushib mo'miyoga yetisha-
dilar. Unga har kim ham yetib borolmaydi. Netongki, ming dardga davo
bo'lgan odamzodning bu taskinbaxsh rizqi ShoIR umrini yodga tushiradi.
Asl shoir shu mo'miyo kabi poklikdan, umiddan, sabrdan, sog'inch va bit-
magan yaralar dog'idan dunyoga keladi. Asl shoirning paydo bo'lishi ortida
juda katta sabablar bor. Bular yergagina tegishli emas. Unda samovotning
qo'li bor, shubhasiz. Kimgaki katta she'riy quvvat berilgan bo'lsa, bu katta
asosga ega. Yaratganning ulkan mehribonchiligi bor bu yaralishda.

Men bir kishini eshitgandim. Qirchillagan qirq yoshning nari-berisida bedavo bir dardga chalingan. Oddiygina xastalikmas, odamlar qo'l bilan ko'rsatadigan kasallik. Afsuski, bu bedavo nasldan naslga ham o'tarkan. U kishi bir aziz zotning qarg'ishiga uchraganini aytishardi. Xudo aziz qilgan kishining dilini og'ritish Xudoning ko'nglini og'ritish ekan-da. Harholda, u odam qay ma'noda eldan chiqib qolgan. El bu odamga haromni ko'p yegan, noma'qul ishlarni ko'p qilgan va mast bo'lib kelayotganida oldidan chiqqan Turob degan suvchini urib, qo'lidagi oylik pulini tortib olib suvga oqizib yuborgan deydi. Bu pul Turobning xotiniga juda zarur bo'lgan. Uning xotini o'sha kuni tug'ruqxonada vafot etgan. Bu noxush voqeani eslashdan muddao odamning ko'nglidagi kuch ko'p nar-saga qodir ekanini aytish edi. Qo'yingki, bir notavon odamning eldan chiqib qolishi shu qadar katta omillar asosiga qurilgan ekan, xalq dahosining mahsuli bo'lib, porillab maydonga keladigan shoirning ibtidosida yanada buyuk bo'islar bordir. Shoir elning tilovi, uni ochunga keltirguvchi ota-ona tomirida oqayotgan qonning tozaligi, yig'ilari, pokligidan, ko'ngillardagi


buyuk kuchning so'roqlaridan so'ng sodir bo'ladi. Odam ko'nglida ham tabiatdagidek vulqonlar ham bo'lib turadi. Shoir shu vulqonlar poyonidagi muhabbatdan paydo bo'ladi. Mashhur rus shoiri she'rning yaralishi haqida aytgan gap bejiz emas: "U aytib turdi, men yozdim!" Ha, shoir Xudoning amri bilan yaraladi, she'r ham. Shoir bilan hazillashib bo'lmaydi. Bu gaplardan kasbi – a'moli she'r yozish bo'lgan kishilarni mutaassiblarcha avliyo qilib ko'rsatmoq niyatidamasman, ammo asl shoirning ko'ngil torlari Yaratganning dargohiga tutashligini aytmoqchiman. Asl shoirida juda ko'p narsalar yig'ilgan – mushtarak: nekbinlik, mardlik, adolatga, erkka betiyiq tashnalik, yelkasini mayishtirgan yuk bilan ketayotib ham g'aribga qo'l cho'zmoqlik... shu kabi

nodir hislar shoirga xos. Yana g'urur ham. G'ururki, kibrdan xoli. Mardona g'urur! Ana shu narsalar bir ko'ngil egasida bo'lsa va unga she'r san'atining siri ham in'om etilgan bo'lsa, bu endi oddiy, kundalik hodisa emas.

Men o'zimni juda baxtiyor odamlardan biri sanayman. Negaki, xayolimdagi, orzum-dagi shoirga, shoirlarga duch kelganman.

Ularning birovi, shubhasiz, qadrdon Usmon Azimdir.

Usmon akaning "Alpomish va Qorajon" degan hikoyasida Xoliyor baxshi degan obraz bor. Bu obraz hayotiy, chindan yashab o'tgan baxshining hayoti asosida yaratilgan. Ana shu yurt-



dan badarg'a bo'lib, qatag'on dovullariga uchrab, dog'-u firoqda o'lib ketgan Xoliyor to'qsoba Usmon akaga qarindosh bo'ladi. U kishining Boysun bilan vidolashuv aytimlari hanuz el aro mashhur. Iste'dodning suyak suradigan yo'li borligi rost, ammo Usmon akani shoir qilgan narsa tog'lar mo'miyosidek aziz hasratdir – elning qarg'ishi emas, duosi, tilovi, yo'qlovi, ko'ngillarga dog' bo'lib cho'kkan hijronning teran xo'rsiniqlari, ya'ni – Xoliyor baxshining azim armonlari hamdir. El falakdan yomg'ir so'rab iltijo qiladi. Ammo "Xudoyim, bizga bir shoir yubor" deganini eshitmaganman. Biroq shunday – tilga ko'chmagan tilaklar ko'ngillarda qoim bo'ladiki, buni bir zabardast shoir maydonga kelganidagi quvonchdan anglash mumkin. Usmon Azimni adabiyotimizga ana shunday palak bergan.

Odamzodning fe'li har turlidir. Hayotini o'zga o'lchov, o'zga ravishlarda taqsim qiluvchi talant egalari qatorida Usmon akaning ham xos fe'l-atvori bor. Xossatan, u kishining hayotchan, hazil-mutoyibaga moyil so'zlashuv tarzini yoki uncha-muncha chinovniknamo kaslarni ham ko'rdim demay, aytarini aytib olishini va doim iste'dodli kishilarni yoqlab yuraverishini ko'p ko'raman. Usmon akaning boshi xam, ma'yus bo'lib, domangir-u g'amga botganini ko'rmaganman – ko'rmaylik ham – u bunday oson yengilish, kechikish shoirga xos emas degan qonun asosida yashaydi. Shu qonunni ham salaflaridan o'rganganicha o'rgangan, qolganini o'zi yaratib olgan. U mardona va halol, g'am kelsa ham mard bo'lib ko'tara olish vazifa, deb o'ylasa kerak. Kelmishki har ishni taqdirdan, Ollohdan bir xabar, uning yodida ekanligingdek quvonchli mujda deb keta olish; yana bir juda mushkul ish – imkon qadar baland bo'lib qolaverishni shu shoirda ko'raman va o'zimni, boya aytganimdek, baxtiyor sanayman. Shunday yashasa ham, o'ylasa ham bo'larkan. Voajab! Usmon aka birovdan nolib o'tirmay, o'sha kimsani ko'rganida to'g'ri yuziga ayb-nuqsonini aytishni xush ko'rdi doim. "O'ziga ham aytganman bu xatolarini. Ta'sir qilmadi. Qo'yinglar uni – foydasi yo'q" degan

damlar hayron bo'lgan bo'lsak, uning haqligiga keyinroq amin bo'lamiz. U allaqachon anov kimsaning tuzalmasligini, amalparastligi yoki iste'dodning unga hayfligini yoki o'rtamiyonalik kasaliga, qarsakbozlikka chalinganini yoxud o'sha kimsaning mutlaqo yolg'onchiligini tahlil qilib bo'lgan bo'ladi. Suhbatlarda esa ig'vo va g'iybatga yo'l bermaydi. Gaplashadigan gap ko'p, umr esa qisqa...

Tag'in, Usmon akaning fe'lida shoirligi – shaxsiyatiga olib keluvchi bir yo'l, sabab ham bor. Bu – uning dunyoning naq egasiday adl, g'oz turishi. Butun tiriklik jarayonlariga o'zi daxldor, ehtimol bu charx quyuning qoq o'rtasida o'zi tik turgandek yashashi, shunday o'ylashi, shunday qiynalishi, shunday quvonishi. Turganda ham g'am-u quvonchni sokinlik, vazminlik bilan qabul etib, albatta, o'z bahosini berib, odamlarga yelkadosh bo'lib, biroq buni imkon qadar sezdirmay yengil va tik qolishidir. Uning goho quvlik – quvlikki hammaga ma'lum, o'zi ham bundan zavqlanadi – beozor maqtanishlari ham o'ziga xo'p yarashib ketadi shu onlarda. Men bunda fazilat ko'raman, zavq tuyaman. Samimiyat yutib ketishini boz his etaman. Qani endi shunday qilib maqtanolsang, deyman. Va davom qilaman: maqtanadigan ishlaring bo'lsa...

Ha, mayli, muhimi bu emas... uning ne hasrati bo'lsa she'r bilan yuzma-yuz bo'lgan pallada aytajagini keyin, keyinlar, rosti ancha kech tushunganman. Uning adabiyotimiz, san'atimiz, madaniy hayotimiz tarixida katta hodisa bo'lishi shubhasiz bo'lgan, nashr etilishi negadir kechikayotgan "So'ngso'zlar" asaridan unda-munda parchalar o'qigach ayrim narsalarni tushunganday bo'ldim. Shoirning vaqti kamligini, uning bisoti dunyoning o'zi emasligi va ayni pallada bu dunyo ham bor bo'yicha, butun sarvati bilan shoirniki ekanini, jahonning g'am-u qayg'usi shoirga doiriligini anglay turib, yonimda ana shunday ijod sohibi turganini sevinib esga olaman.

Va xayolimni jamlab, parishonlikni quvib Usmon Azimning – mayakovskiycha gulduros-

ning, tog'dan yumalab kelayotgan katta tosh g'ayratining, shu toshning qismatiga g'ussa-la qarab turgan Usmon Azimning she'r bilan yolg'iz, yuzma-yuz qolishini tasavvur etib ko'raman. (Aslida) she'r bilan yolg'iz qolish, sher – arslon bilan tanho qolishday gap. Bu gapda bo'rttirish yo'q: har lahzasini oxirgisidek yashagan odam biladi buni.) Dovulli, bo'ronli bir zimiston kechada zanjir-u g'ullarini uzguday bo'layotgan bandi tulporning holi ko'z oldimga keladi. Ham o'rtanish, ham zavqli alam, ham dog'i yoqimli g'ussalar bir pallada o'rtaga olgan yurakni boshqa nimaga ham qiyoslash mumkin. Usmon Azim o'zi tasvirlaganidek lovullayotgan ish stoli tegrasida ana shunday bir ilhom aro kezinadi. O'zbekparvarligi, turkiyparvarligi, haqqparvarligi bir-biri bilan mudom o'rin talashib yotuvchi, eng savodxon shoirlarimizdan bo'lgan bu ijodkorda she'rlar juda ko'p. U chinakamiga ko'p yozdi. She'rining o'zi sakkiz-o'n jildlar chiqar-ov. Qizig'i, shuncha she'r ichidan yomonini, shunchakisi, zamonabopini, urfdan qolganini topolmaysiz. Bu juda katta yutuq. Aytmoqqa oson. Qon va ter hisobiga, yurakning beto'xtov azob bilan ishlashi hisobiga maydonga kelgan katta xirmon bu. Keyin bu ijodkorda hamma, har xil she'r bor. Hamma she'riy shakllar, uslublar, tajriba namunalarida uchrayveradi. Mana, o'qib ko'ring:

*Necha ming olamni mehrda yuvib,
Zaminga nur tarab yetgan tovush der:
– Quyosh tegrasida davronlar surib,
– Aylanishing qalay? Yaxshimisan, Yer?*

*– Shukur – deydi zamin, – O'zingga shukur!
Sening rejang ila inonim – haddim!
Samoda sayr etmoq naqadar surur!
Menga sha'n taqdirni etgansan taqdim!*

*– Odamizod qalay?
– Ne deyin?... endi...
Ularga makonman ra'yingga ko'ra.
Bilasan, qadami Oyga ham yetdi –
Men-ku ko'nikkanman... oydan holdan so'ra!"*

G'aroyib suhbatdosh, har qanday yoshdagi, darajadagi odamga o'ziga yarasha gapini topib ayta oladigan, bu odam qarshisida turib uning cho'ng dardlarni olib yurgan ko'ksidan chiqqan satrlarni yodga olaman. Va insonning imkoniyati juda katta, odamning kuchi ko'p narsalarga yetadi, deb o'ylayman.

Har bir Xudo bergan kuni – tuyg'ular bahsidan – hayrat-u hayajonning tarang tortilgan dori ustidan qo'rqmay yurib o'tmoqdan – umuminsoniy, abadiy munglarni, beadoq g'ussani his etib, undan odamni, olamni, Ollohni tanimoqday zahmatlardan – umid va qo'rquv aro, shukrona-yu isyon kesimlarida yurakni butun olib o'tmoqdan iborat bo'lgan Usmon Azim degan shoirmi tanimagan, bilmagan odam, uning:

*Bosib kelayotir dim havo,
Buncha huvilladi bu adir.
Tog'lar tanho, daralar tanho,
Ketgim kelayapti qaygadir.*

*Shamollar soylarda cho'zildi,
Mezonlar uchdilar betaqdir.
Sabrning eng so'nggi ipi uzildi,
Xat yozgim kelyapti kimgadir.*

*Sezdimi kun ketar chog'ini –
Qarg'alar aylandi falakda betin.
Qanotli chiroqdek meni sog'inib
Birov kelarmikan?!*

*Shom tushar chog'ida g'am juda ravshan,
Oqibatni ayon ko'radi idrok.
Hech kimga ko'rsatmay bir yig'lab olsam –
Qorong'ulik tushsaydi tezroq!..*

kabi she'rini pichirlab o'qisa, o'qib qolsa... beixtiyor undagi mungni a'zoyi badanida tuyadi. Va qarshisidagi mag'rur-u, quvnoq odamga shubha bilan boqsa ham ajabmas.

Uning Boysun manzaralari aks etgan yoki Elbek baxshi aytganidek, hayqirib o'qiladigan she'rlaridagi shasht ham o'quvchining diliga ko'chadi va selday shiddat qoshida shoshib qoladi. Bunday she'rlarni o'qigan o'quvchi,



*Men bu kech ko'nglimni tinglab o'tirdim,
Dardiga chidolmay mungrab o'tirdim.
Qayga ketdi mening aziz do'stlarim,
Javobin bilsam ham, yig'lab o'tirdim.*

degan satrlar ham shu ko'ngilning teran sadosi ekaniga lol bo'ladi, so'ng ishonadi.

Usmon Azim katta mahoratga ega, mozaik shoir. U yurak qirralarining har biriga borib ko'rgan, yurak cho'qqilarining har birini zabt etgan, tuyg'ular tovlanishlariga aldanib qolmagan, aksincha kechimplarning rangin olamini qo'l bilan ushlasa bo'ladigan yaqinlikda his etgan va buni qog'ozga muhr etolgan zo'r kashshof, katta iste'dod.

*"Bahor keldimi?
Gulladimi daraxtlar?
Qushlar sayradimi?"*

...Sen ketsang ham shunday hol ro'y beradimi olamda?! – deydi-qo'yadi u! Lol-u hayratdan karaxt qoladi kishi. Uch-to'rt satrda odamning butun umrlik so'rog'ini, dod-u fig'onini, pinhon g'amlarini qanday qilib buncha oddiy qilib, zo'r aytish mumkin?!

Uning ruhida, oqargan sochlarining panasida bolaligi yashab kelayotganini tuyqus anglab qolaman. (Ha, bir zarur gap: bolaliksiz adabiyot yo'q. Va bolaligi tark etgan odamda ham adabiyot yo'q, uni olamning bor go'zalligi tashlab ketgan. U – achin-

gulik odam.) Chinakam san'atkorgina yashab o'tadigan dardi silqib turuvchi umrga yondosh bo'lgan juda katta yashovchanlikning uyg'un tarziga uning she'rlarigina sharh ayta oladi.

Har kuni she'r yozishga tayyor bo'la oladigan, o'ziga kayfiyat topa olishga kuchi yetadigan, she'rni, adabiyotni xususiy mulkiday avaylab, ne bir alag'dalikda yashashni Haqning hukmi deb bilguvchi va muhimi she'ri hayotiday, hayoti qalami bitganday – bir qirda, bir sirda umr kechirib kelayotgan bu shoir o'zining olamini qurdi. Uning Men uy emas, She'r qurdim, degan satrlarida juda toza iqrar bor. Ustoz munaqqid Ozod Sharafiddinov suhbat asnosida Usmon Azim haqida to'xtalib, "Abdullajon, Erkinjonlar ham zo'r shoirlar, lekin Usmon boshqachada", degan edi. Ana shu "boshqacha" bo'lish, nazarda turib qololish, o'zini boricha, ayni damda shu borichani ham yo'l adog'igacha yelkada olib borishday zahmatni Usmon Azim ijodiy yo'lida ko'rdik, ko'rib o'syapmiz.

Bir gal bir mashhurgina shoirimiz "shoirlikning yuki og'ir, uni ayol boshim bilan yelkalab turibman" degan mazmunda gap aytdi. Unga javoban Usmon akaning aytganlari esda qolarli bo'ldi: "Erkak boshimiz bilan o'zimizni she'rga berdik. Bu qurbonlikni qilish o'zi bir azob bo'lsa, uni endi unutilish o'zi bir azob. Erkalik emas, erkaklik qildik biz ham!" Zalda kulgi ham ko'tarilganday bo'ldi. Ammo darrov, o'z-o'zidan bosildi. Bu gap ko'plarga nash'a qilgandi. Ha, erkak boshi bilan harbiy bo'lmay, chavandoz bo'lmay, polvon yoki yoyandoz botir bo'lmay, hech bo'lmasa futbolchi, hisobchi yoki traktorchi bo'lmay shoir bo'lish qismatini bir o'ylab ko'ring. Shoir! Kechalar o'zi bilan o'zi sirlashib, qog'oz qoralab, bu bitiklarini Xudodan boshqaga inonmay yurish va bir gazetadami she'ri chiqsa behad quvonish: "shu zayl chuvalgan taqdirning boshi..." deganlaridek, yo'l boshida qalam tutib turgan ko'zlari yongan bolalikni yo'l so'ngigacha xafa qilmay, dilini qaro qilmay opichlab kelish bu shunchaki ish emas. Bir gap aytсам ishoning, bu ish farishtalar ishtirokida ro'y beradi! Yuqoridagi ishlarni esa boshqa odamlar o'zlari eplashaveradi.

“Ota-ona farzandining shoir bo‘lish orzusida ekanini sezdimi, uni to bu xayoldan voz kechgunicha yoki butunlay asl shoir bo‘lib kamolga yetgunicha har kuni kaltaklab turishi kerak”, deydi bir nemis faylasuf muallimi. Bu gapda chuqur ma’no bor. Iste’dod – intizomdir, degan gap bekorga emas. Usmon aka aytganidek, erkak boshi bilan she’r yozish deganda va qurbonlik deyilganda yuqoridagi fikr-mulohazalar ko’ngilga qalqib chiqadi va bexos titrab ketaman: bu qanchalar mushkul ish ekan va buni Usmon aka qanday uddalabdi! Shu mulohazalarni davom qildirib bir xulosa qilishga oshiqaman: milliy adabiyotimizga Usmon Azim bergan eng katta narsa she’rning g’urur, nafsoniyat ekanini anglatganidir. So’zning taqdiridan olingan qarz ekanini tushuntirganidir. (Eh, bировga yo’lni tushuntirish qanday qiyin bo‘lgan dunyoda, bu odam, ko’p og’ir ish boshlagan deb qolaman goho).

To’qqizinchi sinfdaligimda Usmon Azimning “Saylanma”si nashrdan chiqdi. Garchi shoir bilan tanish bo‘lmasak-da, bu ijodkorni ko’pdan beri “yaxshilar”, hattoki “eng yaxshilar” qatoriga qo’shib, o’zimizniki bilib yurganim uchun bu nashr meni ham quvontirgandi. Keyin u bilan chinakam tanishish boshlangan. Bu “Saylanma” nafaqat men – puchmoqdagi bir o’quvchi uchun, balki butun o’zbek she’rxoni uchun juda katta voqea bo‘lgan. Bu kitob millat shoirlarining keyingi avlodiga mayoqday xizmat qildi. Bu kitob Usmon Azim zabt etgan baland cho’qqilardan biri, shubhasiz. Maktabimizdagi she’rxonlar Usmon Azimning “Saylanma”sini o’qiganlar va o’qimaganolarga ajralib qolgan edi. Shoirga Xudo shunday bir mashhurlik keltirdi. Shunday bir sharaf berdi. Mayoqlarsiz, kumirlarsiz bizning holimiz qanchalar nigun! Qanchalar g’arib bo‘lib qolamiz ularsiz? Ey, Yaratgan! Beraringni kam qilma! Bu nidolar minglab yuraklarning arzidir, asli!

Muallifning keyingi va avvalgi kitoblari ham o’ziga xos nashrlar. Masalan, “Fonus” to’plami ham, “Kollaj” to’plami ham, “Kuz” ham... bularning har birining o’rni, vaqtga yor bermay kelishlarida ijodiy kuchning va dil taqvosining og’ir mehnati borki, bejizga mavjud emas. Kitob javonda turib umrini yashab bo‘lgan kitoblar ozmi?

Bu olamda nomingni pok tutib turishning o’zi bir shtat ish. Ammo zo’r shoir hamda yaxshi odam degan nomning himoyasi esa yana va yana qiyin. Shu qiyinlik, shu iztirob bilan “toshlari tuproqqa aylangan dunyo”ga boqqan shoir yuragining hayratangiz savolini tinglang: “Nahotki, dunyoning eshigi yo’qdir, Derazasi yo’qdir bir zum qarashga?!”

Uning “uchib ketayotib o’ladi bu qush” degan bir azobli satri bor. Bu satrni tinglash, o’qish mushkul a’mol. Ovchi dunyo yaralagan bu qush bir burchakda emas, uchib ketayotib jon berayapti. Qush-da! Uning qaysi qush ekanini ham bir muddat dard yutgach anglaysiz. Bu shoirming “Tangrim, yolvoraman, qush qilib yarat, Yerga qo’nmaydigan qushlar bormikan!?” deya hayqirgan yuragining qushga do’nishi. Va yarador holida qanot qoqishi. Bu haqda, bu mavzuda o’ylaganda Usmon Azim ijodida qush timsollari galasiga duch keladi o’quvchi. Uning “Kuzgi bog”, “Yozgi bog”laridagi qushlar sayri ruhni parvozga shaylab yuboradi. Qafasning ochilgan tilla eshigidan boshini chiqarib ko’rayotgan qushning ma’sum tasviri, dunyodan daricha izlayotgan shoir yuragiga juda o’xshab ketadi.

Ushbu she’rni o’qing:

Qushga qanot dushmandan

qochish uchun berilgan ekan;

Qushga qanot rizq topish uchun berilgan ekan...

Men esa hur parvoz uchun berilgan deb yuribman.

Yoki mana bu satrdagi sog’inch yuki, harorati, ulug’likka talpinishlarni qarang: “Tog’lar, viqorin-giz qalbmida mangu!” Bunday satrni o’ylab, fikrlab, tajriba orttirib yozish mumkin emas. Buni Xudoyjon yuborgan! To’rtta so’zdan iborat qanday baland fard! Qadalgan qilichday turadi! Bu satr bir o’zi ham yashab ketoladi. Chunki uni paydo qilgan so’zlar ulug’! (Tog’, Viqor, Qalb, Mangu) Va bu so’zlar uyushib kelgan yurakning shiddati, savti kuchli juda! Tag’in uning “Yurak bo‘lishi yolg’onmi odamning ichida?!” degan



odamni esankiratib qo'yguvchi savol-satrlari, "Men uyg'onsam, ovoz bo'laman" degan qanotli xabarlari o'qirmanning o'lgan hislarini takror tiriltiradi. Bitta odamning o'limidan ko'ra bitta tuyg'uning o'limi katta fojia. Shu hisobga olinsa, bu satrlar o'quvchiga Xudoning marhamati ekanini tan olish kerak!

Iste'dodli odam haqida gaplashish, fikrlashish zo'r mashg'ulot-da. Qiyin bo'lsa ham, zavqing halol kechadi. Shunday zavq ta'sirida anglab qolaveraman: chin ma'nodagi professional ijodkorlar juda noyobdir bugun. Aslida doim shunday bo'lgan bo'lsa kerak. Bunday ijod kishilari tabiatning in'omi. Bular Omonxonadagi mo'jizaviy shifobaxsh buloqlar qanchalik noyob va bobarakot bo'lsa, shunday tabiat hodisasidirlar. Ammo bizlar hamisha ham mo'jiza bilan shunchaki narsaning farqiga, boravermaymiz.

* * *

Usmon aka ijodiy hayoti va hayotiy ijodida muntazam, sobit, hamisha mas'ul bo'lib, 70 yilki she'r bergan hayrat tafti elitib, she'r bilan birga kelayotir.

U biroz yozib, biroz sayohat qilib, biroz davlatmandlik yoki amaldorlikka berilib, yana ijodkorligi esiga tushib, esnagan gancha o'tmas qalamini qidirib qoluvchilardan bo'lmadi. Bo'lolmadi. Uning umri, yashaganiga qiyosan qopladi.

U ellik-oltmish yil burun termizlik shoir Tessa Saydali nashr ettirgan ilk she'rilaridan bugun ijtimoiy tarmoqlarda taralayotgan satrlarigacha og'ir, chidash mushkul bo'lgan yo'lni ijodiy cho'kishlarsiz, talafotsiz bosib o'tdi. Yosh bilan bog'liq ko'tarilish va tushishlar uning she'riyatiga daxl qilolmadi. U bunga she'mi ko'ndirdi. Uning ko'ksida urib turgan otashin yurak ijodiy qismatga tik boqdi. Bunday muntazam tarzda, baland pafosda shoir bo'lib qola olishning siri nimada?

Taqdir o'zbekning bu azamat shoiriga juda katta quvvat, ruhiy bardamlilik bergan ekan. Bu quvvat vujudga bo'y beray demaydi. Vujud ham shu ruhiy savt bilan tengma-teng yurishga intiladi. U doim yaxshi shoir bo'ldi, doim zo'r shoir bo'ldi. Mudom qalamidan adolat va mehr, jonfidolik, jo'mardlik qoni tomchilab turdi. Nega? Qanday qilib erishdi bunga u? (Bular juda muhim, jiddiy savollardir.) Xudo katta iste'dod va ruhiy kuch bergani, jahoniy adabiyotdan boxabar savodxon bo'lgani uchungina emas faqat. Bilamizki, hayotda iste'dodi va ijodiy qudrati betakror, ammo zo'r adib yo shoir bo'lolmay qolganlar bisyor.

Usmon Azimni bugun adabiyotda chinorday ulug' qilgan narsa, avvalo, uning ko'ngil taqvosidir. Bu taqvo dunyoning kir kunjaklarida ajdaho bosib yotgan tilloday nafsni o'ziga tortuvchi nimarsalardan o'zni tiymoqdir. Bu taqvo chin so'zni aytish lozim bo'lgan pallada ayto olmay, tilni tishlab, uzoq vaqt o'zini kechirolmay yurishdek og'ir damlarda buzilgan bo'ladi. U halol yashadi, yuzing-ko'zing demay haq gapini aytib o'taverdi hamisha. "Shoirlari yolg'on aytsa o'ladi el" degan

satrlarni ko'ngliga solgan Tangrini yuz-xotir qildi mudom. Doim mard bo'lib, tanti, jo'mard bo'lib qolgan uchun ham taqdir uni ShOIR degan sharaf bilan siyladi. Usmon Azim doim halollikning tarafini oldi, yupun, g'arib, yo'qsil bo'lsa-da, haqiqat tomonda turdi. Har lahza bezovtalik bilan qayg'ura oldi bu haqda. Qismat uning tanglayiga shoirlikning shunday cho'g'li tamg'asini bosganiga ko'p bor amin bo'ldim.

Juda yaxshi ko'rgan uka-singillarining ham adabiyot masalasida ko'ngliga qaramadi. Zo'rini tan oldi, alqadi, qo'llab-quvvatladi. Yomon bo'lsa, betiga aytdi-qo'ydi. Uni yoqtirmaganlar iste'dodsizlar, chin gapni tan ololmaydigan, chidolmaydiganlar. Uni xushlamaydiganlar so'zbozlik bilan bodilik qilib yurguvchilar. U iste'dodning kamolga yetishi uchun jon boricha kurashdi. Qatag'on qurboni bo'lib ketgan qarindoshi Xoliyor baxshining do'mbirasiday "g'ay-g'aylab" doim rost so'zini aytib keldi bu shoir. Xushlamagan odamidan yoki o'ziga yoqmagan majlisbozliklardan qochish uchun biror bahona topib bo'lsa-da tezroq uzoqlashadi, chiqib ketadi. Mabodo, bunday holatda me'yoridan ko'proq turib qolsa, "portlab" ham ketishi mumkin.

Bu so'zlarni aytish, yozish, tavsiflab baholash oppa-oson. Biroq bu umrni yashab o'tish ko'p og'ir, birodarlar. Uning "Yaxshilab yashasang bu umr – qiynoq" degan iqrorlari behikmat emas.

Uni Yaratgan Egam ana shu taqvosi uchun baland qildi. "Hasadgo'y ulug' bo'lolmaydi", deydi shayx Ahmad G'azzoliy. Usmon Azim hayoti bilan, ijodi bilan shu hikmatni isbot qildi. Yaxshini ko'rsa quvonib, alqab, asrab, ardoqlab, nomardni ko'rsa, ming yillik dushmanini ko'rgan-day dili qattiq og'rib, og'rinib, unga munosabatini yashirmay aytib keldi u. Odam bolasi bu dunyoda kimgadir o'xshashni orzu qilishi, kimdandir uyalishi, kimgadir ich-ichidan suyanishi, kimdandir hayiqib, kimdandir andisha qilishi kerak! Va albatta, kimdandir qo'rqishi zarurat! Bo'lmasa u tezda nobud bo'lib ketadi! Shoirming asl ishlari-dan biri o'quvchiga ana shu gaplarni ham eslatib turishdir! U o'z olamini, oydin qalbini pok tutgani

uchun ham Usmon Azim degan nomni bunyod qilildi. U taqlid qilmadi sira. Falonchidan o'tishim kerak, degan yoki boshqa biror iddao bilan qalam surmadi, bahs boylamadi.

Uning ijodida "Mamarayim baxshining aytgani" degan she'r bor. Oyog'ingdagi poyabzalinga qarab baho beruvchi bu dunyoda yalangoyoq yashab, dunyo ustidan shu holidayam kulolgan baxshining holi Usmon Azimning dunyoga qaragan oynaklar ortidagi nigohlarida nihondir.

Tag'in, ko'pkarida oti o'lib, egar-jabduq, qamchisini qo'ltiqib g'amgin qaytgan odamga ayolining bergan taskini qariyb qirq yilki yuraklarni o'rtab, ulg'aytirib, mardlik baxsh etib turibdi:

*Chavandoz uloqdan qaytdi piyoda,
– Ranglaringiz bir hol, ayting ne bo'ldi?
– Onasi, dardimni qilma ziyoda,
Onasi, otginam, otginam o'ldi.*

*Uchib borar edim misoli shamol,
Otginam qoqildi o'tmasdan bir pas.
Jasadi ustida turib qoldim lol,
Onasi, otimdan ajraldim, xullas.*

*Chavandoz xo'rsindi, uh tortdi og'ir,
Bir chetga jimgina burdi yuzini.
Balki, u erkak-da, istamagandir
Xotini ko'rishin yoshli ko'zini.*

*Olamni tark etdi oftob-u kunduz,
Chavandoz xo'rsinar o'ylar otini.
Eriga boqqancha mayin-u ma'yus,
Gapirmas, o'ltirar sassiz xotini.*

*Chavandoz xo'rsinar, ot qayda endi,
Endi qaydan bo'lsin u rohat, lazzat.
Xotini ham jim-jit o'ltirar edi,
Na tasalli berdi, va na nasihat.*

*Chavandoz xo'rsinar, tong otar edi,
Eng so'nggi yulduzlar borardi botib.
Xotini shivirlar: "Hech xafa bo'lmang,
Sizga ot olamiz uy-joyini sotib!"*

Shu she'ni yaqinida izlab topdim, qayta o'qidim. Va dedim: shuni yozgandan keyin umuman yozmasa ham bo'lar edi. Mutlaqo boshqa ishning boshini tutib ketaversa ham bo'lar edi. Hayrat-u hasrat, dilni g'ijimlovchi o'ylar, muhabbat, dunyoning qiziqligi, hisobi buzuvchiligi, yashashning asl ma'nolari va hakoza hamma narsani topish mumkin bu she'r matnida. Beixtiyor, "Shunday shoirimiz bor-a!" deb yuborasan, odam. O'sha shoir hanuz yozayotir.

Qanday qilib? Savol qalqiydi yana. Bu shoir tiriklikning yuz burib ketish qiyin bo'lgan matozlariga parvo qilmadi. O'zining yorug' ijodiy olamiga, aziz oilasiga, pokiza do'st-u yorlari, shogirdlari qoshiga mard, halol, xotirjam holda yorqin tabassum bilan qayta oldi doim.

Shu sabablidir u juda o'ktam. Shiddati, jur'ati she'rlaridan toshib turgan shoir. Uning ijodida aralash she'r yo'q: biroz xudbinlik, biroz tantilik, biroz sevgi, biroz xiyonat qorishiq mavhum satr yo'q. Chunki bu narsalar uning zuvalasida yo'q. Uning she'rida olmon shoiri Rilke gado ayol qo'lga ta'zim bilan gul tutaveradi. Shu palada dunyoni kalxatday aylanayotgan Stalin-u Gitlerlarning topganlari shu birgina qizil gul qoshida hech ekanligiga qattiq ishonasiz. Bu she'r o'qirmanga juda katta kuch beradi.

Uning she'ri biror joyda chop etilgan bo'lsa-yu ism-sharifi tushib qolgan bo'lsa ham qiynalmay tanib olish mumkin. Uning har bir she'ridan ovozi eshitilib turadi. Bu yaxlit taassurotni, ko'nikmani she'rxon qalbida uyg'otish uchun shoir o'z ijodiy qismatiga sodiq, she'r yo'lga – imon yo'lga sadoqatli bo'lishi kerak. Aksincha biri bog'dan, biri tog'dan kelgan ohanjama, pala-partish tizmalar paydo bo'ladi.

Usmon Azimning doim shashtli, tarang tortilgan yoyday she'riyati uning o'zigagina o'xshaydigan suvratidir. Boshqasiga alishib, adashtirib bo'lmaydi. U sira zo'riqib yozmaydi. Majburiy, o'gay satrlarga duch kelmaysiz uning she'rida. Hammasi, shakli-yu mazmundan qat'i nazar, dardi yetilib, vaqti kelgach dunyoga kelgan ijod mahsullaridir. Yana bir narsani e'tirof etish zarurki, bu

shoirning til masalasidagi ijodiy ishlari. U so'zlar, so'z qo'shimchalari, qo'shma so'zlarni tahlil qildi, yangilarini ko'p topdi, unut bo'lganlarin qaytardi – ko'shish qo'shdi. Bu masala rosti, tilshunoslarimiz uchun alohida bir tadqiqot.

Usmon akaning yoshi yetmishni qoralab qolgan bo'lsa-da, sira alamzada bo'lib, kimni ko'rsa, poshshodan, jamiyatdan, xullas, hammadan noliydigan bo'lib qolmadi. Shunaqa bo'lishiyam mumkin-ku. Andisha ham, nazokat ham uni tark etmadi. Hatto maqtanishi ham o'ziga xos – boladay quvonadi, tinglovchining ham qulfi dilini ochib yuboradi.

Bunga, bularning barisiga qanday erishdi u? Javob oddiy va lo'nda: uning doim nazari to'q bo'ldi! Uxlaganda oyoq qoqmay uxlaydigan darajada xotirjamlikni bergan mardligi uning qalbini shunday asrab keldi.

Bu juda qiyin ish! Bunday halovatga yetish juda og'ir kechadi.

"Yomon odamning qalbi afsus-nadomatga to'la bo'ladi" degan ekan Arastu. Usmon Azimni o'ksinib, g'amgin bo'lib turganini ko'rmadim desam ham bo'ladi. Doim qarsillab turadi u. Soxtakorlikdan qancha uzoq bo'lsa, kulgusi ham shunchalar tabiiydir.

Usmon Azim she'riyati hamisha ot ustida turib, oriyatini himoya etayotgan yovqur suvoriyning shaxd bilan kelishiga o'xshaydi.

O'sha to'qnazarlik, o'sha parhez shoir qalbini yalang'och bo'lib qolishdan asraydi. Yalang'och qalbni she'r farishtalari tark etib ketadi. Tark etgach sira ortiga qaytmaydi. Jaloliddin Rumiy: "Qalb ham vujud kabi yalang'och bo'lib qolishi mumkin. Uning libosi taqvodir", degan. Shoir esa buni boshqacha tarzda izhor etgan: "Ko'nglingga ayt, umringga loyiq ish topsin!" "Loyiq ish"ni topish zahmatidan qo'rqmaslik ham odamga ko'p azoblar, murakkabliklar keltiradi. Ko'ngilning ko'ngliga qarab yashash ko'p mushkul. U yana bir o'rinda:

Albatta, tog'ning o'zi aybdor,

Kim aytdi unga baland bo'lsin deb,

deya bitadi hasratli tabassum bilan. Bu satrlar ham bejiz emas, bu satrlar ham ko'ngilning maktablaridirki, undan mudom xabar olish kerak.

...Uning istalgan she'ri o'qish mumkin. Barchasida nekinlik, jo'mardlik, otashin shavq g'olibdir. Uning biroz horg'in, dardchil, o'ychil, kuzgi bog'dagi sayrday hazin satrlarida ham bir tamoyil ustuvor. Bu – mardona bo'lib, yengil-sa-da, halol bo'lib, sinsa-da, g'ujur bilan, ayriliqqa uchrasa-da, nomusiga ega holda, mustamlaka bo'lsa-da, toptalmay qolishdek shiddatni, jur'atni topgani, o'ziga, so'ziga singdirganidir...

* * *

Usmon aka haqida, katta, betakror shoir haqida, zo'r nosir haqida, ziyrak dramaturg haqida, publitsist haqida bir gap ochilib, gurung boshlanganda hamma gapni aytib tashlashning iloji yo'q. Masalan, uning esselari o'zi bir ijodkorga yetadigan, bir necha tadqiqodlarga arziqlik ishlar. Boshqalari ham shunday.

Gap shundaki, men bir kuni Usmon akaning rosa 25 yil avval o'qiganim bir she'ri eslab, qo'msab, o'sha she'rdagi bir satrni sarlavhaga olib nimadir yozishni juda istayotganimni his qildim. Dam olish kuni, choy ichib o'tirgandim. Ammo ish stoliga yetib borish juda qiyin narsa. Bu yo'l og'ir yo'l. Biroq darding zo'r kelgach u yerga qanday yetganingni bilmay qolasan. Biroq bu dard bo'g'zingga yetgunicha vaqt kerak ekan. Vaqt o'tdi ham. Bir payt yonimizda, bir shaharda yashab turgan bu shoirni juda ko'rgim, hech bo'lmasa sim qoqib bir narsalar haqida gaplashgim keldi. Telefonni qo'limga oldim. Raqamini ham terdim. Ammo chaqiruv ketmasdan o'chirdim. Soat kechki 12 ekan. Biron narsa qoralash istagi choshgohda kelgan bo'lsa, men esa telefonni kechki soat 12 da qo'limga oldim. Shu holda kun o'tib ketibdi-da, demak. Tavba. Labim tinmay pichirlab bir satrni aytaverdi: Tog' boshiga qor tushibdi, qor...

Bu qor meni 25 yilki sehrlagan. Sobir Yadikov ham peshonasi yarqiragan odam. Shu she'rni shoir unga bag'ishlagan.

Alqissa, men stoldan bosh ko'tarib derazadan qaraganimda Parkent tog'larida qorni ko'rdim. Birinchi qorlar bo'lsa kerak. Ochig'i, tog'lar-

dan ko'z uzolmay qoldim. Siz yuqorida o'qigan, men hali nimaligini bilmay turgan bitiklarimning totli charchog'ining nomi ham shu ko'zim ko'rayotgan tog'lardagidek qorlarga qorishiq ediki, hayajon keldi. Xudoyim menga bu manzarani in'om qilganiga inondim juda. Yengil bo'lib qolgandim. Oradan bir tun o'tib ketgan. Bu tunda men Usmon Azim degan tizmaning bir-ikki jilg'asiga aylanib keldim. Falak esa sog'inchli qorini tog'larga tashlab o'tibdi. Xudoga shukr! Bor bo'lsin, sog'inch! O'lmasin shoirilar!

* * *

Sobir Yadikovga!

*Derazaning pardasin surib,
Tongda boqdim ufqqa bekor...
Men bilmabman beparvo yurib,
Tog' boshiga qor tushibdi, qor.*

*Derazadan tog'larga qadar
Uzunligi hayotimcha yo'l.
Bir daraning ustida kaptar,
Charx uradi – qanotlari ho'l.*

*Yaraqlaydi qishli, quyoshli,
Nur va qorga belangan olam –
Unda meni jim sog'inadi
Ko'zyoshlari tugagan onam.*

*Derazadan beri – to'rt devor,
To'rtovi ham dono, faylasuf:
"Kurashaver! Faqat olg'a bor!..."
Ular menga ta'lim berar... uf!*

*"To'g'ri" deyman... ammo bir larza
Qalbdan portlar – ko'zdan oqar yosh...
Yuragimda sog'inch har lahza –
Ulkanlashib borguvchi quyosh.*

*...Xayr, tog'lar, ish vaqti yetdi,
Ish!.. bormasam to'xtaydi zamon.
Bag'ringizda ko'rimsiz, mitti
Tepa bo'lib qolaman qachon?*



Bayram ALI

1991-yili tugʻilgan.
Oʻzbekiston Yozuvchilar
uyushmasi tomonidan “Birinchi
kitobim” ruknida “Kuz yomgʻirlari”
hikoyalari toʻplami chop qilingan.

Tunkezar bolalar

(Qissa)

*Oppoq edi boshda bu dunyo,
Ko'cha oppoq, kechalar oppoq...*

Xurshid Davron.

Birinchi soat darsga kechikkan biz uchovlon botirlar yuraklarimizni hovuchlab endigina maktab binosi yonida uchrashib turgan edik, sinf rahbarimiz Boʻtayevning olahakkanikiga mengzar oʻtkir tovushi kapalagimizni uchirib yubordi.

– Hey-ey, qahramonlaar! – dedi u goʻyo bizdan tortgan barcha sitamlari uchun oʻch olishning biror yoʻlini topganday gʻoʻddayib. – Nega kechikib qoldilaring? Tezroq xonaga yuringlar! Senlarni kutib turibmiz – uchastkavoy bilan!

Boshim qotdi. Biz Boʻtayevga oxirgi marta qachon yomonlik qilgan edik? Hafta oldinmi? Ammo u rejamiz ham sinf rahbarimizni mahv etishga qaratilgan boshqa bir qancha rejalarimiz kabi muvaffaqiyatsizlikka uchragan edi-ku, oqibatda ana, u yana qarshimizda shaqildoq ilonday buqogʻini shishirib turibdi! Aslida oʻsha ish eslashga ham arzimaydi va uni amalga oshirish fikri qasddan emas, toʻsatdan paydo boʻlgan edi bizda. Yaʼni sinfxonamizga kutilmaganda kattakon qora ari kirib kelgan edi.

– Vu-u-uy, – deb yuborgandi hamsinf qizlardan biri ariga qarab. – Ja gʻalati turidan ekanmi? Qora ekan!

Ari kattakon boʻlgani uchun qanotlaridan chiqqan tovush boshqalarning ham eʼtiborini tortib ulgurgan, bu vaqtda hammamiz zoʻr qiziqish bilan uni kuzatayotgan edik.

– Bu – qora zambur, eskitdan bor, – bilogʻonlik qilgandi Sadaf. – Enamning tishi ogʻriganda, mana shunday zamburni tishlab tuzalib ketgandi.

“Aldayapti!” degan gap deyarli hammamizning xayolimizdan oʻtgan bir payt:

– Hazillashayapti! – deya oʻz fikrini yumshatibroq ifodalagandi Mirza. – Hech bir zamonda ari – zambur ham tish ogʻriqni davolar ekanmi?!

– Davolagan deyapman-ku, – Sadaf boʻsh kelishni istamagandi. – Enamning aytishicha, buning bir rivoyati bor ekan. Qadimda, avliyolar yashagan davrlarda qattiq ocharchilik boʻlibdi. Shunda bir avliyo oʻz farzandlariga “Xafa boʻlmanglar. Hali bir davrlar keladiki, odamlar oʻzlaridan ortgan taomlarni koʻchaga olib chiqib toʻkadi”, deb dalda beribdi. Bu gapdan avliyoning qizining jahli chiqibdi. “E, shunday isrofgarchilik

qilishsa odamlar tish og'riq bo'lsin-ye!" deb yuboribdi. "Unday demang, qizim, undaygina qarg'amang! – shoshib qiziga o'tinibdi avliyo. – Tez buning davosini ayting!" Shunda o'sha avliyoning qizi "Yo ombur davo, yo zambur davo!" degan ekan... Shu-shu, odamlarning tishi og'riydigan bo'libdi-yu, sug'urtirib tashlamasa yo shu noyob qora zamburni g'archillatib tishlamasa, bu og'riqdan hech qutilmaydigan bo'libdi.

– Xo'p, bu jonivorni tishlasa, tish og'riqqa davo ekan, lekin chaqsa-chi? Chaqsa nima bo'larkin? – Sadafning gapini rad etmagan holda, o'smoqchilab so'ragandi Qodir. – Adashmasam, birinchi soat sinf rahbarimizning darsi edi-ya?!

– Unday qo'rqitmanlar-ye... – degandi, og'zi va ko'zlari katta ochilib, kattakon baliqqa o'xshab qolgan Mo'min. – Chaqsa... O'ldirmay qo'ymaydi bu!..

Bu payt Mo'mindan bo'lak hamma Qodir o'smoqchilab nimaga shama qilganini anglab ulgurgan, qo'lga daftarini olib, partalar ustida sakrashib qolishgan edi. Biroq men o'zg'irlik qilgandim. Turgan joyimda papkamni uloqtirgandim-u, shiftdan arini urib tushirgandim!

– Gap yo'q! – iftixor bilan boqib, alqagandi meni Sadaf, – Chingachguk bo'b ket!

So'ngra tirik arini qo'lga oldik. Qanoti va oyoqchalarini yulib tashladik. Ko'zga tashlanib turgan nishini tepaga qaratib, Bo'tayevning hozir kelib o'tiradigan stuliga joylashtirib qo'ydik. Sho'rlik sinf rahbarimiz bizga rahbar bo'lgandan beri birinchi marta shovqin-suronsiz, mana shunday jimgina dars boshlanishini kutayotganimizni ko'rishi bo'lsa kerak. U sinfxonaga kirib kelarkan, go'yo "mina"ni bosib olishdan cho'chigan askarday hadiksirab qadam tashlar, ikki ko'zi alang-jalang edi. Har doim nega ovozlaring chiqmaydi, deb bizga ikki-uch qaytadan baqirtirib salom berdiradigan odam, bu gal azbaroyi ishtiyoq bilan bergan salomimizga ham alik olishga ikkilandi. Boshini iring'ab, nimadir deb g'udranganday bo'ldi-yu, ko'zlarini bizdan uzmasdan sekin joyiga cho'kdi. Barchamiz uning sakrab o'rnidan turib ketishini kutib bo'yinlarimizni ichga tortgan edik, u battar ajablendi. Xiyolgina chayqalib, sutulga yanada o'rnashibroq o'tirishga harakat qildi.

Bo'tayev o'tirgan joyida yo'qlama qilganida, kechagi mavzuni so'rab bilganida ham, biz hamon uning sakrab o'rnidan turishi va dodlaganxa xona bo'ylab yugurib qolishini umid bilan kutib o'tirardik. Lekin, afsuski, hali aytganimday rejamiz muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Bo'tayev yozuv taxtasiga yangi mavzuni yozish uchun o'rnidan turganida qarasaq, ari majaqlanib uning kattakon ketiga yopishib qolgan ekan...

Biroq u hozir bizni hafta oldin qilgan bu bezoriligimiz uchun emas, kecha tunda amalga oshirgan rosmama jinoyatimiz uchun sinfga chorlayotgani ehtimoli katta edi. O'ldimi, ari uchun uchastkavoy chaqirib yurmas...

– Sezib qolishibdi... – yirtilib, pati to'kilgan yostiqday bo'shashibgina g'uldiradi Qodir mening gumonlarimga hamohang. – Buning ko'p ishni tindirganday g'o'ddayib turishidan, ichkarida bo'larimiz bo'ladinganga o'xshaydi...

– Ana, kecha sen ikkalangga aytmovmidim! – go'yo ichidan bir narsasi uzilganday ingrab yubordi Mirza. – Hammasiga ko'z yumib, tinchgina o'tirganimizda bu balolar yo'q edi!..

Allaqachon ko'nglim buzilib, juftakni rostlashni o'ylayotgan esam-da, Mirzaga tashvishlanib qaradim: chunki kecha u hecham unaqa degan emas, hozirdan shu turishi bo'lsa, ichkariga kiribq hamma mag'zavani Qodir ikkimizga ag'dar masa go'rga! Axir, aslida... Aslida hammasiga shu Mirzaning o'zi..., yo'q Qodir..., yo'q-yo'q..., yaxshilab o'ylab olay-chi... Balki... Balki Sadafning o'zi sababchi emasmi?!

Sadaaf!.. O-o, Sadaaf! Ne ajabki ayblab, yerga urib, qum-tuproqlarga belab gapirgan taqdirda ham uning ismi tilginadan sirg'alib ajib bir kuy bilan chiqadi-ya? Holbuki, jismi ismiga monand, oppoq va bo'rsildoq yuzlariga kulgichlari yarashgan, ko'zi qiyg'och, sochlari patila bu oyimcha biz uch oshna – men, Qodir hamda Mirzaning naq jigaridan urib qo'ygan edi-da! Bu haqda hech kim gapirma ham, butun sinfdoshlarimiz bilar edi shunaqaligini! Hatto Sadafning o'zi ham bizni to maktabning ilk sinflaridan beri kuydiribgina yurganini yaxshi bilar, shundan hech qaysimizni xafa qilmay, hech qaysi birimizni qo'ldan chiqarishni istamay, har uchalamizga birdek qosh qoqib, ko'z uchirib qo'yishni kanda

qilmasdi. To'g'ri, u entikishlarimizga javoban shu birgina qosh uchirishdan nariga o'tmas, juda erib ketgan pallalaridagina bo'yiga yetayotganidan beri tobora qizil atirgul g'unchasiga o'xshab qolayotgan lablarini qimtib, o'zicha arazlardi. Kinolarda ko'rganman, qiz bolaning arazlagani – nozlangani, nozlangani – suyгани! Uning bunday noz-ishvalariga eng ko'p duchor bo'lgani uchun kamina, Sadaf aslida mana bu govkalla oshnalarimni emas, birgina meni, yakka o'zimni yaxshi ko'rsa kerak, degan shirin shubha va gumonlarga berilar edim. Nega unday umid qilmay edi? Axir, kechagina – ilk sinf davrlarimiz maktabga birga qatnab yurganimizda unga uydan navvot, parvardalar olib borganim, hatto enam qishda yeyish uchun gazetaga o'rab savatga joylab qo'ygan olmalarni-da tashib yedirib yuborganim, bu ishim oqibatda uydan haydalisimga oz qolganigacha hali-hanuz esimdan chiqqan emas-da. O'shanda Sadaf, yo'q hozirgi katta qiz bo'lib qolgan Sadaf emas, sochlarini ikki o'ram qilib oppoq lentachalar taqib yuradigan qizaloq Sadaf Mo'min bilan bitta partada o'tirar, betashvish-beg'am, bo'sh-bayov Mo'minboy esa qanday baxtga ega ekanini xayoliga ham keltirmasdan papkasini yostiq qilib nuqul uyquni urib yotardi. Eh, shu bir Mo'minga qanchalar havas qilar, Sadafga yaqindan, nafaslarini eshitar darajada yaqinginadan soatlab termulib o'tirishni men qanchalar istar, orzu qilar edim o'shanda. Aytgancha, Mo'min – biz oshnalarning to'rtinchimiz. Birinchi sinfdan to beshinchi sinfgacha Sadaf bilan bitta partada o'tirgani uchunmi yo onasning qo'li shirin pazanda bo'lgani uchunmi, uncha esimda yo'q, ishqilib sinfmizdagi qolgan dovdir-sovdir bolalarning ichidan uni o'zimizga oshna qilib saylaganmiz. O'ziyam oshnachilikka yaraydigan bola-da, g'irt ammamning buzog'i – qayoqqa yetaklasang g'iring demay ketaveradi! Qisqasini aytganda-ku, go'dakligida Sadaf bilan bitta partada o'tirishidan tashqari, mening boshqa bir gal ham unga juda havasim kelgan. Bu voqea o'sha – biz piyoz ekib, rahmat eshitish o'rniga tuhmatga qolgan kunimiz, zov bo'yida bo'lib o'tgan edi.

U paytlari biz tarang tortilgan kamon o'qiday yetuklikni ko'zlab turgan to'qqizinchi sinf o'quvchilari emas, bor-yo'g'i beshinchi sinfnig

tentakina bolalari edik. Tabiatshunoslik fani malimimiz bizdan sinfmiz bilan dalaga – piyoz ekish uchun hasharga borishimizni so'rab qoldi.

– Bolalarar, bu shunchaki hashar emas, ochiq dars, – degandi o'shanda malimimiz. – Shuni ota-enalaringga yaxshilab tushuntirib, ro'xsat so'ranglar. Dalaga chiqib terlasalaring, miyalarindagi ortiqcha suv chiqib ketishi mumkinligini ham aytish esalarindan chiqmasin.

Biz esa malimimizning gapirish ohangidanoq bu shunchaki hashar emasligini, balki tabiatshunoslik fanidan tabelimizga tushajak besh baholarning garovi ekanini sal-pal anglaganday bo'lgan edik. Uch-to'rtta dangasani hisobga olmaganida, darsdan keyin hammamiz turnalarday tizilishib borgandik.

Dalada esa erta bahorning yam-yashil o't-o'lanlari shatoloq otib qochgan bolalarday sochilib yotardi. Osmonda to'p-to'p bulutlar misoli o'yinqaroq bolalarday suzib yurar, quyoshning lohas qiluvchi nurlari ko'zlarimizni qamashtirib, atay biz bilan o'yin o'ynamoqchi bo'layotganga o'xshab tuyilardi. Esimda, o'shanda eng oldinda yugurib borayotgan Sadafning ko'kishtob ko'yilagi etaklari hilpirab go'yo bir bayroqqa o'xshab qolgan, biz shu bayroqqa tezroq yetishish ilinjidagi sportchilarga o'xshar edik. Shamol esa bizni nedandir ogoh etishga uringanday, bizdan shoshmaslikni, shoshilmaslikni so'rayotganday, qancha tez yugursak daladan, osmon-u bulutlardan va... va bahordan shunchalik olislab borishimizni tushuntirmoqchi bo'ganday qo'l-oyoqlarimizga ojizgina chirmashib ortimizda qolib ketar, g'amgin pichirlagan qariya misoli izimizdan ohista g'udranib qo'yardi. Shunday yugurib, tamom holdan toyib zovur bo'yiga yetganimizda Sadaf qo'lini ko'tarib barchamizdan to'xtashni so'radi. Hamma to'xtagach, qo'llarini tizzasiga tirib, biroz nafas rostlagan bo'ldi-da, keyin uloqchalarga o'xshab sakrab-sakrab zovurning tuproq yig'ilib do'ngalak bo'lib qolgan joyiga chiqdi. Do'ngalakning ortini – zovurni zo'r diqqat bilan kuzata boshladi. Biz sinfdoshlar uning xayoliga yana qanday qiziq fikr keldi ekan, deb betoqat kutib turibmiz...

– Qani, kim shu yerdan sakray oladi? – deya so'radi u nihoyat. Bu gapdan so'ng avvaliga qiziquvchan qiz bolalar, keyin biz o'g'il bolalar ham

Sadafning oldiga chiqib pastga qaradig-u, sakrash tugul damimiz ichimizga tushib ketdi. Chunki zovur ichi kamida besh metrcha chiqar, sakrab tushgan odamning oyog'i sinmagan taqdirida ham, to'pig'idan chiqib ketishi tayin edi.

- Nahotki, hech qaysilaring sakray olmasalaring-a? Toza quyon yurak ekansanlar-ku! – dedi Sadaf beshafqatlik bilan. – Bu zovur nima bo'пти! Hindlar bundan ham baland joylardan sakrayveradi.

- Chuqur ekan...

- Anchagina...

- Suvi bo'lgandayam boshqa gap edi... – chug'urlasha ketdi qizlar.

Bu umidsizlikka chorlovchi gaplardan keyin yana bir bor bo'ynimizni cho'zib zovurdan pastga qaradik, nihoyatda afsuslanib, pichir-pichir gaplasha boshladik.

- Kim sakraydi, qani kim?! – Sadafning bu galgi qat'iy ovoz ohangida beshafqatlik emas, mehr-u muhabbat tolalari eshilib ketgan, umidvor boqayotgan nigohlarida ham ne bir injikish, ne bir shikoyat bor edi. – Faqat qiz bolalar emas, o'g'il bolalar sakrasin! Kim sakrasa, o'sha – g'olib!

"G'olib? Nimada g'olib?! Hali hech qanday o'yin boshlangani ham yo'q-ku!" Aftidan barchamiz shuni o'ylab, tushunolmay turgan edik, kutilmaganda zovur ichiga Mo'min misoli yarim qop piyozday gursillab tushdi...

Mo'min?! Qachon qarasa mishqini oqizib yuradigan, itning orqangi oyog'i Mo'min?! Hamma hayratda, hamma hayajonda edi. Ammo Sadaf aftidan zovurga aynan Mo'min emas, boshqa birov, deylik, masalan, mening sakrashimni istagan edi, shekilli, Mo'minni olqishlash o'rniga shart o'grilib, lom-mim demasdan jo'nab yubordi. Biz esa ketmadik, noixtiyoriy bir tarzda ketolmadik. Oddiy mishqidan bamisoli hind kinosi qahramoniga evrilgan Mo'minni zo'r havas, zo'r ehtirom, zo'r hasad bilan zovurning ichidan tortib oldik. Ammo eng qizig'i, Mo'min zovurdan chiqqach bizning hafsalalarimizni pir qilib:

- Qaysing... Itargan bo'lsang... otamga aytaman! – deya shing'illaganiday bo'ldi.

O, kimdir itarib yuborgan, adashib qulab tushgan, harqalay Sadafning shartini bajargan Mo'minning o'rnida bo'lib qolishni qanchalar

havas, orzu qilgan edim men o'shanda... Ammo bugun, mana bugun o'spirin yoshga yetib, bo'yim bilan birga esim ortib, hamma qizlar, ayniqsa, chiroyli qizlar o'ta ayyor, nihoyatda ochko'z bo'lishini anglab turibman. Ha, ularning lab burib, ko'z pir-piratishlari juda-juda aldanchi, juda-juda soxta bo'lar ekan, aslida. Aslida ular hech bir yigitni qo'ldan chiqarmasam, hammasini bir qator qilib itday izimdan ergashtirsam, ko'zmunchiq qilib qo'limga taqsam, kaptar qilib barchasiga hovuchlarimda don bersam, degan hiylakor xayollar bilan yurar ekanlar. Har qalay sinfdosh qizlarimizning kecha qo'limizga tushib qolgan dastmoyalari nainki menga, balki biz to'rt oshnaning barchamizga shunday o'ylashdan o'zga yo'l qoldirmagan edi.

Ochig'i, biz qizlarning shunday daftar-dastmoyalari borligini aynan o'z ko'zlarimiz bilan ko'rmasdan, boshqa birovdan eshitganimizda, balki ishonmagan bo'lardik. Biroq bu ne ko'rgulikki, Qodir daftarni ashyoviy dalil sifatida qo'lga kiritibdi. Darslar tugagach, u tomoq qirib, iyak qoqib biz uchovlonga – Mirza, men, Mo'minga yakka tut tagidagi o'zimizning tosh yoniga borishni imo-ishoralari qilganda, albatta, hech narsadan xabarimiz yo'q edi.

Uchovimiz uzun-qisqa bo'lib hamishagi sardorimiz Qodirboyning izidan yurib borar ekanmiz, yo'lda Mirza sekingina:

- Nimaga rangi gezarib ketibdi? – deya so'radi.

- Qo'yaver, arzimagan gapdir, – dedim men unga ko'z qisib. – Bu o'zi shuytadi, obdon vahima qilmasa, hech gapni aytmaydi!

Aslini olganda-ku, yakka tutning tagida hazilakam gaplar gaplashilmaydi. Chunki bu qartaygan tut mana shu pastlikda Chimsaroy ovulimiz paydo bo'lishi bilan teppa-teng ko'karib chiqqan, enamning matallariga qaraganda, uni ovulning katta bir Eshon bobosi ekan ekan.

Enam o'shanda jerkib, gapirmagani uchun yakka tutning mevasi nega bemaza ekani biz oshnalarga ham sir bo'lib qolgandi. Lekin besh-olti yil oldin u haqidagi boshqa gaplarni oqizmaytomizmay aytib berganimdan keyin, Qodir juda ilhomlanib ketgandi.

- Bugundan boshlab shu tutning tagini o'zimizga qo'nalga qilamiz! – degandi ko'zlari

mildir-mildir tovlanib. – Eng sirli gaplarimizni shu muqaddas tutning tagiga kelib gaplashamiz!

– To‘g‘ri aytasan, fikringga qo‘shilaman, – deb esnagandi Mirza esa. – Tut bilan tosh turgan joy baland, pastdan kelib birov gap poylamoqchi bo‘lsa, darrov ko‘rib qolamiz.

Biroq Qodir keyinchalik muhim sir deb bo‘lmaydigan arzimas gaplarni aytish uchun ham bizni azza-bazza shu tutning tagiga sudraydigan odat chiqargan, hozir ham uzun-qisqa bo‘lib uning ortidan borarkanmiz, rosti, voqeaning u qadar jiddiyligiga shubham bor edi. Shu uchun, u yerga yetishimiz bilan “Xo‘sh, yana nima bo‘ldi?!” – deb Qodirga kesatishdan o‘zimni tiya olmadim.

– Balo, bo‘ldi! – deya javob qaytardi shunda Qodir. – Baringga ochiq lahad bo‘ldi, eshitdilaringmi?!

Men Qodirni yaxshi bilaman, sal bo‘sh ketganni minib oladi.

– Sen ko‘p tizinglama, iching qotgan bo‘lsa, jahlingni enangga yo mana bu... Mo‘minga qill! – deb undanam baland kelishga urindim shunga. – Tushuntirib gapirsang-chi bunday?

Tahdidimdan so‘ng Qodir uncha-muncha shashtidan tushdi. Yosh g‘iltillab, sarosimali boqayotgan ko‘zlari bilan ko‘zimga biroz tikilib turdi-yu, o‘sha dastmoyani – qizlarimizning shuncha paytdan beri bizdan yashirib kelgan “Dil daftari”ni yuzimga uloqtirib yubordi. Qodir otgan daftar misoli o‘q yegan kaptarday oyoqlarim ostiga tushib, varaq-varaq bo‘lib yotganda ham, qolgan oshnalar hali hech narsadan xabarimiz yo‘q, xususan, men qo‘llarimni cho‘ntakka tiqib, beparvo turar edim.

Qodir nihoyat parvoyimiz palakligiga chiday olmadi.

– Ko‘r... O‘zlaring ko‘ringlar mendan so‘raguncha Sadaf!.. Sadaflaring nima qilib yurganini! – dedi og‘zidan tupuk sachratib, barmog‘ini bigiz qilib daftarni ko‘rsatarkan.

Mirza ikkalamiz u ko‘rsatgan tomonga emas, bir-birimizga qaradik: “Sadaf...laring, dedimi? Bunga es qayerdan bitdi?!”. Dafatrni esa Mo‘min oldi. Savodi yaxshi bo‘lmagani uchun og‘zini uch burchak, to‘rt burchak qilib qodir varoqlarini buklab qayirgan joyidan o‘qishga tushdi. Shundan so‘nggina Mirza ikkovimiz uzun-qiltirig

bo‘yinlarimizni cho‘zib, Mo‘minning yelkasi osha alangladik:

“Sizni judayam ko‘p o‘ylayman... Hindlarning kinolaridagi urishqoq yigitlarni ko‘rganimda, hamisha siz esimga tushaverasiz. Bilaman, aslida sizning o‘sha hindilardan ham kuchingiz ko‘p. Hech bo‘lmaganda ulardan mardroqsiz. Menga kimlardir yomonlik qilmoqchi bo‘lganda, siz ko‘ksingizni qalqon qilib meni himoya qilasiz... Kecha sizni tushimda ko‘ribman. Bu haqida yoza olmayman... Uyat axir... Sadaf”.

– Kimga yozipti-i-i?! – hali hushimni yig‘ib ololmasimdan, chap qulog‘im ostida chiyillab yubordi Mirza. – Uyatsiz, qiyshanglab kimga yozipti bu harom gaplarini?!

– Bilmayman, chin so‘zim, bilmayman oshna! – dedi, Qodir hamdard topganidan yengil tortganday sachranib Mirzaga qararkan. – Daftarni ham o‘g‘irlab oldim. Agar o‘zlari shivir-shivir qilib sezdirib qo‘ymaganida, o‘lay agar tanaffusda sumkasini kovlash xayolimga kelmasdi!


– Pachag‘ini chiqaraman! – Mirza o‘zini qo‘yarga joy topolmay qoldi. – Chini bilan aytayapman, kimligini bilsam pachaqlab tashlayman!

Darhaqiqat, Mirza bu mash‘um va hayosiz dil izhori kimga atalganini bilishi bilanoq borib bo‘ynidan bo‘g‘ib, ichiga tepib, yerga yotqizib, oyoqlarida ayovsiz piypalab tashlagunday jazavada turar, ayni vajohatini ko‘rib undan yaxshilik kutib bo‘lmasdi. Men esa hamon o‘zimga kelolmasdim. Tush ko‘rayotganday, oshnalarim odam emas – bir ro‘yo, Mo‘minning qo‘lida turgan uvada daftar ham go‘yoki bir sarobday, bema‘ni esankirash bilan goh oshnalarimga, goh daftarga qarardim nuqul.

– Sizlab yozishiga qaragan-da, Otabek polvonga bo‘lsa kerak! – Mirza hamon qiziqqonligini qo‘ymasdi. – Bilaman, o‘shanga yozgan! Tunovin, to‘yda hamma polvonlarni yiqitganini aytib, og‘zidan bol tomib maqtayotganidan bir narsani sezuvdim.

– Unday emas, o‘ylab gapirsang-chi... – istamaygina rad etdi Mo‘min.

Mening ham xayolimdan “Otabek polvon bizdan qancha yosh katta-yu... Yo‘q, qo‘shni ovulning biz tengi bolalaridan bittasi bo‘lsa kerak”, degan fikr kechdi.



Rasmlarni Asliddin Kalonov chizgan.

– Mo‘min to‘g‘ri aytdi, nima bo‘lgandayam bu Otabek polvon emasligi aniq, – dedim keyin ichimdagini sirtimga chiqarib. – O‘ldimi, erta-indin uylanaman degan so‘loqmonday yigit, “bolasi tengi” qiz bilan sevishib yursa!

– Otabek polvon emas, lekin u bo‘lsa, yana-da yomon, – Qodir ham meni quvvatlaganday bo‘ldi. – Uramiz desak... Bir butiga to‘g‘ri kelmaymiz.

Hamisha ham “lov” etib yonib, “puf” etib o‘chadigan Mirza chuqur bir xo‘rsindi-yu, go‘yo shu bilan ichidagi bor dami chiqib ketganday tappa-tashlab yerga o‘tirib qoldi.

– Maqtovdi deyapman-ku, og‘zidan bol tomib maqtovdi... dedi, – kiftini xarsangtoshimizga suyanganча, yap-yangi shimini ham ayamadan oyoqlarini tuproq ustiga uzatib yuborarkan. – Aslida, men go‘dakligimdanoq qizlarga qoyil qolmaganman, oshnalar. Masalan, ertaklardagi malikalarni olaylik. Yaxshi ko‘radi-yu, yana shahzodaga ajdar bilan olishishni shart qilib qo‘yadi. Mabodo, shahzodani ajdar yeb qo‘ysa-chi, unda nima bo‘ladi, deb o‘ylamaydi hech...

– To‘g‘ri aytasan, – Mirzaning gapini bo‘ldim. – Ertaklardagi sevgi doimo yolg‘on-yashiq va bachkana bo‘ladi. Sevdningmi, ajdarni yengishing shart. Ajdarni yengdingmi, sevilasan! Hayotga sira o‘xshamaydi-da! Agar shu malika ertakda emas, hayotda bo‘lganida, kim bilsin, ajdarning o‘zini tanlagan bo‘larmidi...

– Yashanglar bilog‘onlar! – zo‘rma-zo‘raki iljayib zaharxanda qildi Qodir. – Senlarga qolsa ertakni ham, hayotni ham o‘zlaringga moslab olasanlar. Aytayotgan ertaklaringni to‘qigan ertakchi boboylar ham menimcha qachondir sevib, sevgisiga yetolmagan, keyin shu ertaklarni to‘qigan alamzadalardan bo‘lsa kerak-da. Endi shu xayolparastlarning armonini hayotga qiyoslab, sen ikkovinga o‘xshaganlar halak!

Bu mavzuni birinchi bo‘lib Mirza boshlagani uchun, Qodirning gapi ko‘proq unga botdi.

– Bunchalik o‘zbilarmonlik qilaverma-da! – dedi u qoqi o‘tday yalpayib o‘tirgan joyida. – To‘g‘ri, ertak hayotga unchalik o‘xshamasligi mumkin, ammo baribir sevgi ertakka oz-moz o‘xshab ketadi. O‘zing ko‘rmaysanmi, sevgida ham, ertakda ham bari birday boshqacha. Deylik... Hozir sen yig‘laging kelayapti, shundaymi? Manavi, – barmoq nuqib

meni ko‘rsatdi, – nuqul “uh” tortib, bosh qashiydi. Mening o‘tirishim bu ahvol – sezib turibman, shu turishimda Jumaboyning o‘ziman... Sadafga... Sadafga esa bular barining bir tiynlik qizig‘i yo‘q! Axir, boshqacha-ku, oshna! Bular bari juda boshqacha-ku?!

– Sen nima desang deyaver, – Qodirning bo‘sh kelgisi yo‘q edi. – Baribir men ertakchilarni yomon ko‘raman! Chunki ertakni birinchi bo‘lib to‘qigan inson – hayotni birinchi bo‘lib buzgan inson bo‘lib chiqadi! Kamiga u g‘alamis sevgini ham xuddi manavi tutimizni qo‘porganday qo‘porib, ildiz-pildizi bilan o‘sha ertagiga o‘rnatib olibdi! Vooy, ko‘ngilningangga qo‘tir jomashov! Ana endi uni deb hayotimizda sevgi yo‘q. Sevgi bo‘lishi uchun ertakka – buzilgan hayotga o‘tishimiz kerak!

Mirza javob qaytarmoqchi bo‘lgandek gizlanib Qodirga qaradi-yu, nimagadir indamay jim bo‘ldi. To‘g‘ri qildi. Axir, Qodir birinchi sinfdan boshlab a‘lochi edi, she‘rlar ham ko‘p yodlagan, gapiga yarasha gap topib bo‘ladimi? Bilmadim, aytganlarida ham biroz bo‘lsa-da, haqiqat borday. Holbuki, Mirza ikkovimizni bir qur og‘ziga qaratib, angraytirib tashlaganing o‘zi ham Qodirning aqlliroq ekanini ko‘rsatib turibdi. Men uning qalin va kalta qoshlariga, shu qosh tagidagi jigarrang ko‘zlariga, ikki tomoniga nonpar urilganday mayda sepkil toshgan oq-sariq yuzlariga termulib qoldim. Zap g‘alati bola u, ham deganda omadli bola, deb o‘yladim ko‘nglimda. Ammo yaxshiligina ham, yomon ekanini ham bilib bo‘lmaydi. Uning ancha yillar oldin, hali beshinchida o‘qiydigan paytimiz xolamlarning qishlog‘ida kurash tushib bir bolani yiqitgani, yana mahmadonachilik qilib, bakovulni qoyil qilgani esimga tushdi...

O‘sha yili yozgi ta‘tilda enam meni olisdagi xolamnikiga bir haftaga mehmonga jo‘natmoqchi bo‘ldi-yu, men ikkilanib qoldim. Birlamchi, xolamning farzandlari – bo‘lalarim bari katta qiz bo‘lsa, men kim bilan o‘ynayman? Ikkilamchi, bu yoqda oshnalarim – Qodir, Mirza, Mo‘minlarni qoldirib bir o‘zim jo‘nab ketish, men uchun ularning safidan ajrab qolishday tuyilib ketdi.

– Ena, oshnalarimni ola ketsam bo‘lmaydimi? – dedim enamga yalinib. – To‘rtov bo‘lsak, u yoqda bolalar urmasdi-da.

– Haliyam seni hech kim urmaydi, – jerkidi enam. – Xolangga tayinlayman, bo'lalaringning yetovginasida yurasan.

– Baribir-da. Oshanalarim oldimda bo'lsa, uyni sog'inib qolmasidim...

Shu gapdan keyin enam Qodirlarnikiga borib, Qodirning enasiga yolvorib, uni men bilan birga xolamlarnikiga qo'yib kelgan edi.

Ochig'ini aytgan-da, Qodir xolamning qizlariga mendan ko'ra ko'proq yoqib qoldi. Xolamlarnikida o'zini mendan ko'ra erkinroq his etdi. Go'yo bu yer uning xolasining uyi-yu, men u bilan birga kelgan "ergashvoy"man. Ertalab nonushta paytlari katta bo'lam Nurinisa qatiq suzsa, Qodir qatiqqa shakar aralashtirishni tortinmasdan so'rar, xolam og'ringanday bo'lib ko'z tashlab qo'ysa ham, bilib turib o'zini bilmaganlikka olardi. "Xolang ziqna ekan, – derdi u tag'in birov eshitmaydigan qilib, nonushtadan so'ng ko'chaga chiqqan paytlarimizda. – Ayollar ziqna bo'ladi o'zi. Enam ham biror marta qatiqqa shakar solib bermaydi!"

Yana ko'chaga chiqib, begona bolalarning oshiq o'ynashayotganini ko'rsak, Qodir ular chaqirishmasa ham borib o'yinga qo'shilib ketaverardi. Agar bilsangiz, har bitta o'yinda boshqaruvchi bo'ladi. Uyushib o'ynaladigan o'yinlarda ham bolalar birorta bolaning fikrini hurmat qilib, o'yin qoidalarini uning gapiga qarab tuzishadi. Qodir begona bolalarning o'yiniga qo'shilgan paytlari avvalo bu o'yinda o'sha boshqaruvchi bola kim ekanini bilib olar, keyin xushomad qilib, yaxshi gaplar bilan o'sha boshqaruvchining e'tiborini qozonar, qarabsizki, boshqaruvchi unga yaxshi munosabatda bo'ayotganini ko'rib, boshqa bolalar ham Qodirni hurmatlay boshlashardi. Shunda g'alati bir ish qilardi Qodir. Boshqaruvchi vazifasini bajarayotgan bolani sekinlik bilan chetlatib, o'yinning boshqaruvini butunicha o'z qo'liga olardi. Undanam qizig'i esa, qolgan bolalar hech narsa bo'lmaganday o'ynashda davom etishardi. Hali sizga aytmoqchi bo'lganim, u bilan bog'liq kurash voqeasi ham xolamlarnikida, aynan o'sha kunlarda bo'lib o'tgandi.

Kurash haqida biz tushlik qilayotgan paytimizda, xolamning eri – pochchamning og'zidan eshitdik.

– Bugun olish bor edi, padariga la'nat, ko'rolmaydigan bo'ldim, – dedi u kishi yumush

bilan allaqayoqqa ketishi kerak bo'lgani uchun shoshib non kavsharkan. – Qiziriqda yaxshi tiraktir sotilayapti ekan, katta atay qilganday bugun borib ko'rib kel, dedi.

– Chakki qilasiz-da, – kuldi, dasturxonning bir burchagida non ushatib o'tirgan xolam. – Sizam manovi ikki polvonni oborib olishtiring, – Qodir ikkimizni ko'rsatdi, – uloqning kalla-pallasidan yutib kelsa, kechga kallasho'rva qilardim.

Shunda pochchamning ko'zlari bir zumda qon talash bo'ldi. Non kavshashdan to'xtab, qip-qizarib ketgan o'sha ko'zlarini xolamga tikdi. Negadir ancha payt shunday o'grayib turdi-yu, yana ishtiyocsizgina kavshana boshladi.

– Ahmoq... – deb qo'ydi g'udranib. – Olishda kalla qo'yilmaydi... Sen qayerdan bilarding.

Haligina og'zida kulgi bo'lgan xolam ham endi nima uchundir mung'ayibgina qolgan, dasturxon boshidagi bo'lalarim Nurinisa, Oynisa, Xolnisa, Uljonlar tezgina o'rinlaridan turishib, biri ishlash uchun tomorqaga, biri og'ilxonaga, yana biri chelaklarini ko'targancha soy tomonga jo'nab qolishdi.

Pochcham hech kim bilan xayrlashmasdan chiqib ketgach, Qodir ikkovimiz kechgacha goh u bo'lamning, goh bu bo'lamning ishlariga yordamlashib yurdik. Lekin bo'lalarimning kayfiyati bugun boshqa kunlardagiga o'xshamas, hatto bir-birlari bilan ham iymajib, past tovushda gaplashishardi. Kechga borib Nurinisa bo'lam bizlarni bir chekkaga tortdi.

"Ikkoving buncha baland gapirmasalar, otanglar karnaychimi, – dedi keyin qo'limizga to'rttdan bo'g'irsoq tutqazarkan. – Enamning boshi og'riyapti. Ko'chaga chiqsalar hamma olishga ketayotgan bo'ladi. Boringlar, silaram tomosha qilib kelasilar. O'zim borsam bittayarimtasini yelkamdan oshirib urib, zot olib kelardim-u, qiz bolaga uyat-da..."

Oshnalar bilan ovulimizdan tashqari qo'shni qishloqlargayam borib olishib tursak-da, rosti, yonimda Qodir bo'lmaganda, men o'sha olishga o'lsam ham bormasdim. Nima qilardim u yerda, faqat begona odamlar bo'lsa? Lekin o'sha-o'sha tap-tormas, kirishimli Qodir bo'lamning gapidan keyin holi-jonimga qo'ymadi.

– Yur! Juda bo'lmasa, ikkalamiz olishib, olgan zotimizni bo'lishamiz!

Ko'chaga chiqqach, xolamlarnikiga kelganimizdan beri sinashta bo'lib qolgan qo'shni bolalarni axtarib o'tirishga ham hojat qolmadi. Odamlar quyosh yuzini ufq etagiga yashirishga ulgurmay kurash uyishtirilayotgan maydonga yetmoqchi edimi, shoshib to'g'riga ketib borishayapti ekan. Ularning izidan tushdig-u, uncha ko'p yurmasdan kurash bo'lib o'tishi kerak bo'lgan maydonga yetib bordik.

Kurash uchun mo'ljallanayotgan aylana davra somon to'shama bilan qoplangan, ikki odam baravari balandlikdan sim tortilib, maydonning qoq o'rtasiga o'rnatilgan lampochka hali qorong'u tushib ulgurmagani uchun xiragina nur sochib turar edi. Men atrofqa qarab, tomoshabinlar o'rnida ayollar va qariyalar, qolaversa, o'zimiz tengi bolalarnigina ko'rdim. Kim bilsin ekan, haligina Qodir ikkovimiz ko'chada uchratgan polvonsifat yigitlar va qizlar qayoqqa berkinib olishgan. Bu haqda Qodirdan so'rasam, u kalta qoshlarini uyib kayvonisifat qiyofaga kirarkan:

– Asl polvonlar ko'zga tashlanmay turadi, – dedi. – Ammo zo'rakan, bu yerda olish bizdagidan ancha katta bo'larkan!

Shu yerda ozroq timirskilanib turgan edik, oradan picha o'tib maydonda oyog'iga yirtiq kalish kiyib, egniga eski to'n ilib olgan bo'ydor odam paydo bo'ldi. Hamma diqqatini bir joyga jamlaganidan, g'ala-g'ovur tinib, burchak-burchaklarda pisinib o'tirgan tomoshatalablar asta chiqib kelaverganidan bildim, u – bakovul edi! Men bakovulning maydondagi somon to'shamani tekshirib, kurashni boshlashga taraddudlanishiga ajib bir maftunlik bilan tikilib qoldim o'shanda. Axir, havasga arziydi-da, bakovullik – mansablarning eng kattasi. O'qituvchi yo maktabning direktori bo'ladimi, brigadr yo rais bo'ladimi, bu olamda bari-barisi bakovuldan keyin turadi. Kurash maydonida bir polvon boshqa bir polvonni ming yerga oyog'ini osmondan qilib urmasin, xaloyiq ming kuchanib "Halol" yo "G'irrom!" deb baqirmasin, bunga mingta maktab direktori, yana mingta rais kelib aralashmasin, agar shu birgina yirtiq kalish kiygan bakovul tasdiqlamasa, hammasi bekor ketadi.

– Polvonjonlar, davra qurib o'tirib olinglar, – dedi bir mahal, yosh deyish uchun qari, qari deb aytish uchun ancha yoshlik qiladigan o'sha bakovul. – Hoy Nurmatning uli, kap-katta jigit sen nimaga daraxtga chiqib olding?! Bilib qo'y, bola, jigit kishi butini shamoldan asramasa, juda yomon bo'ladi! Qirqidan keyin ayallarning safiga qo'shib qo'yaver unday jigitni!

Shu arzimagan gapga xaloyiq gurra kuldi. Bakovul esa xaloyiqning damini qaytarmoqchi bo'lganday qo'lini havoda sermab, baqirgancha davom etdi:

– Aytib qo'yay, bugun olishni silarga o'zimizning Safar cho'pon berayapti. Cho'pon bovamiz kalxuzdan o'g'irlab yegan qo'ylarining gunohini shuytib yuvmoqchi!

Yana hamma gurillab kuldi-yu, davra chetidan bir kishining norozi ovozi eshitildi:

– Bakovul bova, o'g'irlikning ustida ushlagan bo'sangizam unday demang. Kalxuzning qo'yining o'zi tugul, junigayam tekkanim yo'q!

– Ay-y, olish berayapman deb menga o'rgatimchilik qilma! – uni jerkib tashladi bakovul. – Cho'pon zotining hammasi o'g'ri bo'ladi, buni yaxshi bilaman!

Bakovul davradagilarning kulgusi-yu qiyqirishlariga mast bo'lganday qo'llarini beliga tirab, davrada biroz u yoqdan bu yoqqa yurdi.

– Jigitlar, avvalo silar gapimni quloqlaringga quyib olinglar! – tilga kirdi yana. – Ota-bovamiz olishib kelgan shu mardi-maydonga chiqib jig'ilsa, jigit uchun uyat bo'lmaydi! Hali dunyoga kelib jig'ilmagan polvon yo'q! Bu dunyoda baribir zo'rdan zo'r chiqaveradi! Hayla, bir umr kuragi yerga tegmagan Shoymardon polvonniyam to'yda bir qiltiriq jigit chiqib, yelkadan oshirib urganining guvohi o'zim! Polvon buva shuncha zo'rlar bilan olishib jig'ilmay, nimkala polvondan jig'ilgan! Agar erkak mardi-maydonda kuchini boy berib, or-nomusi uchun jilasa, unga kulmaslik kerak! Lekin olish, deb chaqirgan payti erman degani ayalga o'xshab nozlansa, suzilib o'zini taroziga solsa, ana shu katta isnod! Unday jigitning boridan Olloyimning toshi yaxshi! Quloqlaringga quydinglarmi jigitlar? Qani bo'masa olishni yosh polvonlardan boshlaymiz!

Shunday deb turib, bakovul o'ziga katta yaktakni polpillatib kiygan, eskirib, kalta bo'lib qolgan ishtonining ichidan chillashir oyoqlari chiqib turgan bir bolani imlab chaqirdi.

– Nurali malimning takasi, bu yoqqa kell!

Esimda, o'sha bolaning kurash tushish uchun emas, xuddi qo'chqor bo'lib suzishmoqchi bo'layotganday boshini oldinga chiqarib katta-katta qadamlar bilan bakovulning oldiga borishi kulgili edi. Biroq hech kim kulmadi. Bakovul ko'zi bilan chamalab, odamlar orasidan unga mos "polvon" qidira boshladi. Ammo-lekin, oyoqlari qiltirib bo'lsayam shashti zo'r ekan u bolaning. Bakovul ketma-ketiga ro'baro' qilgan ikkita bolaniyam chalpak qilib tashladi. Biroq o'zi talabgor bo'lib chiqqan bir bola uniyam qiynalmasdan shundaygina qilib kuragini yerga bosdi...

– Errayim polvonning supraqotisi Elomonga kim chiqadi?! – deb bakovul endi uni yiqitgan bolaga raqib qidira boshladi. Chamasi biz tengilar keladigan u bola esa katta polvonlarga taqlidan oyoqlarini kerib, bilaklarini mashq qildirib, biror nomzod topilishini kutar edi. U bola chindan shuncha zo'rmikan yo kerilishi cho'chitayotganmide, buyog'ini bilmadim-u, ammo bolalar bakovulning nigohidan panalab orqaga qochishdi. Ana so'ng Qodir ikkovimiz hammadan ajralib, maydon chetida so'ppayibgina qoldik.

– Hoy, sen kandir ishtonli, bu yoqqa kell! – deb Qodirni chaqirdi shunda bakovul.

Qodir bunday bo'lishini sira kutmagan edi, shuning uchun avvaliga angrayib turdi. Bakovul ikkinchi bor chaqirgandan keyingina ikkilanibroq uning oldiga bordi.

– Kimning ulisan? – so'radi bakovul.

Atrofiga alanglab faqat begona odamlarni ko'rayotgan Qodir haliyam jim, talmovsirab turar edi.

– Qo'rqqaningdan tilingni yutib qo'ydingmi, nega gapirmaysan?!

– Bakovul bova, bu bola olisidan kelgan, – baqirdi shu payt xolamning qo'shnisi bo'lgan bir aka. – Bolta tiraktorining qarindoshi!

– Ey, gap bu yoqda demaysizlarmi, – deb bakovul qo'llaridan tutib, haligi kalandimoq bola bilan hech qanday polvon libossiz, yengi kalta satin ko'ylak va sariq kandir ishtonda turgan Qodirni

maydon o'rtasiga boshlab bordi. – Qani, unda olish! Zotlaring besh so'm pul bilan, bir belqars!

Boshini baland tutib, ko'ksini namoyishkorona kerayotgan raqibiga qo'l uzatib borayotgan Qodirning esa harakatlari qovushmayotgandi. Tomoshabinlarning salobati bosayotgani tufaylimi yo maqtanchoqlikning hadisini olgan raqibidan cho'chibmi, u nuqul dovdidirar, Qodirni shu holida sinfidagi hammani yiqitadigan zo'r bola desa, o'lay agar, birov ishonmasligi mumkin edi. Haligi bola ham, menimcha, shunga uchdi. Qodirni qo'sh poychadan olib yerga bosib qo'yimoqchi bo'ldi-yu, o'zi solgan chilning tagida qoldi...

– G'irrom yiqitdi, g'irrom! – biroq tura solib, yig'lamsirab baqirdi u bola. – Chil solganimda atay barmoqlarimni qayirib yubordi!

– Polvonjon, shattalikni borib enangizga qilasiz, bu yer shattalikni ko'tarmaydi, – deb bakovul uni e'tirozga o'rin qolmaydigan tarzda qayirib tashladi. – Xaloyiq, mehmon polvonning haloli bo'lsin! Shuytib, besh so'm pul bilan, bir belqars uniki!

Ammo Qodir zot uzatib turgan bakovul yordamchisiga ikkilanib qaradi. Pul bilan belqarsni negadir olgisi kelmay, orqaga tisarildi.

– Polvonjon, nimaga tortinayapsan? Yo Elomon uradi deb qo'rqayapsanmi? – ajablanib so'radi bakovul. – Qo'rqma, sen olaver! Agar Elomon g'ing desa, o'zim uni cho'chog'ini kesib olaman!

– Olmayman... – dedi Qodir esa yana bir qadam orqaga tisarilarkan, iymanship va anchayin hadik bilan.

– Nega olmaysan?

– Oldin... Oldin ovulimning nomini ayting.

– Ovulingni oti nima?

– Chimsaroy!..

O'shanda Qodir odamlarning ko'z oldida maktab bolasidan kap-katta yigitga evrilgan, hatto o'r-qaysar bakovul bovaning o'zi ham qarshisida bolakay emas, ne bir ulug' odam turganday iljayib, yelka qisib, uzoq payt termilib qolgan edi. Uyga qaytayotganimizda men ham unga juda qoyil bo'lib: – Bunday chiroyli gap xayolingga qanday keldi? – deya so'ragan edim, Qodir shivirlab:

– O'lay agar, o'zimam bilmayman. Anavi bolaga g'irromlik ishlatganimdan qo'rqib, nima deganim ham esda yo'q, – deb aytdi...

Hozir, ayni lahzada esa holdan toygan g'arib kabi Chimsaroy ovulining dashtlikka tutashib ketgan adog'iga ketib borar, xiyonatning qattiq esgan shamolidan silkinib bir-birimizga suyanib qolgan. Oramizda bitta Mo'minga bizning dard-u hasratimiz go'yoki unga begona, hamishagiday betashvish, beg'am, kamiga miq ham etmaydi. Ilgarittan Mo'minning uncha-muncha ishlarimizga aralashmay, bir chekkada jimgina kuzatib o'tiradigan odati bo'lsa-da, negadir shu lahza uning loqaydligi g'ashimga tegdi. Yerdan bir kesak oldim-da, jahlim chiqib unga otib yubordim:

- Dunyoni suv bossa, o'rdakka aylanasan-a, nomard! Biz nimalar deb kuyib-pishib yotibmiz-u, sen bo'lsang g'iring demaysan! Shu Sadaf sening ham loaqal sinfdoshing-ku, hatto necha yil bitta partada o'tirganing esingdan chiqdimi?!

Mo'min yelkasiga zarb bilan urilib, o'zidan chang qoldirgan kesakning o'mini bamaylixotirlik bilan qoqdi. Burnini tortib qo'yib, biror gunohi uchun uzr so'rayotgan odamday boshini ekkancha, yana indamay turaverdi. Shunda men, Qodir, Mirza uchalamiz qaysi bir jihatlarimiz bilan bir-birimizga o'xshashimizni hamda Mo'min, tut va tosh ham bir-biriga o'xshab ketishini his etganday bo'ldim. Axir to'g'ri-da, shu o'zimizning tut bilan toshniyam nima o'ylayotganini bilib bo'lmaydi. Ehtimol, ular ham Mo'min kabi ichida nimalarnidir xayol surar, orzusi, itsaklari bordir, lekin go'dakligimizdan beri oldiga kelib o'ynasak-da, bular haqida bizga biror marta gapirgani yo'q.

- Mo'min hali bola, o'z nomi bilan Mo'min-mishqi! - Qodir g'ijinib qo'lini siltadi bir payt. - Sinfdosh, sevgi nimaligini ham, oriyat nima ekanini ham hali tushunmaydi... Qo'yinglar buni! Undan ko'ra Sadafni bir yoqli qilaylik.

Ha, bu gal ham to'g'ri aytayotgandi Qodir. Sadafning tasavvurimizdagi sevgili - Otabel polvonga kuchimiz yetmagach, Sadaf bilan gaplashib qo'yaqolgan qulayroq tuyilardi o'zi menga ham. Biroq Qodirning gapini eshitib, Mo'minning qo'y ko'zlari katta-katta bo'lib ketdi.

- Bir yo'la... O'ldiramizmi?!

- Tur-e, ahmoq! - Qodir uni jerkib tashaladi. - O'ldirarmish! Oldin mishqingni artivol, tentak!

So'ng tishlari orasida yerga "Chirt!" etib tupurdi-yu, o'midan turdi. Ko'rsatkich barmog'ini havolatib, donishmandona gap qildi:

- Lekin to'g'ri! Bu bevafo... Hayosiz, yolg'onchi qizni... Ma'naviy o'ldirish mumkin!

Rosti, ma'naviyat fani o'qituvchimizni deb mening "Ma'naviy, ma'naviyat" so'zlaridan ko'nglim ozadigan bo'lgan. Chunki o'qituvchimiz dars o'tish o'rniga nuqul gurung berib o'tiradi. Gurungida esa, bitta mavzu ming xil bo'lib takrorlanib, oxiri devorga kelib kalla qo'ygan moshinday ma'naviyat bilan yakun topaverardi. Ma'naviyat degan sho'rlik atamani ming buroqqa solib burash mumkinligini, shu o'qituvchimizda ko'rganman men.

- Momong qoziga xotin bo'lgan bo'lsayam, odamga o'xshab gapir! - deb yana uni chaqib oldim. - Ma'naviy o'ldirish deganing nimasi endi?!

Ammo bu safar Qodir gap eshitib o'tirmadi.

- Kattalar gapirganda og'zingni yumsang-chil! - dedi achchiqlanib. Keyin oldingi zorlanishi-yu, yig'lamsirashlari allaqayoqlarga daf bo'lib, sovuqdan-sovuq tirjaydi:

- Aytmoqchimanki, eng zo'r yo'li... Tunda Sadaflarning uyiga borib, yozib chiqamiz! Shu qilganiga uyat gaplar yozib, uni moxovga oshna qilamiz!

To'g'risi, shuncha dabdabayu-asasa qilganiga yarasha Qodirdan aqlliroq biror gap kutayotganim uchun mening hafsalam pir bo'ldi.

- Darvozasiga borib bittagina so'z yozsang, bir narsa o'zgarib qoladimi?! Qancha qizlarning darvozasiga borib yozganmiz, ana, ma'nan o'lgani yo'q, barisi tip-tirik yuripti-ku!

- Lekin biz bittagina yozmaymiz, ko'p, judayam ko'p yozamiz! - bo'sh kelmadi Qodir. - Faqat darvozasi emas, butun devorlari, ko'chalarini to'ldirib tashlaymiz! Aytayapman-ku, nega tushunmaysanlar, yozib-chizib - moxovga oshna qilamiz!

Qodir qat'iy ishonch bilan gapirar, uning shu ishonchi va tirjaygan basharasini ko'riboq mening bu yaxshi fikr ekaniga amin bo'lgim kelardi. "Xo'p, deyaveray, qaytanga oson ekan" degan xayol kechardi ich-ichimdan. Qodirga qo'shilib tirjaymoqchi bo'lib ham turgan edim-u, lekin chap yonimda Mirzaning o'sha-o'sha qayg'uli qiyofada turganiga ko'zim tushib, o'zimni tiydim. Hattoki

Mirza Sadafni hammamizdan ko'proq yaxshi ko'rar ekan-da, deb ham o'ylab qoldim shu yerda...

- Qodir chin aytadi! Qo-la-ver-sa!.. – deb chala gap qildi Mirza buning isboti o'laroq. Keyin butun bir segaretning tutunini ichiga yutib, endi chiqarishga chog'lanayotganday kashandaday mayus bir sokinlik bilan olislarga qarab turdi-yu, – Qo-la-ver-sa, biz bo'rda yozmaymiz, biz... bo'yoqda yozamiz! – deb aytdi.

- Bo'yoqni qayerdan topsak ekan endi? – o'smoqchiladi Qodir.

- Masxara qilmanglar deb aytmoqdim, tunovin ukam veligini qizilga bo'yash uchun bo'yoq olgani boribdi. Bozordan bo'yoq topib chiqsa... Tashqarida qoldirgan veligini o'g'irlab ketishgan ekan. Birov boshiga uradimi, ana, yangigina olgan buyog'i yotibdi uyda!

Maqsadimiz jiddiy ekanini tushungan quyonyurak Mo'min esa endi tuxumini qayerga tug'ishni bilmayotgan tovuqday tipirchilab qolgan edi. Biroq u ko'p bezovtalanib, sarosimalanishi evaziga birgina:

- Qo'ysanglar-chi, – deb ayta oldi xolos.

Uning bezovtaligini kuzatib o'tirib, bu qo'rqib ishtonini xo'llab qo'ymasa yaxshi, deya o'yladim ichimda.

- Mo'min hozir nima demoqchi, bilasilarmi? – dedim, so'ng shumligim tutib. – Qo'ysanglar-chi, qizil bo'yoqdan qorasi yaxshi, demoqchi. Chunki uning otasi motoskilini bo'yash uchun kecha bir quti qora bo'yoq olib kelgan. O'zim ko'rganman. Shundaymi, oshna?

Mo'min istehzo bilan tikilib turganimni ko'rib, tez ko'zlarini olib qochdi.

- Otasi bilib qolsa nima bo'ladi? – ming'irladi, tag'in boshini quyi solarkan. – Eslaringdami o'zi, otasining fe'li qandayligi? Tutib olsa to'rtalamizniyam ketimizga loy suvab qo'yadi-ku!

Mo'minning zorlanishiga e'tibor qilmagan kishi bo'lib yer tagidan asta Qodirga qarasam, Qodirboy so'naribgina qolgan, Mirza esa cho'chiganini allaqachon sezdirib, goh unimizga, goh bunimizga qarayatgan ekan. Nega so'narmasin Qodir yoki Mirzaboy nega ham talmovsirab kalovlanmasin edi? Ikkalovining ham huv birda Sadafning otasi o'qituvchimizning qanday giribonidan olgani eslariga tushayotgandir-da! Aslida, bu voqeaga ham

ikki yillar bo'lib qolgan. Bu o'sha, Sadaf kasal bo'lib, darslarga qatnay olmay qolgan yil edi...

O'shanda men nimadir sabab bo'lib sinfxonamizga salgina kechikib, dars boshlangandan so'ng kirib borgan edim. Aksiga olib birinchi soat biologiya fani o'qituvchimiz Sadiovning darsi ekan. Orqavorotdan "nemis" deb laqab orttirgan bu qattiqqo'l o'qituvchimiz sinfga o'zidan bir daqiqa keyin kirgan birorta o'quvchining darsda qolishiga izn bermasdi.

- Chiqib ket, – dedi u o'tirgan joyida qisqagina qilib. Men uzr so'rashdan foyda yo'q ekanini bilganim uchun, indamaygina tashqariga chiqdim. Ammo ataylabdan eshikni zichlab yopmasdan, qiya ochiq qoldirdim. Qulog'imni ding qilib, Saidovning dars boshlashini kuta boshladim: qani, bugun kimlar "simyog'ochga" aylanarkin?

O'rta bo'yli, tarashaday qotma, yoshi endigina qirqqa yetgan bo'lsa ham sochlarining chakka qismi oqarib ketgan Saidov asli kimyo va biologiyadan dars bersa-da, maktabda uning barcha aniq fanlarni suv qilib ichib yuborganligi haqida gaplar yurardi. Shaxsan men uning biror marta ovoz chiqarib kulganini yo birorta bolani yaxshi gap bilan erkalatganini ko'rgan emasman. Lekin shunga qaramay biz bolalar barchamiz uni g'oyibona yaxshi ko'rar, ehtimol, o'qituvchilar orasida hurmati balandligi, ehtimol rostgo'y va dovyurak odam deb o'ylaganimiz uchun, unga taqlid qilishga urinar edik. Men, ayniqsa, dars mavzusini gapirayotganda uning muntazam o'ynab turadigan yong'oqday hiqildog'iga juda havas qilar edim...

Hali hech kimni bir shapaloq urganini ko'rmaganimiz uchun, biz negadir uni kuchi juda ko'p, shapalog'i ham o'ta qattiq bo'lsa kerak, deb o'ylar edik. Chunki dars paytidan boshqa vaqtlarda jim yurishiga qaramay, hatto direktorimizning o'zi ham undan hayiqar, boshqa o'qituvchilarni xonasiga qamab tez-tez so'kib tursa ham, Saidovni "siz-sizlab" gapirardi. "Siz"lash nima, bir marta Saidovga zovuch bo'lishni taklif qilib, hattoki rad javobi eshitgan ekan direktorimiz. Boshlang'ich sinflarni o'qitadigan malim qo'shnimiz enamga aytib berayotganini o'zim eshitganman, "Har bir vazifaning mas'uliyati bor, men o'qituvchilikning mas'uliyatini zo'rg'a ko'tarayapman o'zi" degan ekan o'shanda Saidov. Direktorimiz esa bu gapdan jahli chiqish o'rniga

iljayib-tirjayib soxta mulozamat ko'rsatibdi: "Rost, o'rtoq Saidov!.. To'g'ri aytasiz, o'rtoq Saidov!.. Mansab berib, qo'lingizni bog'lasak o'quvchilaringiz ko'p narsa yo'qotadi..."

Direktorimizning u paytdagi mulozamati malim qo'shnimiz aytganchalik soxtamidi, soxta emasmidi, aniq bilmadim-u, biroq Saidov darsni qiziqarli qilib o'tishi rost edi. O'shanda ham men sinfdan chiqishim bilan o'rnidan turib, uning stulni ichkariga surib qo'yganini eshitdim. Bilaman, endi Sadiov yozuv taxtasining oldida turib olib hiqildog'ini o'ynatganicha gapirishga tushadi va to dars tugashiga besh-o'n daqiqa qolmagunicha, bu stulga qaytib o'tirmaydi.

O'zim kutganiday, ko'p o'tmasdan uning:

- Eslatib o'taman, o'tgan dars mavzuyimiz inson organizmida ovqat hazm bo'lishi edi, - degan vazmin ovozi eshitildi. - Xo'p, bolalar... Shunday qilib, ovqat hazm qilish, murakkab fiziologik jarayon...

Saidov odatdagiday oldingi darsni gapirish asnosida to'satdan ul-bul o'quvchini turg'azib, gapini davom ettirishni so'rab turdi. Gapini kelgan joyidan davom ettirgan o'quvchilarni joyiga o'tqizdi, davom ettirilmaganlar esa, turgan joyida so'ppayibgina qolaverdi. Mana, endi "Simyog'ochlar" Saidovning yangi mavzuni taxtaga yozib, u haqida aytadigan gaplarini ham shu holida eshitishga majbur. Yangi mavzuni tushuntirib bo'lgan Saidov dars tugashiga besh-olti daqiqa qolganda o'zi surib qo'ygan stolini tortib, joyiga o'tiradi. Jurnalni ochib, indamaygina "Uch" ga munosiblarni "Uch" bilan, "Besh" ga munosiblarni "Besh" bilan baholaydi ("ikki" yo "to'rt" baho qo'yganini hech eslay olmayman). Xayrlashib, xonadan chiqib ketgachgina jon bitadi bu "Simyog'och"larga...

Men o'shanda kimlar simyog'och bo'lganini eshitib aniqlayman, deb shu darajada es-hushimni yo'qotibmanki, Saidov ichkaridan itargan sinfxonaning eshigi "Qars!" etib boshimga urilganda, ko'zimdan olov chiqib ketay dedi.

- Hoy! - dedi, mening boshimni changallab xijolat bo'lib turishimni ko'rgan Saidov. - Boshni avaylash kerak! Turli biologik va hayotiy omillarga ko'ra inson har qanday a'zosi shikastlansa, yashab ketishi mumkin, lekin shikastlangan bosh bilan yashash og'ir.

Uning gapidagi jumboqni tushuna olmay orqasidan qarab qolgan paytim, qo'ng'iroq chalindi. Ichkariga kirarkanman, Mo'mindan pichiralab birinchi so'raganim Sadaf nega ko'rinmayotgani bo'ldi. Hozir shu savolni boshqa birovga berganimda ustimdan kulishi, turli sha'malar qilib gapni ko'paytirishi mumkin edi. Bu olamda qorin va uyqudan boshqa tashvishi bo'lmagan Mo'min esa, albatta, unday qilmadi.

- Enasi qizlardan ayttirib yuboribdi, - dedi yelka qisib. - Buguncha kelolmas ekan.

Eslasam, shu kuni Qodir, men, Mirza uchalamiz bir narsamizni yo'qotganday noxush bo'lib yurdik. Ammo afsuski, Sadaf ertasiga ham darslarga kelmadi. Hatto indiniga ham.

- Bunaqasi ketmaydi! - dedi nihoyat rahbarimiz Bo'tayev Sadaf darslarga kelmayotganining uchinchi kuni. - Birortalaring ertaga uyiga borib, nega kelmayotganini aniqlab kelinglar!

O'qituvchimizning ushbu buyrug'i bolalarning bu qulog'idan kirib, u qulog'idan chiqib ketganini tusmolladim. Darslar tugagach sinfdoshlar bilan xayrlashdim-da, uyiga shoshilayotgan kishi bo'lib, yo'ldagi bir burchakka bekindim. Nihoyat, ular hammalarining qoralari o'chgach, bekingan joyimdan chiqib, Sadaflarning uyiga qarab yo'rg'aladim. Yaxshiyam qadamimni tezlatib, yo'rg'alaganim. Chunki men Sadaflarning darvozasiga yetganimda ichidan pishgan Qodir bilan Mirza egizaklardaygina bo'lib darvoza oldida turishgan ekan. Ular mening yelka qisib kelshimni baqraygan nigohlari bilan kutib oldi.

- Asli manov bilan kim ichkariga kirib Sadafni ko'rib chiqishga kelisholmay turuvdik, - po'ng'illadi, so'ng kayfiyati tushganini yashirolmagan Qodir. - Nima qilamiz? Endi har uchalamiz yetaklashib kiraveramiz-da, poyezd-poyezd o'ynagan churvaqalarday.

Mirza ikkovimiz Qodirning kesatig'ini tushungan bo'lsak ham, o'zimizni tushunmaganlikka soldik. Darvoza yonida turib, galma-galdan Sadafni chaqira boshladik. Biz hali bir-ikki marta chaqirishga ulgurmay ichkaridan Sadafning onasi chiqib keldi. Tusi o'chgan ro'molini peshonasidan tang'ib olgan Sadafning onasi nimasi bilandir adabiyot darsligimizdagi shoira rasmni

esga solar, yuzidagi qaysi bir ifodalari Sadafga ham picha kelishib ketardi. U nima maqsadda kelganimizni so'rab ham o'tirmasdan ne bir aziz mehmonga lutf ko'rsatayotganday kulimsirab bizni ichkariga boshlagach, uchovlon so'ppayibgina uning ortidan ergashdik.

Sadaflarning hovlisiga oldin ham bir necha bor kelgan bo'lsak-da, ularning uyiga bizning ilk marta kirishimiz edi. Kirsak, rangi rangparlashib, lablari esa yana-da qip-qizarib ketgan Sadaf uzatilgan oyoqlariga yopinchiq tashlab, to'shakda o'tirgan ekan. Ammo u biz bilgan avvalgi Sadafga sira o'xshamas, oldingidan chiroyliroq, oldingidan yoqimtoyroq bo'lib ketgandi. Nainki ko'rinishi, hatto xatti-harakatlari bilan ham biz bilgan Sadafdan a'loroq edi u. O'rnidan tura olmayotgani uchun xijolat tortib, iymanib, qizarinib bizni o'tirishga undar ekan, aldasam non ursin, mening yuragim negadir gursillab, juda boshqacha urib ketdi. Uning boshini egibgina uyalishi, tip-tiniq ko'zlarini bizdan yashirish uchun iymanib-kulimsirib eski chit ko'ylagining choklarini ermaklashini ko'rib, men og'zimni yopolmay, ko'zimni esa Sadafdan uzolmay qolgandim o'shanda.

- Kelinglar-da, bolalarim, shundaygina kelinglar-da, - deb hushimga qaytardi bir mahal Sadafning onasi. Shundagina o'zimning baqrayib turishimdan xijolatga tushib, shoshib xona ichidagi buyumlarga angraydim. Ehtimol, qolgan oshnalarim ham men qilgan ishni takrorlagan bo'lsa kerak:

- Jihozlarimizni ko'rib, ajablanavermanglar, - dedi, Sadafning onasi qo'lidagi dasturxonni oldimizga yozar ekan. - Kulol, mo'ndidan suv ichadi degan gap bor, bolajonlarim. Bu jihazlarning barini Sadafning otasi ustachiligidan ortib qolgan yog'ochlardan amal-oshkor qilib yasagan-da.

Keyin u kishi, aftidan choy damlash uchun chiqib ketdi.

- Kelishlaringni bilganimda, uyni tartibga keltirib qo'ygan bo'lardim, - aytdi, onasi chiqib ketganidan foydalangan Sadaf. U kelganimizdan beri birinchi marta ovozini chiqaribroq so'z qotar ekan, nur tushib yaltiragan bir juft munchoqday porlab turar edi.

- Qanday tartibga keltirarding, o'zing o'ringdan turolmayapsan-ku! - dedi bir payt Mirza tomdan tarasha tushganday. Uning bu gapidan

Sadafning lablari titrab, uzun, qayrilma kiprikli ko'zlari esa dakki eshitgan go'dakning ko'zlariday javdirab ketdi.

- Sadaf, senga nima bo'ldi o'zi? - so'radim, shunda noqulaychilikni yo'qotish uchun. - Yaqindagina tuppuz-tuzuk eding-ku!

Afsus, bu gapimdan Sadaf battar uyaldi. Uyalib, ko'zmunchoq taqilgan qo'llari bilan yuzini berkitib oldi.

- Enam fol ochirib kelgandi... - dedi iymanib.

- Xo'sh?..

- Suv parilar... hazillashibdi..

- Hazillashibdi?!

- Suygan... Suygan emish... Shu uchun qizing suvni yaxshi ko'rib qolgan, deb aytibdi..

Mirza "Piq!" etib kuldi-yu, ikki yonida Qodir ikkimizning qovog'imizni uyganimizni ko'rib, birdan og'zini yig'ishtirib oldi.

- Ishqilib, tuzalarmikansan? - dedi, kelganimizdan beri tushirgan shuncha qovunlarini "terib olishga" urinib. - Qayering og'riyapti o'zi?

- Oyoqlarim... Shishib chiqqan. Folbin, qushnoch chaqirib quloq-boshini torttirsangiz, tuzalib ketadi degan...

O'sha kuni biz kissalarimizni mayiz-parvardalarga to'ldirib Sadaflarning hovlisi darvozasidan chiqar ekanmiz, Qodir ketgisi kelmayotgandek ortiga alanglab:

- Chit ko'ylak qizlarga yomonam yarasharkan, - deb qo'ydi.

- Ha, - beixtiyor uning gapini ma'qulladim men. - Forma kiy deb urishguncha, maktabdagi bari qizlarga chit ko'ylak kiydirishsa bo'lardi.

Ertasiga maktabga borib, har uchovimiz Bo'tayevga Sadafdan eshitganlarimizni oqizmaytomizmay aytib berdik.

- Madaniyatdan orqadamiz! - g'udrandi, Bo'tayev barmog'ini chakkasiga tirab, burab ko'rsatarkan. - Suvda o'ynagan bo'lsa, shamollagan-da! Ertakdagi Suv parilariga balo bormi!

Ovulda eshitmagan quloq qolmagan mish-mishlarga qaraganda, shundan keyin rahbarimiz Bo'tayev Sadaflarning uyiga dag-dag'a qilib borgan, lekin omadi kulmay Sadafning muloyim onasiga emas, otasiga duch kelib qolgan ekan.

- Qizingiz nega maktabga bormayapti?! - degan ekan o'shanda Bo'tayev.

– Qizim kasal! – deb javob bergan ekan Sadafning otasi.

– Kasal bo'lsa, do'xtirdan sprafka yozdirib kelib topshirsin! Maktab enasining uyimas!

So'ngra Sadafning otasi Bo'teavning yoqasidan "g'ippa" bo'g'ib olibdi.

– Uv, enasini qo'shmay gapir! – debdi uni daraxtni qoqayotganday qattiq silkitib. – Yana qaytib hovlimda baland ovozing chiqsa, gapim gap, bo'yingni arralab, ketinga loy suvab qo'yaman!

Bu gaplarning necha foizi chin ekanini, rosti men bilmayman. Lekin har qalay, Sadaf maktabga biz borib so'rab kelganimizdan bir oylar o'tib keldi. Bilmadim, balki qushnoch chaqirib quloq-boshini torttirgandir, balki ukol-dorilar bilan jo'ngina davolanib qo'yaqolgandir, har qalay u butunlay sog'ayib oldingi sho'x-shaddod qizga aylangan, shu bilan birga rahbarimiz Bo'tayevning unga muomilasi tamoman o'zgarib, Sadafni "sizlab" gapiradigan odat chiqargan edi.

Shu voqealarni o'ylab turgan edim, Qodirning mushtini kaftgiga urishidan chiqqan "shart!" etgan ovoz xayolimni jamlashga majbur qildi.

– To'g'ri, otasi bilsa shunday qiladi, lekin bilmasa-chi?! – dedi u, o'zidagi qo'rquvni allaqayolarga haydab, bir dumalab yana oldingiday dalli-g'ulli Qodirga aylanarkan. – Bu ishni to'rtalamiz qilsak va to'rtalamiz ham hech kimga og'iz ochmasak, qayerdan biladi otasi? Axir, o'ylab ko'ringlar, hammamizning yuzimizga oyoq bosgan bu riyokor, yolg'onchi qizning xiyonatini kechirib, hech narsa bo'lmaganday ketaversak, qanday odam bo'lamiz?!

Mening... Mening tasavvurim ko'zglasida Sadaf iymanib, uzun-qayrilma kipriklarini pirpiratib yer tagidan boqqanday bo'ldi. Menga emas... Begona birovga boqqanday bo'ldi. Olov yondi ichimda. Ichimdagi bu olovning alangasi esa, har qanday qo'rquv, har qanday hadikni kuydirib-yoqib yuborishga qodir edi.

– Rost! – deb aytdim ich-ichimdan xo'rsinar ekanman. – Biz qo'rqoq emasmiz. Buni shunday qoldirib bo'lmaydi. Shunday qoldirsak, sinfdagi qolgan bolalar nima xayolga borishini ham o'ylaylik... Qolaversa, otasi hozir qo'shni mahalladagi bir odamning tomini yopayapti, ishdan charchab qaytsa, kechasi dong qotib uxlasa kerak.

Chamamda, xiyonat alamining achchiq tutuni Mirzaning ham ichidan qo'rquv sharpalarini quvib chiqargan edi. U dadil o'rmidan turdi. Shimining chang-u gardlarini qoqib, uzoq-uzoqlarga qarab qoldi.

– Oshnalar, men Sadafni hech biringdan kam sevmas edim, – dedi keyin biroz hayajon bilan. – Lekin meni... Bizni shuncha kuyib-pishganlarimizni ko'zga ilmay, kelib-kelib begona bir yigitgayam xat yozadimi? Sizni ko'p o'ylayman, deb aytadimi?! Bizni senlaydi-yu, uni sizlaydi! Qaysi yuz bilan shunday deya oladi?! Tushida ko'rganmish...

Uyat emish... Xudo biladi bu hayosiz qiz tushida nima qilgan? Shunday ekan, chindan bu ishni shundayligicha qoldirib bo'lmaydi. Yozish, jazolash kerak! Aslida qanday qiz bo'lsa hammasini ochiq-oydin, hamma biladigan qilib yozib, jazolash kerak!

– Shu, oshnalar, shu! – Mirzaning gaplaridan yanada ilhomlangan Qodir u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi. Bizdan yetti-sakkiz qadam narida taqqa to'xtadi-da, kaftini shop qilib havoda sermadi. – Chin aytaman, Sadafni qanchalik yaxshi ko'rmay, u uchovingdan bittasini tanlaganda, erkakning ishini qilib men chekkaga chiqqan bo'lardim. Aldasam qasam ursin, agar Sadaf uchovingdan biringni tanlaganda mening ishim yo'q edi! Lekin bu yerda u faqat sevgimga emas, balki do'stlarimgayam xiyonat qilayapti! Kechirmayman!.. Kechirmaymiz! Biz barchamiz uni kechirmaymiz!..

Qodir bilan Mirza mening ko'nglimdan o'tayotgan gaplarning ham hammasini aytib bo'lgandi.

– Juda to'g'ri! – dedim, gap ma'qullab. – Agar hozir jazolmasak, bu turishda bu qiz maktabni bitiriboq buzilib ketadi!

– Buzilib bo'lgan! – Qodir bilan Mirza og'zimga urganday baravariga hayqirib yuborishdi.

– Shu, shu! – aytdim, yana gap ma'qullashdan yaxshiroq yo'lni topmay. – Buzilmasa, seni o'ylayman, uyat tush ko'raman, deb yozib o'tiradimi!..

– Baribir otasi sezib qoladi, baribir... – qo'rqqanidan rangida rang qolmagan Mo'min bizga emas, xuddi o'z-o'ziga o'qtirayotganday g'oldiradi. – Sezib qoladi! Keyin baringni ta'ziringni beradi. Meni aytdi, deysanlar, uchalarangniyam o'ldiradi otasi! O'ldirib qo'yadi!..

Odatdagidan ko'proq gapirib qo'ygan
Mo'minning peshonasidan oqqan ter yuzlariga
dumalab tushar, burun kataklari torayib-kengayar,
yig'lab yuborguday hayajonli bir qiyofada turardi.
Ana, qanday ahvolga solishi mumkin qo'rquv
odamni!

Ayni shu onda yakka tut joylashgan
tepalikning ko'zdan pana yog'ida kimdir "Aka!"
dedi-yu, hammamiz bir sapchib tushib o'sha yoqqa
qaradik. U tarafda esa, tirmizak singlim tirjaygan
ko'yi bizga boqib turar, sin-u sumbatidan gap
poylab kelganga o'xshardi.

- Nima deysan?! - o'shqirdim unga zardam
qaynab.

Lekin u yumush bilan kelgan ekan. Zardamdan
keyin darrov qovoq uydi.

- Nega baqirasiz, sizni izlamagan joyim
qolmadi-ku? Enam tezda yetib kelsin, sigir
sog'inaman, buzoqni ushlab turadi, deyaptilar.

- Bor! Kelayapti ekan, de! - gapni qisqa qildim
men. Arazlagan singlim ortiga qaray-qaray ketib
borarkan, biz to u uzoq ketgunicha gaplashmay
jim turdik. Juda achchiqlanganim uchun singlim
olislashishi bilanog:

- Agar shunchalik qo'rqayotgan bo'lsang, sen
ham uning ortidan daf bo'la qol! - deya Mo'minga
ham o'dag'ayladim. Mo'min... Mo'min esa, afsuski
aynan shu gapimni kutib turgan ekan. U menga
"Yalt" etib ko'z tashladi-yu, sekin burilib, singlim
ketgan so'qmoqdan jo'nab qoldi... Mirza sarosimaga
tushdi. Chamamda, rejamizni hammaga aytib
qo'yadi deb cho'chidi.

- Mo'min! Mo'min, qayt! - deb baqirdi uning
orqasidan.

- Qayt, Mo'min! Qaytd, dedim, oshna! - baqirdi
Qodir ham.

Biroq haligina boshini ham qilib, qadamlarini
sudrab bosib borayotgan Mo'min bizning
chaqirganimizni eshitmaslikka ahd qilganday
yugurib ketdi.

Biz jangga kirmasdan oldin yengilgani ma'lum
bo'lgan lashkarlarday ezilibgina qoldik. Bir-
birimizning ko'zimizga qarashga botinmay, Mo'min
ketgan tomonga tikilamiz...

Shunda Qodir hech kimdan qo'rqmayotganini,
hech narsadan tashvishga tushmayotganini
bildirmoqchi bo'lib, yolg'ondakam kerishdi.

- Ketsa ketaversin, oramizda bo'lasayam
ishning pachavasini chiqarardi! - dedi keyin.

- Oshna chiqmaydi bundan, doim yarim yo'lda
tashlab qochadi o'zi! - deb qo'l siltadi Mirza ham.

Mirzaning gapi esa, mening esimga qiziq bir
voqeani solib yubordi.

- Bu nomard tinchgina tashlab ketsa go'rga,
shukr qilaveringlar, - dedim o'sha voqeani
oshnalarimga ham eslatish uchun. - Har qalay
yengil-boshlarimiz o'zimizda-ku!

Mirza va Qodir har qancha og'iz-burnini
yig'ishtirmoqchi bo'lishmasin, o'zlarini tutolmay
"piq-piq" kulib qolishdi...

Biz eslab haliyam kulgidan tiyila olmayotgan,
shunday og'ir vaziyatda ham ruhimizni ko'tarib,
ichimizga bir chimdim nur olib kirgan u voqeaning
bo'lib o'tganiga ham bir necha yil bo'lib qolgan edi.
U paytlar biz hali rosmana go'dak - bola o'yindan
boshqa aytarli tashvishimiz bo'lmagan tentak-
sentak churvaqalar edik. Bir kuni oldimizdan
chiqqan toshchalarni koptok qilib tepib, to'rtalamiz
doimgiday maktabdan qaytayotsak:

- Katta ariqqa nimaga suv kelmayotganini
bilasilarmi, - deb qoldi Mirza. - Kanalning suvi
qurigan emish. Tizzadan bo'lib qolibdi o'ziyam,
ko'lmakchalarda baliqlar ilang-bilang o'ynab yotgan
emish!

- Soz ekan-ku! - dedim bu gapdan mening
quloqlarim ding bo'lib. - Unda baliq ovlagani
bormaymizmi? Besh-o'nta baliq tutsak, Mo'minning
enasi pishirib berardi.

Haqiqatdan ham Mo'minning tili va qo'li
shirin onasi bizga ajoyib taomlar pishirib berardi,
o'sha paytlar. Birovlarning tomorqasidan baqlajon
o'g'irlab chiqamizmi yo cho'zma bilan chumchuq
ovlaymizmi, doim u kishiga olib borar, hech
kimning ko'nglini og'ritmaydigan bu halim ayol
esa, keltirganimizga o'zidan boshqa masalliqlar
qo'shib, mazali ovqat tayyorlar edi. Shuning uchun
biz mug'ombirlar ikkita kartoshka topsak ham,
og'zimizning tanobi qochib, qovurtirib yeyish uchun
Mo'minlarnikiga qora tortib boraverar edik.

- Suv tizzadan bo'lsa, demak, qarmoqning
keragi yo'q, - Qodir o'zini zo'r baliqchiday ko'rsatib,
ichida allanimalarni chamalagan bo'ldi. - Xo'sh...
Oshanalar, unda darrov uyga borib maktab

kiyimlarimizni almashtiramiz-u, ko'cha boshida uchrashamiz. Qorni ochganlar bo'lsa, ushlagan birinchi baliq'imizni o'sha yerning o'zidayoq kabob qilib beraman!

- Kelishdik! - dedik, biz uchovimiz bir ovozdand. So'ng men hammadan birinchi bo'lish uchun uyimizga qarab yer changitib yugurib ketdim. Uyga borib, hech kim bilan gaplashmasdan kiyimlarimni apil-tapil almashtirib ko'chaga chiqsam, shunda ham Mirza qo'lini peshanasiga tirab, ko'cha boshida boshqalarning kelishini betoqat kutib o'tirgan ekan. Men uning yoniga boruvdim hamki, uzoqdan Qodirning kelayotgani va ishtoni tushib ketmasligi uchun ishtonbog'idan mahkam ushlab halloslagancha chopib kelayogan Mo'minning qorasi ko'rindi. Qodir bizni anchadan beri kutayapti deb o'yladi chog'i, kelishi bilan qo'lidagi narsalariga ishora qildi:

- Kabob tayyorlashga sirka, tuz bilan go'gurt oldim. Bo'lmasa kechikmasdim.

- Oshnalar, uzr... - dedi, undan sal keyinroq lopillab yetib kelgan Mo'min ham. - Kabob qachon pishadi, deb... Bir to'g'ram non yeb oldim.

Nihoyat, to'rt bahodir kanalga qarab surdik. Borib qarasak, kattakon kanalning suvi tizza to'gil to'piqdan bo'lib yotar, har-har joyda ko'lmakchalar loyqalanibgina ko'zga tashlanardi. Faqat Mirzaning "Baliq bilanglab yotganmish" degani ozroq lof ekan shekilli, shuncha ko'lmak kechib, eng kattasi jimjiloqday keladigan itbaliqdan boshhaqasini uchratmadik.

- Baliq loyqalarning tagiga berkinib yotgan bo'lishi mumkin, - dedi Qodir xafsalasi pir bo'lganini sezdirmaslikka tirishib. - Ket bosti qilamiz! Mo'min, Mirza ko'lmakning nargi yog'iga o'tib oyoqlaringni uzatib o'tirib olinglar-da, loyqani bizga qarab surib kelaveringlar. Biz manov bilan bu yoqdan suramiz.

Qodirning fikri ma'qul tushib, xuddi tuproq surgan traktorday oyoqlarimiz bilan loyqalarni uyondan-buyonga sura ketdik. Lekin suvdan chiqib qochgan baqalarni aytmasa, suv ichida sezilarliroq qimirlagan boshqa bir narsani bilganimiz yo'q...

- Shoshganda kiyimniyam yechmabmiz, - dedim, to'rtovlon suvdan chiqib, xafa bo'lib turganimizda.

- Ha... Balchiqqa botganimizni aytmaysilarmi...

- Mirza og'ir so'lish olib, ishtonidgi balchiqlarni nomoyish qildi. Biroq Qodir hali shashtidan qaytadigan emasdi.

- Baliq tutgani borayapmiz, deb kim uyidagilarga aytgandi? - so'radi u.

Mirza ikkalamiz bab-baravarigi "Aytmaganman" dedik. Mo'min yelka qisib, astagina qo'lini ko'tardi.

- O'! - dedi unga Qodir. - Endi uch-to'rtta bo'lsayam baliq obormasak, enangdan uyatga qolamiz! Qani bolalar, oldin hamma kiyimlarni yechib, yoyib qo'yaylik. Biz baliq tutguncha qurib turadi... - shunday deb turib, so'ng birdan fikrini o'zgartirdi u: - Yo'q, yaxshisi shu qilgani uchun Mo'min baliq tutmaydi! Mo'min huv kanal tepasida kiyimlarimizni quritish bilan shug'ullanadi!

Qarasak, atrofda hech zog' yo'q. Uchalamiz ham yechinib qip-yalang'och bo'ldik-da, kiyimlarimizni Mo'minga berdik. Tezda qurimasa, olov yoqarsan, sirkadan yaxshi tutantirig bo'ladi, deb Qodir shu atrofga tashlab qo'ygan gugurt, tuz va sirkani ham unga tutqazdi.

Biz hali kechishga ulgurmagani ko'lmakchalarni ishg'ol qilishga otlanganimizda, baliq tutishga qo'shilolmayotganidan ranjigan Mo'min o't yoqish uchun yantoq izlab, orqasiga qaray-qaray kanal tepasiga chiqib ketayotgan edi. Qodirning g'urur qo'zg'ovchi gapi qitiq-patimizga tekkan biz bolalar yangi zavq, yangi g'ayrat bilan ishga kirishdik. G'ayratimizning zo'rligidan, ket bosdi qilib sirpanib chiqmagan ko'lmagimiz kanalda deyarli qolmadi.

- Ay-y!!! - deb baqirib yubordi shunda Mirza to'satdan. - Bir narsa... Bir narsa oyog'im osti-da!..

Qodir loyqalarni jon holatda o'ngdan surdi, men chapdan, uchovimizning oyoqlarimiz tutashib, mosofa qisqarganda haqiqatdan ham bir qarichcha chaqadigan bir baliq suv betiga o'ynab chiqdi. Uchovimiz baravariga baliqqa tashlandig-u, baliq qay birimizningdir changalimizga urilib, ko'lmakdan tashqariga otilib ketdi!

- Ehe-hey-ey-ey! Bali-iq! Bali-iq! - biz oshnalar quvonchimiz ichimizga sig'may, sakrab-irg'ishlab quruqlikda bilanglab yotgan baliqning atrofida o'yinga tushar, ayni shu bugun, shu lahza bu yorug' olamda bizdan baxtiyorroq odam borligiga ishonib bo'lmasdi. Zavqimizga badanlarimiz tor kelib,

baqirib-sakrashib, bir-birimizni quchoqlab, xazina topgan tentaklarday yerga dumalab qoldik.

– Endi... Endi men sizlarga... – dedi, yotgan joyida hansirayotgan Qodir zo'rg'a tili aylanib. – Uni kabob qilib beraman! Menga bir suzgichini... Yo'q, dumini... E, mayli! Umuman bermasalaringam mayli! Silar yesalaring bas!

Bir muncha vaqt chalqancha yotib, nafas rostlab olganimizdan keyin o'rinlarimizdan turdik. Oshnalarim va o'zimning balchiqqa botgan yalang'och badanlarimizga ko'z tashlar ekanman:

– Hoy, eslaringdami? – aytdim men kulib. – Zovurdan sakrashimizni so'raganda Sadaf bizga hindularga o'xshamaysanlar, deb noligandi. Mana, shu turishimizda hindulardan kam joyimiz qolmapti!

– O'shanda zovurdan kim sakrovdi? – menga qo'shilib kula boshladi Mirza. – Mo'minmidi?

– Mo'min edi! Lekin sakragani yo'q, qulab tushgandi u galvars!

– Aslida u payti Sadaf chakana shart buyurgan ekan. Undan ko'rasi baliq tutib beringlar degandami?! Hozirgiday akang qaragay sharta kanalga ket bosib...

– Voy, voy! Go'yo baliqni bir o'zlari tutganday!

– Aytmoqchi, – Qodir Mirza ikkalamizning suhbatimizni bo'lib, tashvishlanganча tepa tomonga qarab qo'ydi. – Mo'min ko'rinmay qoldimi? Tepaga chiqib qaraylik-chi...

Tutgan yagona balig'imizni sardorimiz Qodirboyga ko'tartirgancha, biz "Hindular" kanal tepasiga chiqib borsak, bu atroflarda Mo'min tugul uning isiyam yo'q ekan! Teparoqda turganimiz uchun birortaning ko'ziga chalinmasin degan xijolatda qo'llarimiz bilan uyat joylarimizni berkitib, u yon-bu yon qarasak, huv narida yonib o'chgan bir gulxanning tutabgina turganini ko'rdik. Yaqinlashaverganimizda dimog'imizga urilgan lattaning kuyindi isi va shu atrofda yotgan sirka bilan tuzning idishidan nima voqea ro'y berganini taxmin qilish mumkin edi... "Nahotki?!" degandek bir-birvimizga qarashib qotib qoldik biz.

– Ablah! – deb uvlab yubordi keyin, Mirza egila solib yerni mushtlarkan. – Laponglab o'tin topib kelaman deguncha, kiyimlarimiz olovga tushib ketgan! Bizga aytish o'rniga, quyonna surgan u dovdir!

Odatdagiday tez qizishib, jazavaga tushadigan Mirza a'zador ayollar kabi yer mushtlab, oh-voh qilgan bo'ldi. Ayollardan farqli o'laroq faqatgina u taqdirini emas, Mo'minni qarg'ar, Qodir bilan men bu gaplariga xayrixoh bo'lsak ham, Mirzaning tinchib qolishini jim turib kutar edik.

Mirza bor dardi-hasratini to'kib olgandan so'nggini men bir-biriga tutashib yonib bitgan borib kiyimlarimizdan qolgan kichik nishonani qo'limga oldim. Nima qilishimni bilmasdan, dud urib, uning yonida yotgan – qorayib qolgan tuz idishini artdim.

– Qodirboy, – dedim, o'zimcha Qodirga kesatib. – Sirka tugabdi, go'gurt yonib bitgan... Tuzingizni nima qilsak endi?

Qodir kalta qoshlarini chimirib biroz o'ylanib turdi-yu:

– Nima ham qilardik?! Ko'lmakda shilini achishayotgan ketlarimizga sepamiz-da! – deb g'udrandi zarda bilan.

Biz shunday bir-birimizga kesatib, zarda qilib, yer-u tuproqdan alam olib turgan edik, bir mahal men uzoqda kelayotgan bir odam qorasini ko'rib qoldim.

– Sharmanda bo'ldik, kimdir kelayapti! – dedim bezovta tortib, panaroq joy topish uchun qochishga shaylanarkanman.

– Shoshma-chi, – deya Qodir meni to'xtatib qoldi. – Yaxshilab qara, bola ekan...

Biz shundan so'ng olisda jimirlab ko'rinayotgan ul ko'lanka o'zimizning ablah Mo'min ekanini tanib qoldik. U o'n-yigirma daqiqalar orasida xumday boshidan hil chiqib, to'xtamay yugurgani sababli toliqib-xansirab yonimizga yetib kelarkan, qo'ltig'iga qisib olgan shim bilan ishtonni Mirza ikkovimiz tarafga irg'itdi.

– Oshanlar, manglar! Maktab shimim bo'lsa ham olib kelaverdim.

Keyin u ikkinchi qo'ltig'iga qisib olgan narsasini changallab, Qodirga qaradi. Etagini qayirib, burnini artdi-da:

– Lekin senga bergulik shalvarim qolmadi, Qodir... – dedi aybdorona mo'ltayib. – Novcharoqsan... Shunga... Otamniki bo'lsa ham olib kelaverdim...

2.

Bu hayotda shunaqa o'zi – hammasi yaxshi ketayotgan paytda bitta bemaza buzoq boshini buradi-yu, qolganlarning ham xulqini buzadi. Mo'min Sadafning otasidan qo'rqib qochib ketgach Mirza ma'yus tortgan, Qodirning avji past, men ham nima qilishimni bilmay ikkilanib turardim. Go'yo biz shu yerda soatlar emas, necha asrlardan beri gaplashib o'tirganmiz-u, nihoyat, gaplashadigan gaplarimiz tugaganday. Quyosh esa, sudralganча osmonning oxiriga qarab ketar, uning tafti o'tmaslashgan qizg'ishtob nurlaridan yakka tut va katta xarsang toshimiz ham olovrang tusga kirgan edi.

Bir payt Mirza yerdan kesak olib, hademay ko'zdan yo'qoladigan quyoshga qarab otdi. Gizlanib picha qarab turdi-da, keyin yana bir kesak otdi. Qarab turdi, tag'in otdi. Otaverdi... Shunda beixtiyor Qodir ikkalamiz ham unga qo'shilib quyoshni kesaklay boshladik. Biz qancha kesak otsak, ruhimiz shuncha yengil tortar, oramizdagi birdamlik ham shunchalik oshib borayotganga o'xshardi.

– Men oshnachilikka xiyonat qilmayman! – deb o'ksikdan-o'ksik hayqirib yubordi Mirza.

– Men oshnalarimga hech qachon xiyonat qilmayma-a-an! – deya Qodir unga jo'r bo'ldi.

Men ham baqirmoqchi bo'ldim-u, tomog'imga yig'i tiqildi. Pichirlabgina:

– Xiyonat qilmayman... Hech qachon xiyonat qilmayman... – deya oldim xolos. So'ng borib akamday ko'radigan Qodirni mahkam quchoqlab oldim. Mirza kelib ikkimizni qo'shib quchdi. Uchalamiz bizni olisdan ko'rib tentak bo'libdi deb o'ylaydigan odamlarni, quyoshni, toshni va butun olamni unutilib sakradik. Xuddi baliq tutganimizdagi kabi. Biroq bu sakrashimizda zavqdan ko'ra qayg'u ko'proq edi. Bu sakrashimizda quvonchdan ko'ra hamdarlik kuchliroq edi. Bu sakrashimiz... go'yoki bir qasam edi...

Hovlimizga kirib borganimda kun botib, olam ko'kimtir tusga kirib bo'lgan edi.

– Qayerlarda sandiroqlab yurgan eding?! – ovozini pastlatibgina so'radi onam. Savoliga javob kutmasdan buyurdi. – Tez ustingni almishtirib chiq, otang bilsa o'ldiradi!

Darrov tushundim, demak, otam ham ishdan hozirgina qaytgan va avzoyi buzuq. Onam u kishini

battar kayfiyati buzilmasin deyapti. Onamga “Xo'p” deb, ustimni alishtirish uchun ketayotgan edim, tirmizak singlim yo'limni to'sib chiqdi.

– Aka! – dedi u azbaroyi og'zi qulog'ida bo'lgani uchun tovushini zo'rg'a pastlatib. – O'ldilaringiz! Sizlarning hamma gaplaringizni Sadaf opamga aytib berdim!

Mening oyog'imdan jonim chiqib ketay dedi. Ko'z oldim tinib, yuragim tez ura boshladi.

– Qaysi gaplarimizni?.. – deya so'radim shunda ham u balki hazillashayotgandir, degan umid bilan.

– Poylab turib eshitganlarimni-da! Bugun kechasi darvozasiga bemaza gaplar yozib tashlaymiz deganlaringizni!

– Nima... Sen... Sen eshitganmiding?! Nima dedi keyin u?..

– Rosa kuldi! Chimsaroyda bizning darvozamizga bemaza gap yozishga jur'ati yetadigan odam borligiga ishonmayman, chunki otamning qo'liga tushsa sog' qolmaydi, dedi!

– Sababini-chi? Sababini... Nega bunday qilmoqchi ekanimizni so'ramadimi?..

– Yo'q... – birdan o'ylanib qoldi singlim. Turishidan, rejamizning asl sababini buning o'zi ham bilmasdi.

“Yaxshiyam ishonmabdi!”. Hozir bu chaqimchiga qo'pol biror gap aytsam, xuddi Sadafga borganday yugura solib otamning oldiga borishi hech gap emasdi. Shu uchun tishimni-tishimga bosdim. Indamay uyga kirib ketdim.

Otamning nima sababdan kayfiyati yo'q ekanini baribir bilolmadim. Ammo kechki ovqatni barchamiz mustar bir kayfiyatda yedik. Hatto har kuni chakagi tinmaydigan singlim ham otamning qovoq solib o'tirganini ko'rib, bugun yer chizib, so'naribgina o'tirardi. Odamlar orasida eng yuqimlisi kayfiyat bo'lsa kerak o'zi...

Otam ovqatlanish orasida onamdan faqat bir martagina:

– Sigirni sog'ib oldilaringmi? – deb so'radi xolos. Onam menga yer tagidan qarab olib:

– Ha, sog'gandik, – degandan keyin, yana barimizning tilimiz bog'landi.

Onam dasturxonni yig'ishtirishi bilan uydan yostiq va yopinchi'g'imni olib chiqdim-da, o'zimga o'rin solib, yotib oldim. Uydagilarning ham o'zimga o'xshab tezroq o'rinlarigi yotishini istaganimdan

shunday qildim. Bu paytda falakka yakkam-dukkam yulduzcha chiqa boshlagan, osmon go'yo qora libosga burkanganu, yulduzlar shu libosning tugmalariga o'xshab yiltirab turardi. Ko'p o'tmay, onam qabatimdan otam, o'zi va singlimga ham o'rin soldi. Ular tin olish uchun joy-joylariga cho'zilish taraddusida-yu, mening behalovat ko'nglimning alla yeri orziqib-kuyishadi. Nega buncha dilgir kun bo'ldi o'zi bugun, nega buncha dilgir kecha, bilmayman. Balki, Qodir bilan Mirza ham hozir o'zini uxlaganga solib, yaqinlarining tezroq pinakka ketishini kutib yotishgandir? Sadaf-chi, Sadaf nima qilayapti ekan? Hindlarga o'xshaydigan o'sha sevgilisini eslab yotganmikan yoki uxlab, uni tushida ko'rayaptimikan?! Ehh, rejamizdan xabar topgani chatoq bo'libdi-da! Yana tag'in qo'rqib, aybini izlasa go'rga – nazariga ilmaganini qarangi! Go'yoki bu ish bizning qo'limizdan kelmaydi! Asli shu kalandimog'ligining o'zi uchun ham ayab o'tirmaslik kerak uni! Yaxshisi... Yaxshisi uning xabar topgani haqida Qodir bilan Mirzaga aytmayman... Shunda... Shunda ular ahdidan qaytmaydi! Axir, qo'rqoq oshnani kechirsa bo'ladi, xiyonatkor sevgilini kechirib bo'larmidi? Bo'maydi-da! Masalan, xiyonat qilgani uchun, men o'zimning yaxshi ko'rgan itimni ham kechirgan emasman. E, mening itim ham emas edi o'sha, bironing iti, shunchaki it edi!

Aslida, men u itni ovulning chekkasida yashaydigan bir odamnikidan o'g'irlab kelgan edim. Yo'q, men o'g'irlab kelganimda aytarli it ham emas edi, xumbosh, old oyoqlari yo'g'on, paxmoqqina kuchukcha edi. Uni o'g'irlaganimdan bexabar otam va onam kuchukni qayerdan topib kelding, deb oldiniga tergashdi. Lekin arzanda singilcham o'ynab, ovunayotganini ko'rib, indamay qo'yaqolishdi. "Ziyrak" qo'ydim, otini. O'zim nima yesam, teng yarmini berib boqa boshladim. Kuchukchani doim suyib erkalar, imkon boricha begona ko'zlardan asrashga harakat qilar edim. Qancha qistalang qilsa ham, uni qayerdan topib kelganimni eng yaqin oshnalarim, hatto Qodir bilan Mo'minga ham bildirganim yo'q. Faqat bir martagina, hech kimga sotmaslik sharti bilan Mirzaning qulog'iga aytganman.

Zotdor ekan kuchukcha. Tez o'sib, sal kam uch oy deganda itmisan, it bo'ldi. Hamma

kuchukvachchalar odamning oyog'iga kelib suykalsa, u bunday tilyog'lamalikni bilmas, juda erkalangisi kelgan paytlardagina yo'limni to'sib, kovushimdan tishlab tegajoqlik qilar edi. Maktabdan qaytayotgan vaqtimda esa, u oldimga yugurib chiqar, xursand bo'lganidan irg'ishlab ko'kka shunaqangi baland sapchirdiki, bo'yi bo'yimdan baland bo'lib ketardi...

Gap yotmaydi ovulda! Mening bir yoqdan kuchuk topib kelganimni eshitib, bir kuni itni egasi izlab keldi. Darvoza oldida otam bilan gaplashib turishganini eshitib, uning nima uchun kelganini tushundim.

– Bermayman! – dedim otamga. – Ziyrak bu odamniki emas, uni men ko'chadan topib olganman!

– Topganing rostmi? Qayerdan topganding o'zi? – so'radi otam.

Men atay o'sha odam yashaydigan emas, ovulning boshqa bir tomonini aytdim:

– Kanal bo'yidan.

– Balki, o'sha yoqlarga adashib borib qolgandir. Yo kimdir o'g'irlagandir-u, kanal bo'yiga tashlab ketgandir, – itning egasi menga qovoq ostidan qarab, gapga aralashdi. – Qani, chaqiringlar-chi, o'zini bir ko'ray.

Chumchuqlarni qo'rqitish uchun bu damda itni hovlimiz orqasidagi toklarning tagiga bog'lab qo'ygan edik. Vahimaga tushib, yig'lagim kelib ketdi.

– Bermayman, ko'rsatmayman ham! – dedim otamga yig'lamsirab qarab. – Ota, ko'rsa bu odam baribir meniki deb turib oladi!

Otam ikki o't ichida qolganday edi. Birinchidan, mening itni qanchalik mehr bilan boqqanimni va uni qanchalik yaxshi ko'rishimni bilar, itni birovga berib yuborib ko'nglimni vayron qilishni istamasdi. Ikkinchidan... Itning bezbet egasi qarshisida "It baribir meniki, bersalaring ham, bermasalaring ham uni olib ketaman!" deganday xo'mrayib qarab turibdi.

– Unda bir shart qo'yamiz, – dedi otam mulohaza qilib ko'rgach. – Itni men ushlab turaman. Ikkovlaring ikki yonimdan turib, chaqiringlar. It kimning oldiga borsa, o'shaniki bo'ladi.

Umid bilan haligi odamga qaradim. U "shart ma'qul" deganday, yelka qisdi.

Mening ichimdagi qo'rquvim shakarli choy betidagi ko'piklarday tarqab ketgan edi! Sarosima bulutlari surilib, yuzimga quvonch quyoshi charaqlab chiqqan edi! "Yashasin! – der edim ichimda tantana bilan. – Ziyrak, albatta, mening oldimga keladi! Shuncha paytdan beri faqat mening qo'limdan ovqat yegan, mendan boshqaga iskanmagan Ziyrakkinam o'zimning oldimga keladi! Xuddi maktabdan kelishlarimni kutib olgandek yugurib kelib, bo'yim barobar sakraydi!.."

Borib itning qozig'ini sug'irgunimcha bo'yinlaridan quchoqlab, tumshug'idan o'pib-o'pib oldim. Keyin ortimdan chopsin, tezroq yetib borsin, deb otam bilan haligi odam yoniga yugurdim. Ipini sudrab men bilan baravar otamning qarshisiga kelgan it o'sha odamni ko'rdi-yu, quloqlarini ding qildi. G'ingshib, bezovtalandi...

Ko'chaga chiqdik. Otam itni ipidan tutib, ma'lum uzoqlikda qarab turgan anov odam bilan oralig'imzda turganda, mening og'zim qulog'imda edi. Hozir "Ziyrak" mening yonimga yugurib keladi, der edim ishonch bilan, "Hozir... Hozir..."

Lekin... Lekin shunday bo'lmadi. Otam itni qo'yib yuborishi bilan, it zanjirini shildiratib egasiga qarab yura boshladi... Baqirib yubordim. "Ziyrak, qayt orqangga!" dedim. Avval zarda bilan, keyin yig'lab yalindim. "Ziyrakjon, qayt... Qaytaqol, Ziyrakjon..." dedim. Koshki, qaytsa... U faqat bir martagina, yarim yo'lda men tomonga qayrilib qaradi, xolos. Keyin chirt o'girilib, egasi yoniga ketib qoldi...

Itini ergashtirib g'olibona qadamlar bilan ketib borayotgan o'sha odamning izidan qarab qolar ekanmiz, otam ikkimiz allaqanday cho'kib, mung'ayib qolganday edik. Chin, shu paytgacha olamda tengsiz bahodir sanaganim – otam shu taqlid aybdorona qo'l qovushtirib turishlari bilan, ilk marta menga ojiz va notavon tuyilib ketdi. Yig'lamasam ham, o'z-o'zidan yosh dumalab tushayotgan ko'zlarim bilan bir otamga, bir itini ergashtirib ketayotgan haligi odamga qaradim-u, hovlimizga otildim...

O'sha kuni ochlik e'lon qildim. Onam kechki ovqatga chaqirsa bormay, uyga kirib arazlab yotdim. Ko'z yoshimdan ho'l bo'lib ketgan yostiqqa yuzimni bosib yotar ekanman, "Nomard ekansan! Nomard! Hayf senga bergan shuncha ovqatim, hayf

shuncha erkalaganlarim!.." deb itni so'kardim nuqul. Mening bu koyinishlarimni eshik tirqishidan eshitib turganmidi yo nima o'ylayotganimni sezganmi, bilmayman, bir vaqt onam yonimga kirib keldi.

– Qo'y, ulim, yig'lama, – dedi boshimni silab. – Zo'r ekan iting... Qara-ya, qancha paytdan beri ovqat berib qarashsang ham, o'z egasini unutmabdi... Boshing omon bo'lsa, shunaqasidan yana toparsan...

Onamning o'shandagi boshini egib, yuzimga achinish bilan termilganini eslar ekanman, ich-ichimdan chiqqan olovli nafas dimog'imni kuydirib o'tdi. Kim bilsin, chindan ham balkim o'sha it Sadafdan yaxshiroqdir? Sadaf bilan Mo'mindan yaxshiroqdir o'sha it?! Shu choqda ko'cha tarafda simyog'ochning uch marta taqillagani eshitilmaganda, kim bilsin, men ho'ngrab yig'lab yuborishim mumkin edi. Nima balo, Qodir bilan Mirza yarim tun bo'lmasidan kelishdimi, dedim shoshib ko'zlarimdagi namni artarkanman. Yo men shuncha payt o'y surib qoldimmi? Ma'lum vaqt oralag'ida simyog'och yana uch marta jarang sochgach, sekin sirg'alib yopinchiq tagidan chiqdim. O'rnimga yostiqni tiqib, biroz uringan edim – g'ujanak bo'lib uxlab yotgan odamga o'xshadi, qoldi.

Otam onam va singlim uxlayotganiga ishonch hosil qilgach, paypaslanibgina so'ridan tushdim. Ohitsa yurib darvozamizgacha bordim-u, undan u yog'iga yugurib ketdim. Simyog'och tagida meni kutayotgan oshnalarimning oldiga borganimda, Qodir qo'ltig'iga allanarsa qistirib olgan, Mirzaning esa qo'lida nimadir bor edi. Kelishim bilan u:

– Nega kechikib qolding, – deya jerkimoqchi edi, Qodir:

– O'chir, ovsar! O'zing kelishilgan vaqtdan uch soat oldin hammani uyg'otib chiqayapsan! – deb uni qayirib tashladi.

Mirza bosh qashiyman deb qo'lini ko'targandagina, tuning g'ira-shirasida u ushlab olgan narsa velosiped bo'yashda ishlatiladigan cho'tkachalar ekanini bildim. Hammasi ravshan: Qodirning qo'ltig'idagi bo'yoq qutisi!

– Uzr, oshnalar, hech vaqt o'tavermadi, – dedi Mirza xijolatpazlik bilan. – Shu desalaring, nimanidir rejalashtirsam bo'ldi, uyqum o'chadi! Anavining qo'rzoqligiyam toza jahlimni chiqardi-da...

- Gaping chin, - ma'qulladi Qodir. - Aslida tashlab qochmasdan Sadafning otasidan hayiqdim yo qorong'uda qo'rqaman desayam uni biroq majburlamasdi. To yettinchi sinfgacha qorong'uda tashqariga chiqishga qo'rqishini hammamiz bilardik-ku!

Handalakning tilimiga o'xshab ketadigan oy bulutlar orasidan poyloqchilik qilayotgan odamday mo'ralab turardi. Biz uydan qanday chiqqanimiz haqida past ovozda gaplashib, sekin-sekin Sadafning ko'chasi tomonga keta boshladik. Shunda o'zimda Sadafdan o'ch olish istagi negadir so'na boshlaganini, u mardona tuyg'ularim o'rnini sarosima va tahlika kabi tuban hissiyotlar egallay boshlaganini sezdim. Go'yo gaplariga quloq solgan kishi bo'laman-u, g'ira-shira ko'rinayogan yuzlariga termulib oshnalarimning ham ichlarida nima o'ylayotganlarini bilib olishga urinaman. Eng ko'p e'tiborimni Mirzaning xatti-harakatlari, gap-so'zlari tortdi. Mirza menga o'xshab qo'rqmayotganga, bu ishni tezroq oxiriga tekazib, tezroq xotirjam tortmoqchi bo'layotganga o'xshab tuyiladi, nazarimda. Ha, Qodir dovyurak bola, lekin tirishqoqlik borasida baribir Mirzadan ortda qoladi. G'aroyib kuyinchaklik bor Mirzada. Hamma narsani tez qabul qilib, tez unutadi. Biror ishni boshlaganda-chi, to tugatmaguncha o'ziyam tinchimaydi, boshqalarniyam tinchishiga qo'ymaydi.

Esimda, uch-to'rt yilcha oldin bir gal u sinfimizga rangi quv oqargan, qovoqlari kirtayib, ko'zlari olaygan holda kirib kelgandi. Ehtimol, siz odamning bir kunda bunchalik o'zgarib, ozib-to'zib ketishini ko'rmagan bo'lsangiz kerak. O'zim ham bir marta - faqat o'shanda ko'rganman. U paytlari o'qituvchimiz halicha "Sen to'rtalang biriksang, bir boyqushlikni boshlaysan" deb to'rtalamizni sinfnig to'rt burchagiga o'tqizib qo'ymagan, men Mirza bilan, Qodir Mo'min bilan, yana ot aravga mingashganday oldinma-ketin partalarda o'tirar edik. Bir ko'rishdayoq Mirzaga biror narsa bo'lganini bilgan esam-da, men hech narsani sezmayotganday pismiqlanib uni kuzata boshladim. Mirza esa g'am va charchoq to'la nigohlarini mo'ltiraytib, hamma narsaga loqayd bir kayfiyatda o'tirar, shu holida ishtonini xo'llab qo'yganini aytishga cho'chiyotgan go'dakka o'xshardi.

Yomonroq ish bo'lganiga aniq ishonch hosil qilganimdan so'ng, orqamga qayrildim-u, Qodirning qulog'iga shipshidim:

- Qara... Mirzani kimdir urgan bo'lsa kerak!

- Yo'g'-ay?... - Qodir avvaliga ajabalanib

Mirzaga ko'z tashladi, keyin afti vajohatli tus olib, birdan mushtlarini tugdi: - Senga aytmadimi, kim ekan o'sha "polvon"?!

Qodirning balandroq ovozda gapirib yuborganidan xavotirlanib Mirzaga qaragan edim, Mirza hamon o'sha-o'sha po'sti shilingan so'taday shumshayib turgan ekan. Biroq Mo'min gapimizni eshitib, oraga suqildi.

- Otasi urgandir-da, - dedi u. - Boshqa bo'lganda o'ziyam aytardi-ku.

- Unday bo'lsa, chatoq... - mushtini ishlatolmasligidan afsulanib, qovoq uydi Qodir.

- Otalarga hech kimning kuchi yetmaydi! Mayli, ketishimizda o'zimizning tut tagida so'ramiz, nimaga urdiykin otasi.

Darslar tugagach, Qodir aytganiday biz Mirzani o'zimizning tut bilan toshimiz yoniga boshlab bordik. Undan nima gap ekanini so'ragan edik, Mirza gapirish o'rniga izillab yig'lab yubordi.

- Oshnala-ar... - deb aytdi yig'i orasida. - Men... O'gay ekanman!

Bu yangilikdan uchalamiz ham hang-u mang bo'lib, og'zimizni yopolmay qoldik. Mirzaning izillab past tovushda yig'lashi, katta gunoh ish qilib qo'ygandek ko'zlarimizga qaray olmasdan boshini egib turishi bizni chunonam hayratga solardi. Shunda ham birinchi bo'lib Qodir o'zini tutib oldi.

- O'ylab gapirayapsanmi?! Qanaqasiga o'gay bo'lishing mumkin? Bu gap qayerdan chiqdi? - so'radi tajang bo'lib.

- Shunaqasiga, oshnalar... - Mirza battar ezilib, battar egilib shang'illaganicha javob qaytardi. - Qulog'im bilan eshitdim. Kecha maktabdan qaytganda uyga kim keldi ekan, deb eshikka qulog'imni tutsam, enamning mehmonga kelgan dugonasi shunday dedi. "Asrab olgan uling katta bo'b qolgandir", deb aytdi...

Ana, gap poylashning oqibati! Mirzanning otonasiga o'gay bo'lib chiqayotganidan emas, uning izillab yig'lashi va qayg'uli ahvoliga rahmim kelib xafa bo'lib ketdim. Mo'minning ham titroq nafas bilan, burnini sho'lqillatib tortgani eshitildi.

– Mirza, oshna... Oshna qo'ysang-chi... – dalda berishga oshiqdi Qodir. Mirzaning shundog'am mayishib borayotgan yelkasiga qo'l tashlab, osilib oldi. – Mayli-da... Baribir ota-enang bor-ku! Yo ular senga uydin ket deb urishayaptimi?!

Halicha izillayotgan Mirza bu daldadan keyin azza-bazza arillab yig'lashga tushdi. Qodir xato gap aytganini tushunib, Mirzaning yelkasidan qo'lini olarkan, Mo'min ikkovimiza aybdorona qaradi. Endi Mirza xo'ng'rab, ko'ksidagi bor nafasi bilan xo'rsinib-o'ksib yig'lar, biz unga ko'zlarimizni javdiratib, hamdardlik bilan qarab turishdan boshqa chora topmas edik.

Oradan qancha fursat o'tdi, esimda yo'q, bir mahal Mirzaning ko'z yoshlari qurib, bir nuqtaga qaragancha jimib qoldi. Odam ko'z yoshlarini artmasa-yu, u yuzida qurisa, idishdagi suvning mavjlanishini eslatuvchi ko'zlari esa yig'idan toliqib, bir nuqtaga qarab turaversa, juda qo'rqinchli ko'rinar ekan.

Uning tinchib qolganini ko'rib, Qodir yana dalda berishga urinib ko'rdi.

– Oshna, sen yaxshisi bilganingni bildir-ma, – dedi aqllilik bilan. – Agar bilganingni bildirsang, ular buni bilib qolishadi. Shunga biz ham hech kimga bildirmaymiz.

Mo'min ikkalamiz Qodir asli qanday aqlli gap aytmoqchi bo'lganini uncha tushunmasak ham, shoshib uning gapini ma'qulladik. Mirza esa, o'zimiz bilgan tinib-tinchimas, o'jar-qaysar Mirza esa, ayni paytda ammamning buzog'iday yuvosh tortib qolgan, kim nima desa bo'ynini solintirib turaveradigan siyog'i bor edi.

Qodir tantanovor qilib endi Mirzani hech qachon yolg'iz qoldirmasligimiz kerakligini e'lon qildi, chunki haqiqiy oshna shunday og'ir kunda bilanar ekan. Ushbu talabga Mo'min ikkovimiz jon-dilimiz bilan rozi bo'ldig-u, lekin Mirzaning bundan ko'ngli to'lgani sezilmasdi.

Shu kundan boshlab uchovlon so'zimizga binoan tushki o'n ikkida Mirzalarinikiga borib uni maktabga yetaklaydigan, maktabda ham nuqul atrofida girdikapalak bo'ladigan, dasrlardan so'ng yana birgalashib uyiga qo'yib qaytadigan odat chiqardik. G'amgin va indamas bo'lib qolgan Mirza bundan mamnun bo'lsa kerak, har qalay yetovimizdan bosh tortib, norozilik bildirmas edi.

Bular barisi esa shunday g'alati tarzda yakun topdiki, eslasam menga haliyam nimalardir anglashilmay sir bo'lb qolganday tuyilaveradi...

Yakshanba kuni katta ariq bo'yidagi tolzorda o'ynab yurgan edik, g'ovak ichidan chumchuq polaponning qattiq chirqallagani eshitildi. Bizning chumchuqlarni o'ldirmaslik, chumchuq polaponlariga zarar bermaslik to'g'risida bitimimiz bor edi.

– Chiqarib, nega chirqillayotganini ko'ramiz-u, yana joyiga solib qo'yamiz! – dedi, Qodir o'sha bitimni eslatmoqchi bo'lganday. Keyin qo'lini tirsagigacha tiqib, g'ovak ichidan birvarakiyiga uch-to'rtta poloponni chiqarib oldi. Lekin afsuski, poloponlarning uchtasi allaqachon nobud bo'lib mayda qumursqalar yopisha boshlagan, ulardan faqat bittagini tirik, u ham bo'lsa, og'zini katta ochib, jon talvasasida yemish so'rardi...

– Enasi bilan otasini birov ushlab olgan bo'lsa kerak... – dedim men xomush tortib.

– Ilon tutib yegan bo'lishi ham mumkin... – Qodir qoshlarini chimirib, labini tishladi. – Qani shu yerda bo'lib qolsa, tayoq bilan urib boshini yanchardim!

– Oshnalar, bitta yo'li bor! – dedi shunda Mo'min hovliqib. – Cherdagimizda chumchuq bola ochgan. Enam chiqarib bosib qo'ygan supurgilarning shundoqqina tagida. Buni olib borib, o'sha inga solib qo'ysak-chi?!

Mo'minning rejasi yomon emas edi. Uchovlon endigina temirqanot bo'lishga ulgurgan qorni och poloponni olib, ularnikiga yugurdik. Ota-onasiga o'gay ekanini bilgan o'sha kundan beri biz nima ish qilsak befarq qaraydigan Mirza ham lo'killabgina ortimizdan ergashdi. Ammo galalashib cherdakka chiqqanimizda, Qodir poloponni tez uyaga joylashtirish o'rniga o'ylanib, biroz turib qoldi.

– Ma, oshna, – dedi, istar-istamas qo'lidagini Mirzaga uzatar ekan. – Mayli, bu ishni sen qilaqol.

Mirza bundan xursand bo'lmasa ham, lekin rad etmadi. Ming mashaqqatlar bilan emaklab borib, poloponni supurgilar bosib qo'yilgan joyga – chumchuqning ko'zga tashlanib turgan ini oldiga qo'yib keldi. Aynan shu paytda bezovta chirqillab ona chumchuq ham paydo bo'ldi.

– Tss! – deb ko'rsatkich barmog'ini labiga bosdi Qodir. – Qani hamma kartonlarning panasiga, endi yemish yedirishini ko'ramiz!

Biroq bizning mo'ralab turishimizdan seskangan chumchuq ancha palla chirqillab, polaponlari oldiga bormadi. Qimir etmay turaverganimizdan keyingina yomonlik qilmoqchi emasligimizni tushundi chog'i, nihoyat, borib ini labiga qo'ndi. Kutilmaganda haligi begona poloponni cho'qilab, uyasidan chiqarib tashlashga urina boshladi. Ammo begona polopon hadeb uyaga qaytib kirishga tirishar, ona chumchuq tumshug'i bilan deyarli qoniga bo'yab tashlagan bo'lsayam, uyani tark etgisi kelmasdi... Bunday adolatsizlikka chiday olmagan Qodir sapchib o'mnidan turgan ediki, biz kutilmaganda Mirzaning "piq-piq" etib yig'layotganini eshitdik...

Mirza piqqillagancha narvondan tushib jo'naganda, uning ortidan hech baloga tushunolmay garangsib qarab turar edik.

- Tegma nozik bo'lib qoldi! Salga yig'layveradi!
- dedi Qodir ranjib.

- To'g'ri! - Qodirning gapini ma'qulladim men.
- Ota-enasiga o'gay bo'lib chiqqanidan xafaman, lekin o'ziyam bunday erkalik qilavermasin-da!

- Oshnalar, men kecha Mirzalamnikida yotib qoluvdim, - gap yetkazishni qoyillatadigan Mo'min naq quloqlarimizga kelib pichirladi. - Enasi bilan otasi Mirzani tobi yo'q, ichida qurti bo'lsa kerak, do'xtirga olib boramiz, deyishdi... Ichida qurti borligi rost bo'lsayam, menimcha, Mirza bizni aldagan, u - o'gay emas.

- Nimaga shunday deyapsan? - beixtiyor, xuddi Mo'minning o'ziga o'xshab pichirlab so'radim men.

- Bildim-da! Otasi bilan enasi uniyam, ukalariniyam siz-sizlab yotibdi... O'gay bo'lsa sizlarmidi?

- Qo'ysang-chi, - Mo'minni biror kattaroq sir-asrorni bilib olibdi, deb o'ylaganim uchun hafsalam pir bo'ldi. - Mirzaning enasi hammani sizlaydi o'zi. Mana meniyam, sen ikkalangniyam sizlab gapiradi hamisha.

- Mo'min to'g'ri aytadi! - negadir mendan bo'lakcha xulosa yasadi Qodir. - Ena-otalar hammani sizlashi mumkin, baribir o'gay bolasini sizlamaydi... Adabiyot kitobimizdagi "Olqor" hikoyasi eslaringdami, qancha qiynaydi o'gay ota-onasi?! Shu aldaganiga yana birga o'ynaylik deb kelsin, Mirzaning ta'zirini berib qo'yaman!

Biz avval Mirzaning ko'ngliga qarashga qanday tantanavor qasamyod qilgan bo'lsak, Mirzani qaytib erkalatmaslikka ham o'sha kuni xuddi shunday dabdaba bilan kelishib oldik. "Agar endiyam burnini sho'rqillatib yig'laydigan bo'lsa, mushtimdan yeydi!" deb aytdi hatto Qodir.

Ammo... Ammo chamasi biroz shoshgan ekanmiz. Mo'minlarnikida tushlikka uning enasi tayyorlagan chalopni ichib, uch oshna kattakon to'shakda dumalashib yotgan edik, to'satdan xonaga Mirzaboy kirib keldi.

- Oshnala-a-ar... - dedi, u yovvoyi qarash qilib turganimizga parvo qilmasdan xush-xandon iljayarkan. Hech kim eshitmayaptimikin, deganday bir-ikki orqasiga alanglab oldi:

- Oshanala-a-ar.. Oshanalaar, enam o'zimni enam ekan!

Mo'min ikkovimiz o'z-o'zidan tirjayib uni tabriklamoqchi bo'lib turgan edik, Qodirning imlab qo'ygani hushimizga qaytardi.

- Bir boshidan gapir, nimaga bunday deyapsan? - so'radi, Qodir qovog'ini ochmasdan.

Mirza battar iljaydi, yaqinimizga bo'ynini egib keldi:

- Shu... Boya borib enamdan so'radim... Asrab olganlaringiz rostmi, dedim. Enam qotib qoldi! Haykalday qotib, ranglari ham oqarib ketdi! Yana so'raganimdan keyingina "Kim aytdi, ukangni asrab olganimizni senga kim aytdi?!", deb so'radi. Men, "Aldamang, ukamni emas, meni asrab olgansizlar, dugonangizning gapini o'z qulog'im bilan eshitdim", dedim. Yig'lab yubordilar shunda. Keyin kuldilar... Qasamlar ichdi. "Hech qaysingni asrab olganimiz yo'q, bolaning asrandisi bo'lmaydi", deb aytdi!..

O'shanda Mirza zavq-u shavq bilan, o'pkasi va og'zi to'lib gapirar ekan, shu egilib turgan holida bo'yi ikki-uch metrcha o'sib ketganga o'xshar, ayni paytda Qodirdan musht yeb qarab turadigan yuvosh bolaga sira o'xshamasdi. Mirzaning bu shashti cho'chitib qo'yganmide yo hammasi yaxshilik bilan tugaganiga xursand edimi, har nechuk Qodir ham yumshab, tishining oqini ko'rsatishga majbur bo'lgandi...

Lekin oradan yillar o'tib ulgurgan, "Mirza rostdan asrandimi? Umi o'zi asrandi yoki ukasimi?" kabi savolar hozir bizni ortiq o'ylantirmay qo'ygan, hatto bu gaplar Mirzaning o'zining ham, balki,

esidan chiqib qolgan bo'lsa kerak. Shu fursatda esa biz uch ajralmas oshna – "Uch mushketyorlar" tun qorong'usida intiqom olish uchun ketib borardik. Ertakdagi mushketyorlarning qilichi bo'lsa, bizda bo'yoq cho'tkalari bor, mana shuning o'ziyaq uchovimizning ulardan botir ekanimizni isbotlab turibdi! Faqat tun endi ko'zimga g'ujanak bo'lib yotgan qora devga o'xshab ko'rinar, mildir-mildir qilayotgan yulduzlar go'yo uning sanoqsiz ko'zlariday meni vahimaga tushirayotgan edi...

Biz Sadaflarning ko'chasiga yaqinlashganimiz sari qadam olishimiz sekinlashayotganini, gurungimiz mavzusi ham maqsad qolib ortiqcha bir yoqlarga uloqib ketayotganini payqab qoldim. Oxirgi muyilishda esa Qodir yurishdan to'xtadi.

– Oshnalar, shu yerda gartak dam olamiz, – dedi so'ng sir boy bermaslikka urinib, azza-bazza cho'nqayib o'tirib olarkan. – Oyoq ham uvishdi, voy-vuy, hamma joyim-ay...

Mirza ikkimiz ham Qodirning yon veridan cho'nqayar ekanimiz, sukut saqlab, qorong'uda nuqul bir-birimizning kinodagi habashlar ko'ziga o'xshab yiltirayotgan ko'zlarimizga qarar edik. Pismiqqina emasmanmi, men shu yerda o'zimni ko'rsatishning zap o'rni kelganini tushundim.

– Chin, ozgina oyoqqa dam beraylik, – dedim quvlik bilan. – Buyog'i Sadaflarning darvozasiyam ko'rinay deb qoldi...

Bu gapimdan keyin Mirza ko'zlarini olib qochdi, Qodir o'tirgan joyida so'naribgina qoldi. Mening ko'nglimdan esa "O'l ikkoving! Sadafning bu gaplardan xabardor ekanini bilmay shuncha, oranglarda eng dovyuragi o'zim ekanman!" degan fikr kechdi.

– Mirzaboy, bo'yoqni ochavermadik-da, – deb temirni issig'ida bosdim shunga. – Sadafning otasi chiqib.., tag'in shoshib qolmaylik.

Ammo Qodir, baribir Qodir ekan.

– To'g'ri aytasan! – deb ayyorlikda mendanam o'tib tushdi u. – Ma, unda sen ochaver. Manavi bo'yoq, manavinisi poki!

Aslida men bo'yoqni ochishga jur'at etmasam, oshnalarim ham uni ishlatishga haddilari sig'masligi aniq edi. Lekin g'ururim ustun keldi, Qodirning qo'lidagi narsalarni olishdan tiyila olmadim... Poki bilan bo'yoq idishi og'zidagi gardishni qirqa boshlaganimda, oshnalarimning

nigohi o'ljasini poylayotgan mushukning ko'ziday o't sochayotgan edi. Ko'p o'tmay, atrofga bo'yoqning hidi anqib, idish ichidagi suyuqlik tovlanib ko'zga tashlandi...

– Qizili... – dedi Mirza shunchaki nimadir deyish zaruratini tuyib. – Bir chizilsa bas, o'lsayam o'chmaydi.

Keyin hammamiz bir qancha payt jimib va tinchib qoldik. Shunda Qodir odatdagi va'zxonlik mas'uliyatini o'z zimmasiga oladigan fursat kelganini bildi chamasi.

– Kunduzi nima deb qasam ichganimiz eslaringdami, oshnalar? – dedi u past ovozigga qat'iyat berisha tirishib. – Biz xiyonatni kechirmaymiz! Sira-sira kechirmaymiz! Hayosiz, riyokor qizning ta'zirini beramiz!

– Moxovga oshna qilamiz.., – deya go'yoki kesatganday hafsalasizgina luqma tashladi Mirza. Uning ovozida tushkunlik bo'lgani uchun ham, Qodir o'zini eshitmaganday tutdi.

– Ko'z oldilaringga keltiringlar, u nima qilganini! – dedi, gapida davom etarkan. – Qancha payt bizning yaxshi ko'rishimizni bilib, bilmaslikka olib yurgan bu pismiq qiz nima qilib qo'yganini o'ylanglar! O'sha daftardagi besharm, buzuq gaplarini eslanglar, axir! Shunga chidab bo'ladimi?!

Mening esa... Mening esa ko'z oldimdan negadir o'sha mash'um daftar emas, huv kasal payti borganimizda rangpar yanoqlari qizarib, ko'zlarimizga qaray olmasdan eski chit ko'ylagining choklarini o'ynagan Sadaf keldi. Mirzaga qarasam, Mirza ham xatni o'ylayotganga uncha o'xshamas, bejo tortib turishidan, ko'proq Sadafning otasi haqida o'ylayotgandek edi.

Shunda... Shunda o'z gaplaridan o'zi ilhomlangan Qodirning kasali qo'zidi! Qahramonlik degan kasali qo'zidi! Senlarga gap hayf, deganday shitob bilan o'rmidan turdi-da, mening qo'limdan og'zi ochiq buyoq idishini, Mirzaning qo'lidan cho'tkani tortib olib, Sadaflarning uyi tomon keta boshladi. Bu fursatda Mirza ikkimizga Sadaflarning uyi tomon qora tortishdan ko'ra, yo'lboshchimiz Qodirsiz mana shu joyda qolish vahimaliroq edi.

Tez-tez yurib borayotgan Qodirning orqasidan biz ham yo'rtib ergashar ekanimiz, Mirza ikkimiz qay jihatlarimiz bilandir bo'ynidan ip bog'lanib yetaklanayotgan itlarga o'xshab ketardik.

Bizdan uch qadam oldindagi Qodir Sadaflarning tanish darvozasi yaqiniga kelib ortiga o'g'irilganda, hilol nurlari uning ayovsiz va mardonovor yuzini yoritib yubordi.

– Biz xiyonatni kechirmaymiz! – deb aytdi u.

Nihoyat, endi orqaga qaytishning imkoni yo'q edi! Men Mirzaning qo'lidagi cho'tkalarining birini olib, uni mushtumimda siqarkanman, tutilibgina Qodirning so'zlarini takrorladim:

– Biz... xi...yonatni.. kechirmaymiz!

– Kechirmaymiz! Hech qachon kechirmaymiz! – shivirlab jo'r bo'ldi Mirza ham.

Ko'zlari yonib, vujudi titrab, hayajon bilan turgan Qodir Sadaflarning sirlanganday oppoq tovlanib turgan darvozasi tomon bordi-da, cho'tkani qizil bo'yoqqa botirib, bugun kunduzidan beri Sadafni shuncha haqoratlab aytishga haddimiz sig'magan juda xunuk bir gapni hijjalab yozdi. "Sadaf j..." deb yozdi! Men bu xunuk gapdan dovdirab, bir qur o'zimni yo'qotib qo'ygan bo'lsam ham, darrov hushimni yig'ib oldim. Tishimni tishimga bosib, ichimdagi bor nafratim, bor jur'atimni to'plab, borib Qodir yozgan gap oldidan undan ham besh battar so'z yozdim... va... va shu payt ko'zimdan bir tomchi yosh dumalab ketdi...

Mirzaning ko'z oldimda darvozaga uzangan qo'llari yomon qaltirardi. Bilsam, u ham menga o'xshab yig'layotgan ekan. Sinchiklab qaradim, Qodirning ko'zlarida ham yosh... Oxiri... Oxiri biz uchovimiz ham ochiq-oshkora yig'lab yubordik! "Xiyonatni kechirmaymiz!" deya pichirladik uchovimiz ham... Nafrat-u hayajon, shiddat-u qo'rquv bilan o'qib to'ng'iz tuk tashlaydigan eng jirkanch gaplarni darvozaga muhrlashga kirishib ketdik. Yozdik, yozaverdik, sira to'xtamadik!.. Bir payt Qodir qo'lidagi cho'tkani shart yerga tashladi-da, bizlarni qoldirib ura qochdi. Mirza ikkimiz ham uning ketidan yugurar ekanmiz, ko'ksimga urilib, oyoqlarimga chirmashib ortda qolayotgan shabada mening yodimga beshinchida o'qiydigan paytimiz huv o'sha piyoz polizidan haydalganimizni solar edi...

Ha, hamma voqea xudda shunday bo'lib o'tdi! Kecha tunda uchalamiz tiraqaylab qochib o'z-o'z uyimizga kirib borgan, bizning nima jinoyat qilganimizni esa, menimcha, hech kim payqamagan edi. Boshqalarni bilmadim, shaxsan men tuni bilan

uxlamasdan yurak hovuchlab chiqdim, shuning uchun ham hozir qizargan ko'zlarim bilan goh oshnalarimga, goh qirq qadamcha narida gerdayib turgan Bo'tayevga javdirab qarar edim.

– Nima deb o'ylaysilar... – dedi, rangi oqarib borayotgan bo'lsa-da, so'nggi nafasigacha bodichiligini saqlab qolishga urinayotgan Qodir o'zini tetik ko'rsatib. – Sadafning otasi bizni ursa... uchastkavoy oracha qilarmikin?

– Albatta-da! – dedim men alamli kinoya bilan. – Oracha qiladi, keyin peshanalarimizdan bittadan o'pib, uchalamiga "Faxriy yorliq" beradi!

Bu gapimdan so'ng Mirza chaqchaygan ko'zlarini Bo'teavdan uzmasdan, oyog'i tagiga ham qaramay surinib-toyinib qochib jo'nadi. Zora shu jonkuyarligim jonimga oro kirsam, deb endi uni tutmoqchi edim, Qodir bilagimdan qisdi.

– Qo'y, ketaversin, – dedi gapga uncha qovushmayotgan lablari bilan shivirlab. – O'zing tushunasana-ku, kimning aybi bo'lsa, o'sha qochadi!

– Buzoqni qochgani somonxagacha! – o'shqirdi ayni shu paytda Bo'tayev. – Jo'jalarining qochgan bo'lsayam, sen xo'roz bilan tovuq aslo qocha ko'rma! Bugun qo'limdan baribir qutula olmaysanlar!

Ko'tarilma, gurrilik tan-joniga singib ketgan Qodir o'zini xo'roz deb atashganidan shu yerdayam ilhomlanmay qolmadi. Orqasida birov sekinlik bilan surayotganday sudraklanib, Bo'tayevning yoniga keta boshladi. Men ham xuddi shu taqlidda uning ortidan ergashdim. Bo'tayevning halitdan ko'p sonli dushmanlarini yanchib tashlagan qo'mondonday sevinayotgani ko'rinib turar, bizni sinfxonaga tezroq olib borishga oshiqayotganini yashirib uddasidan chiqmas edi.

Ammo u quloqlarimizdan tortib sinfxonaga olib kelganda, sinfdagi manzara biz kutganimizdan anchayin o'zgacha ekan. Ya'ni Mo'min doskada enasi bilan birga turar, Sadafning otasi bilan uchastkavoy deraza oldida qaqqayishgan, qolgan bolalar joy-joylarida. Hatto Sadafning o'zi ham biroz ajabsingan, xafa bo'lgan, ammo ma'naviy o'lish u yoqda tursin, baloyam urmagan bir tusda o'z joyida o'tiribdi.

Mo'minni bunday ko'rgan Qodir men bilan ko'z urishtirib olganida, unda ortiq bodilikdan asar qolmaganini ilg'adim. Va ayni damda o'zimning ham ichimga o't tushdi: "Mirzaga to'nkashdan foyda yo'q, Mo'min hozir barimizni qo'shib sotadi!"

Ko'zlarim bilan meni ayta ko'rma, deb imo-ishoralar qilayin desam, kamiga u yerdan bosh ko'tarmaydi – ehtimol, mudhish sotqinlikka o'zini shunday tayyorlayotgandir...

– Xullas, hali aytganimday, Mo'minboyning o'zi shunday qilmaydi, – Bo'tayev tomdan tarasha tushganday gap boshlab, Qodir bilan menga qo'lini bigiz qildi. – Uni yo'ldan ozdiradigan asli bular bo'lgan! Buzmakorchiliklarni doim bular boshlaydi-yu, kasriga shu yuvosh bechora qolib yuradi o'zi. Siz Mo'minni emas, oldin bularni so'roq qiling, hurmatli uchastkavoy!

Bo'tayev, balki, o'zini biror kattakon sud majlisidagi qoralovchiman deb o'ylayotgandir, lekin uchastkavoy hozirgi holatida sud hakamidan ko'ra qiyin tenglamani yechishga qiynalatyotgan matematika o'qituvchisiga o'xshab ko'rinaradi. U peshanasini tirishtirib bizga nomigagina qaragach, yana ko'zlarini bosh egib turgan Mo'minga lo'q qildi.

– Unday demang domillasi, – xavf sezgan moki tovuqdan tipirchilab qoldi Mo'minning enasi. – Oshanalarini ham birvarakayiga aybdor qilmang-da. Mo'minjon bu ishni bilmay qilgan... Shunday degin, Mo'min, ayt o'zing, bolajonim, bilmasdan qildim degin, – deb o'g'lini qistalang qila boshladi.

Xudo urdi, degan xayoldan tizzalarim qaltirab ketdi. Hozir gapni Qodir ikkovimizga loy chaplashdan boshlaydi, keyin esa sho'lqillaydi, sumrayadi, xullas, o'zi oppoqqina bo'lib oladi, deb vahimaga tushdim.

– Bilmasdan qilgan bo'lishi mumkin, lekin men nimaga bunday qilganiga haliyam tushuna olmayapman, – baxtimizga Mo'minning tilga kirishiga yo'l qo'ymay gap boshlab qoldi Sadafning otasi. – Hammasi g'alati... Tong otishiga ancha bor edi. Ko'nglim bir narsani sezib tashqariga chiqsam, darvoza tarafdin "tiqir-tiqir" ovoz eshitildi. Tayin gapki, o'g'ri deb o'yladim! Darvozaning osonlikcha ochilmasligini bilganim uchun, uyning ortidagi devordan oshib, asta pisib keldim... Qarasam, shu! Qishloqning nargi chekkasidan bir o'zi qorong'uda kelishga qanday qilib qo'rqmadi ekan, asti hayronman...

Men endi qo'rquvni ham unutilib, ajablangan kuyi bir Mo'minga, bir Sadafning otasiga qaradim. "Nimalar deyapti bu odam? Axir, Mo'min biz bilan bormagan ediku? Bizdan oldin bordimikin, keyinmi?! Keyin borgan bo'lsa, u yerda nima qilgan?!..." kabi sanoqsiz savollar ongimda g'ujg'on o'ynay boshladi.

– Xuddi siz aytganingizday, men uchun ham juda g'alati, – uchastkavoy ensasini qashib, gapga aralashdi. – Ish faoliyatimda bunaqa voqeani hali uchratgan emasman... Tutqanog'i yo'qmidi o'zi bu bolaning?

– Yo'q-yo'q, hecham unday emas! – Mo'minning onasi qo'rqib ketib, uchastkavoyga javdiradi. – Hozir o'zi aytadi... Mo'min, nega bunday qilganingni tushuntir bolam? Yana seni tutqanoq ekan, degan gaplar tarqab yurmasin... Yo... Yo Sadafdan xafamiding, jon bolam?

Shu payt Mo'min ortiq paysalga solmay, go'yo hamma jumboqqa nuqta qo'ymoqchi bo'lganday kutilmagan bir jur'at bilan boshini yerdan adl ko'tardi.

– Xafa emasdim! Men Sadafdan sira-sira xafa emasdim! – deb aytdi, o'ziga unchalik xos bo'lmagan ham qat'iyatli, ham ezg'in bir ohangda. Ajablanarlisi, u bu gaplarni aynan Sadafga qarab turib aytdi – bamsoli sinfdin undan boshqa biron yo'qday, bamsoli Sadafning o'zigagina hisob berishi kerakday...

– Unda nega benzin bilan yuvib darvozaning bo'yog'ini ko'chirding, axir?! Kim bilsin, balki, uyni yoqmoqchi bo'lgandirsan?! – so'radi uchastkavoy.

– Men darvozani shunchaki... Shunchaki boshqatdan oqqa bo'yamoqchi edim!

Mo'minning yuz-ko'zlarida g'ayrioddiy ifodalar bilan Sadafga tik boqib aytgan ushbu gapidan butun sinf sharaqlab kulib yubordi. Bu kulgu orasida esa Sadafning sayroqi qushchalar ovoziday yoqimli va jarangdor kulgusi ajralib turar, uning Mo'minning nigohlariga termulgan qiyg'och ko'zlari zavq, minnatdorlik va nomini men tanib bilmaydigan allabir sirli tuyg'ularga to'la edi...

2019-yil, 1-21-avgust.



Nabi JALOLIDDIN: Yagona haqiqat – hayotning o‘zi

1962-yilning 2-mayida Andijon viloyati Izboskan tumanidagi Jonobod qishlog‘ida tug‘ilgan. Toshkent davlat universiteti (hozirgi O‘zMU)ning jurnalistika fakultetini tamomlagan. “Yalpizli kecha” (1993), “Hur nido” (1996), “O‘limning rangi” (1998), “Sen bilan qolmayman”

(2002), “Erkagi bor uy” (2005) kabi she‘riy va nasriy asarlari, “Xayyom” va “Tegirmon” nomli tarixiy romani nashr etilgan.

A.Kamyuning “Kaligula” asarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

Eng qiyini – biron narsaga o‘zingni ishontirish.

Eng yomoni – aldanish.

Men o‘zimni avval ayab, “yaxshi ko‘rib” tahrir qilardim. Har bir voqea, so‘z o‘yini “qadrdon” tuyulardi. Keyin “shafqatsizlashdim”. Buni Erkin A‘zamdand o‘rgandim.



Yirik asar uchun to‘qima obraz juda zarur. Ayniqsa, tarixiy asarda. U bosh qahramonning obrazini to‘laqonli chizib berishda asqatadi. Faqat to‘qima obrazlarni unga munosib qilib yarata olish kerak.

Sevimli bo‘lmoq uchun sevish kerak.

“O‘zbek tanqidchilari yulduzlarga o‘xshashadi – faqat tunda ko‘rinishadi. Yana kulib boqqanlargagina jimirlaydilar.

Har bir davr yozuvchisi, shoiri So‘z(lar)ning yangi jilvalarini kashf etishi kerak. Agar kashf etmas ekan, til boyimaydi. Shuning uchun yozuvchining zimmasida ulkan mas‘uliyat turadi. Axir, tilsiz millat ham yo‘q.

Yozuvchi hammani
boshqaradi, dunyoni boshqaradi
– xuddi qahramonlari kabi.
Shuning uchun ham uni hurmat
qilish kerak.

*Adabiyot – najot. Nega? Chunki
u o'z mazmun-mohiyati, so'zdan
iboratligi bilan insoniyatning
Tangriga iltijosi, tazarrusiga
o'xshaydi.*

*Tavba-tazarru esa ishonchli
najotdir.*

Zo'rmisan, hukm aytishni raqibingga ber!

Bu dunyo baxt ishlab chiqaruvchi korxonaga emas.

*Inson hech qachon mutlaq adolatli
bo'lolmaydi. Mutlaq adolat Xudoda. Odam
hamisha biryoqlamalikka mahkum.*

*Aslida yozging kelsa-yu yozolmasang – bu haqiqiy
yozuvchining ko'yi.*



Kitob – vaqt mundarijasi.

*Buyuk yozuvchilar buyuk yolg'izlardir.
Tafakkur bilan yashaguvchi inson borki,
yolg'izlikka mahkum. Chunki dunyoning, hayotning
mohiyatini anglab borgani sari odamlardan ajrala
boshlaydi.*

*Bu olamda birgina haqiqat
bor – bu hayotning o'zi. Qolgan
narsalar uning unsurlaridir.*

*Eng avvalo, adabiyot har qanday xalqning
ma'naviy va tafakkuriy salohiyatini belgilaydi.
Adabiyoti buyuk xalq chindan ham buyuk va
qudratlidir. Boshqa barcha san'atlar adabiyot
tevaragida, uning asosida shakllanadi, rivojlanadi.*

Eng baland pardada kuylay hayotni...



Akmal TURSUNOV

1988-yili tug'ilgan.
Toshkent davlat
iqtisodiyot
universitetida tahsil
olgan.

Lola


Bir azobda toqqa chiqsam bahorda,
Qiqirlab turibdi tog'ning lolasi.
Lola, meni yerga urma bekorga,
Anoyimas, menam tog'ning bolasi!

Egilganim to'g'ri sening poyingga,
Chiroying deb bo'ldim men rosa xarob.
Shu jabrlar haqqi, qizil jomingga
Lolajon, quyib ber bir kosa sharob.

Sipqorib tin olsin bu halak jonim
Yaproq-kokilingni labimga bosay.
Qizil bo'yanganing – bu jigar qonim,
Yuzim rangini ham olding-ku toza!

Tiz cho'kib o'paman yaprog'ing, mazza,
Sen yal-yal ochilgan, men tili duduq.
Bir silkinib qo'ysang jahonim larza,
Bir siypalab qo'ysang, jonim tasadduq!

Qo'lim tekkizmayman, bo'lma xavotir,
Sen qiqirlab tursang, qandoq yulaman?
Har bahor qoshingda bo'laman hozir,
O'lsam, huzuringga kelib o'laman!



Xonqizi

Xonqizi, kel, xonga kuyov bo'layin,
Sen bilan yashnasin bog'im, xonqizi!
Faqat qaliningni qandoq to'layin,
Bisotim yetmaydi chog'i, xonqizi!

Derlar kambag'alni ori o'ldirar,
Onam der: shashtingdan qaytg'in, jon qo'zim!
Chorig'imni sudrab borsam kuldilar,
Zar libos sevgini bo'g'ar, xonqizi!

Qop-qora xollaring biram yarashgan,
Boqsam ko'nglim bayram, egning qip-qizil.
Noshudman topmoqqa tengin adashgan,
Sen kim-u men kimman o'zi, xonqizi!

Siylov malikaga yarashar, axir,
Men ham Yaratganning yakka, yolg'izi.
Bir marta kaftimga qo'nib suyuntir,
Qo'limni qaytarma faqat, xonqizi!

Xonqizi, kel xonga kuyov bo'layin...

Sharhsiz umr

Ko'zim qotdi. Tilim qotdi. Qo'lim qotdi.
O'zimni aldashga qolmadi hojat.
Yitdi ko'ksimda in qurgan xavotir,
Xashaki tut chiqdi men ekan ko'chat!

Xayrixoh izladim: zarang yerdagi
Majnuntol bosh iring'ab qo'ydi ohista.
Oy menga javradi o'zin ertagin,
Soy menga "davom et" dedi oqishda.

Jo'yaliroq bilib soyning o'g'itin,
Oqishga tutindim xiyla sharqiroq.
Men ovoz sozladim toshlar yiqitib,
Bori shu – umrimning bo'lak sharhi yo'q!

Oshiq

Tomirimda jo'shqin qonlar gupurdi
Yashashga muhabbat, ishqqa tavoze.
Oshiqlar xokini ko'zimga surtdim
Zaminiy hislarim bosdi tarozi.

Tashvishga qo'l siltang!
Bari jo'n, odmi:
ketmonmas rubobni tutqazing menga.
Eng baland pardada kuylay hayotni:
har on Parvardigor tuhfasi menga.

Ranj-u sitamlarga zarra o'rin yo'q,
Qalbmida doira sadosi yangrar.
Ko'kni davra olib aylanadi ruh,
Yer tepinib o'ynar har bir hujayram.

Ko'nglim, olamga boq, naqadar ko'rkam,
Haqning tajallisi mo'r-u maysada.
O'zingdan balandroq yashashni o'rgan,
Go'zallik topa bil hamma narsadan.

Do'stim, kel, eskitdan borki bir jumla –
Hayot sharobini baham ko'r degan.
Yashashni bosh-oyoq jumboqqa ko'mma,
Haqiqat aks etar kosa sirtida.

Sinovlar achchig'i tilimda novvot
Haqqa zohidona ishqimni kuylam.
Yalangoyoq qolsam hamki, umrbod
Oshiqlik to'nini egnimda qo'ymam!

* * *

Oshiq odam uzolmaydi gul,
Boqib bahra oladi, xolos.
Qo'ldan kelgan yomon ishi shul –
chertadi tor,
yirtadi qog'oz!

Oshiq odam buloq suviga
Oyog'ini chaymaydi hecham.
Daryoni nazr etib so'figa,
Oftobada yuz yuvar – tejab.



**Charos
NIZOMIDDINOVA**

1994-yili tug'ilgan.
O'zbekiston milliy
universitetining jurnalistika
fakultetini tamomlagan.

*Men bu yoqda o't yoqsam, Farg'onada tutuni,
Bu dunyoda bormikan, yurak-bag'ri butuni?*

Qo'shiqdan

– Toshkan yetib borsang, sirkka kir. Tag'in buvim aljirayveradi, miyasi aynigan, deb kirmay qo'yma! Suratga ham tush! Dum-dumaloq, ko'k gumbazi uzoqdan ko'rinib tursin, shunda chiroyli chiqadi. Keyin nimalar ko'rganingni, aytasan, buving qoqindiql!

Har gal ta'til tugab, saraton o'rnini mezonga bo'shatishni xushlamay turgan palla shaharga otlanganimda ikki uy naridagi qo'shnimiz Gulsum buvi yo'limga ko'ndalang chiqib, shu gapni takrorlayveradi. To'rt yilki, bir xil topshiriq: "Toshkan borsang, sirkka kir! Suvratga tush, kulib, jilmayib tush! Ko'k gumbazlari ko'rinib tursin!". Men ham o'jarmanmi, yo ters ish qilishga moyilroqmanmi, xullas, to'rt yildan beri Gulsum buvini ana-mana, deb aldayman. Bahonalarim ham tayyor: darslar ko'p, imtihon yaqin, domlalar qattiqqo'l, sirk o'qishimdan ancha uzoqroqda... Aslida, o'n ikki yoshimda qishlog'imizga bir kelib, hafta-o'n kun tomosha qo'yib ketgan vodillik dorbozlarning o'yinidan ta'sirlanib, ularga taqlidan baland ayvonimizning tik ustuni bilan undan xiyla naridagi yo'g'on o'rik daraxti orasiga og'ilxonadagi arqonni tarang tortib, o'zimcha dorbozlik qilmoqchi bo'lganman-u, ikki

SIRK

(Hikoya)

qadam qo'ymayoq toshdek qattiq yerga gurs yiqilib, oyoq-qo'limdan taxtakach qirq kuncha olinmagan. Shundan buyon dorboz, dor, desa ko'z o'ngim lopillaydi. Sirkda ham dorbozlar, balandda tomosha ko'rsatadiganlar bor.

Gulsum buvi esa qo'rquvimdan bexabar "Sirkka kir!" degani degan. Qo'limga olmaqoqi, mayiz, turshak, picha yong'oq solingan mushtdekkina xaltachani qo'yarda-qo'ymay tutqazib, albatta, sirkka kirishimni, suratdan ikki dona keltirishimni qayta-qayta tayinlaydi.

Har gal buvining quvonchdan masrur, boladek beg'ubor ko'zlariga tikilsam, yolg'onlarimdan uyalaman. Ularda uzoq yillar yaqinining diydoriga mushtoq yashagan, bora-bora sog'inchi saryog'dek to'g'nab qolgan ma'sumaning dardi, birovga aytolmagan sirlari pinhonligi ba'zan lop etib qaroqlarga sizib chiqadi, keyin tezda qorachiq tubiga cho'kib loyqa suvdek tinib qoladi. Quyuyq ajinlar buvining manglayi, qovoqlari, shalvirab qolgan yonoqlari, qaltiroq qo'llariga chippa yopishib, enlab, yoyilib ketayotgani nechukdir odamning rahmini keltiradi. Mushtdek jussasi, xiyol enkayib yurishi, bukchaygani sari yelkasidagi bilinar-bilinmas do'mpayib turadigan bukrisi yuragingga tuz sepgandek achishtiradi. Kunda kunora bir piyola tut shinnisimi, suzma, uch-to'rt hovuch turshak, jyda ko'tarib, onamni yo'qlab kelganida buvining

qaddi yanayam bukchayib, go'yo poyi-qadamiga salom berib, qulluq qilib yurayotgandek tuyuladi. Qarilikning og'ir, ko'pchilikka tanish, hadeganda dimog'ingdan ketmaydigan, bolaligingda bobongning xonasiga kirganingda gup etib urilib, burningni xiyla achishtiradigan isini tuyqus sezasan. O'sha lahza ko'z oldingda do'mpayib turgan qabrlar, hali mayit qo'yilmagan, lekin og'zi o'radek chuqur go'rlar lopillaydi. Iching shuvillab ketadi. Boyagi isdan eting junjikadi, buncha sovuq bo'lmasa deb, badaningga suvchechakdek toshgan vahm yarasini tezda unutishga urinasan. O'lim sharpasi hamisha ortingdan ergashib, umring poyoniga yetib, safaring qarigan chog' bolalikdagi o'rtoqdek uyingga so'ramay-netmay, hech istiholasiz: "Hoy, o'ynamaymizmi? Ketdik!" deya kirib kelayotgandek bo'laveradi.

Gulsum buvini har ko'rganimda o'lim bilan hayot oralig'ida hali ham shashtini so'ndirmagan, yashashga muhabbati zo'r, ajalni shirin so'zi bilan avrab, izmiga solayotgan ushoqqina kampirning suvrati chiziladi tasavvurimda. Mana, buvi ham saksonni daraklab ketayotgan bo'lsa ham hali kuch-quvvatdan qolgan emas, bukrilari jussasini yanayam kichraytirib ko'rsatsa ham ichida allaqanday kuch, tashqariga chiqib ketolmayotgan olov borligi bilinadi.

Lekin nima qilay? Buvining iltimos-o'tinchi deb hamma ishimni yig'ishtirib, sirkka kirib yurmayman-ku! Qitmir kursdoshlarim sirkka kirganimni bilsa, butun umr hazil-mazaxga mavzu topiladi. O'zi sirkka nega tushishim kerak?

Buvining bu qadar sirkka yopishib olgani, meni ko'rsa, tilidan sirk so'zi tushmasligining sababini bilmayman. Bilishga xushim ham yo'q. Televizorda ko'rgan yo birov-yarimdan qiziqroq gap eshitgan bo'lsa, balki, shungadir, deyman-u, u yog'ini o'ylashga erinaman. Yoki shaharga yolg'iz men borib-qaytganim uchunmikan? Yo'q, unday desam, Sharif nisholdachi har oy qand-qurs uchun atayin shaharga boradi-ku! Bolalari-chi, nega ulardan so'ramaydi? To'ng'ich o'g'liga aytsa, masala hal. Unga shahar chikora. O'jar, qaysarligini aytmasa, zavqi qo'zib, ahdi qat'iylashsa, dunyoning narigi chetiga ham hayyo-huyt deb, sira o'ylamay jo'nayveradiganlar

xilidan. Otasi Abbos polvonning o'rniga qolgan, g'irt o'zi – ikkinchi nusxasi, deyishadi. Qizlardan foyda yo'q – hammasi uyidan uchirma bo'lgan-ketgan. Kenja o'g'li ham besh-olti yil avval "Pul topib kelaman" deb badar ketgan. "Sog'-omonman, tirikman. Xavotirlanmanglar" degan ikki kalom xabar ham yo'q.

Baribiram, kap-katta ayol bolalarcha qiliq qilsa... yarashmaskan.

O'qishning oxirgi yili emasmi, hammamizga sinov uchun chet qishloqlarda amaliyot o'tash uchun yo'llanma tutqazildi. Men ham uch kursdoshim bilan chekka hududlardan biriga biritirildim. Oltinchi sinf o'quvchilariga tarixdan dars berishimiz kerak. Qish oxirlab, ko'klamning gali kelsa-da, yerlar hamon zarang edi. Tuproq yumshamagandi. Ko'k unib, doshqozonga sumalak, halim osilishiga hali ancha bor. Jo'nashdan avval birrov qishloqqa borib, ota-onamni ogohlantirib, tut talqon, olmaoqqi, turshak, mayiz, yong'oq olib qaytaman deb, yo'llanmani hamrohlarimga berdim-da, o'zim yo'lni bu yoqqa burdim.

Qishloqqa kiraverishda Gulsum buvi uchramasaydi, deya o'pkamni qo'ltiqlab, jadallashaman. To'g'ri yo'lga burilmay, atay uzoqroq, Gulsum buvining uyiga ters so'qmoqni tanlayman. Teraklarning shir yalang'och tanasiga termulib, ertangi ishlarni xomcho'tlab ketayotganimda, Gulsum buvi hidimdan sezadimi yoki qadam olishimni biladimi, haytovur, "Bolam!" degan chaqiriqdan joyimda taqqa to'xtadim. Nochor iljayib, keksalikning hurmatini qilib darrov ortimga burildim. Og'zimni mushtim bilan to'sib, jo'rttaga yo'taldim. Chap qo'limdagi yuk xaltamning bog'ichlarini asabiy g'ijimladim. Xayolimdagi ming bahonadan qay birini tanlashga ikkilanganicha rost bilan yolg'onning orasida qovrilib turaverdim. Kayfiyatim buzildi. Nega buncha qiynashadi-ya odamni! O'zi fe'lim shunaqa – birovning iltimosiga ha, xo'p, deyman-u, qo'limdan kelmasa ham sudrab, iltimoschini mahtal qilib yuraveraman. Shartta-shartta aytib, issig'ida yo'q deyishga botinolmayman. Mana, oxir-oqibat, jazzasini o'zim tortib yuraveraman.

Gulsum buvi asta-ohista, lekin tez yurib, yuzi yorishib oldimga yaqinlashdi. Xursandligidan qaddining bukchaygani ham bilinmaydi. Ajinlari ham tekislashgandek. Qisiq qovoqlari xiyla kengaygan. Obdon so‘rashdim. Buvini chalgitish uchun gapni boshqa tarafga burishga chiranganimdan peshonamni sovuq ter bosdi – ko‘ylaklarim jiqqa suv. Qani, endi tezroq so‘roq-savoldan qutulsam-u, yengillashsam. Bo‘lmaydi. Gap aylanib-aylanib, yana o‘sha sirkda taqqa to‘xtadi.

– Hay, buving cho‘ri! Sirkka kirdingmi? Suratga ham tushdingmi? Nimalarni ko‘rsatishdi? Oppoq otlar dumaloq sahnada gir-gir aylandimi? Artistlari-chi, rosa o‘ynagandir, a? Nimaga gapirmaysan? Ayt-da mundoq! Kelguningcha ko‘zlarim teshilib ketdi-ku!

– Kirdim, kirdim, – deyman yolg‘ondan. – Aytganlaringizning hammasini ko‘rdim. Zo‘r! – bosh barmog‘imni ko‘chada shataloq otib o‘ynaydigan boladek tikka ko‘taraman. – Qoyillatib o‘ynashdi o‘ziyam. Lekin... suratga tushish esimdan chiqibdi-da, buvi. Kechiring!

– Iya, iya, – deydi buvi ust-boshimga sinchkov tikilib. – Nega? Aytmovmidim tushgin deb?

– Aytuvdingiz, har doim aytasiz, lekin imtihonlar, keyin amaliyot, deb tamom unutibman. O‘qish qiyinligidan xotiram ko‘p qiynayapti o‘zi. Hozir ham shoshib turgandim, buvi. Ertaga ketaman. Shunga ota-onamni, uka-singillarimni ko‘rib qaytay, deb zo‘rg‘a javob olib kelayapman, – dedim gapni tezroq tugatish ilinjida.

– Sirkda nimalarni ko‘rsatishdi? – buvi bahonalaringizga parvo etmay, o‘zigagina qiziq mavzuga qaytadi yana.

Gulsum buvi yolg‘onlarimga ishonadi, keyin-chi, keyin nima bo‘ldi, deyaveradi. Men ham bormagan joyimni borgandek, televizorda ko‘rganlarimni misoli o‘ngda ko‘rgandek, bo‘rttirib, bo‘yab-bejab so‘zlayveraman. Tilim g‘uldiragani sari buvi maktab partasida o‘tirishga o‘rganolmayotgan qizaloqdek kaftlarini bir-biriga shap-shap urib, emasam-chi, shunday bo‘ladi-da sirk, shunaqa, aytmovdimmi, deydi mamnun. So‘ng ko‘zlarida g‘iltillagan yoshni ro‘molining uchi bilan



sidirib, men noshudni uzundan-uzun duo qiladi. Kaftlarini yuziga surtgach, shosha-pisha yupqa kamzulinig cho‘ntagini kovlaydi. Bir hovuch qurti kaftimga to‘kib, mukofoti bu, mukofoti, deganча o‘z yo‘lida ketadi.

Yelkamni zambardek bosgan azobdan qutulgandek, tanam bo‘shashadi. Ko‘z oldim jimirlaydi. Buvining ortidan tikilib, andak serrayib qolaman. Bekor qildim, rostini aytsam bo‘lmasmidi, deyman o‘zimni-o‘zim yanib. Ichimni it timaydi. Qay kunjakka berkinishni bilmayman. Qo‘limdagi bujur qurutlar kaftimga botib, barmoqlarimni kuydirgandek tuyuladi. Keyin... yolg‘onimdan taskin izlab, uyga shoshaman.

– Aya, – deyman xufton mahali so‘rida onam ikkimiz yolg‘iz qolgach. – Nega Gulsum buvi har gal shaharga ketarimda sirkka kirishimni tayinlayveradi. Tavba, yoshi bir joydagi buvi-yu, gap-so‘zlari boladek, a?

– Hm, – deydi onam yirtiq-yamoq kiyimlarni chatishdan bosh ko‘tarmay. – Buvimi... – deya andak tin oladi. – Bekor aldabsan. Yaxshimas...

– E, jonimga tegdi! Har gal ko‘rsa, shu gap! Bir tomonda darslar, qahri qattiq professorlar uyqungda ham tinch qo‘ymasa, kutubxonadan tashqari chiqolmasang, ko‘ngil yozgani kino-pinoga, konsert-tomoshaga tusholmasang-u, hammasini qo‘yib, sirkma-sirk lallayib yursang. Kamiga iljayib rasm oldirsang! Go‘dak bola qivorishdi-ku, a? – o‘zimni oqlashga har tarafdan dov-dastak izlayman.

– Baribiram, aldamaslik kerak edi, – onam ovozini balandlatdi. – Endi tuni bo‘yi yig‘lab chiqadi buvi sho‘rlilik.

– Hech bir kampir shu choqqacha sirk dardida bunchalar kuyib-yonganini eshitmabman, – atayin peshonamni tirishtiraman.

– Buvining ko‘rgan-kechirganlarini eshitganingda edi, bunaqa demasding... Keyingi gal o‘qish, ishingdan ortib, kir o‘sha sirkka. Rasmgayam tush!

– Nega buvi sirkni buncha yaxshi ko‘radi? A? O‘g‘il-qizlaridan birortasi olib borsa bo‘lmaydimi? Nevaralari o‘zlaricha osmon-ku!

– E-e, bolalari olib boraylik, deb necha bor yalinishdi. Buvining o‘zi ko‘nmaydi. Rahmatli erining ruhidan hayiqadi. Sirkka borsam, Abbos polvonning qarg‘ishi uradi, ikki dunyoyim kuyadi, deydi haligacha. Emasam, cholining qaytish qilganiga yigirma yildan oshdi.

– Sirkka bola borsa yarashadi, lekin qari kampir “Sirk, sirk” deb tursa, g‘alati bo‘larkan.

Onam gapimga beparvo boshini tikish-bichishidan xiyol ko‘tardi-yu, chuqur tin oldi. Keyin ko‘zlarimga o‘ychan tikilib:

– Aytishlaricha, bir zamonlar Abbos polvonning davr-u, davroni avjiga chiqib, qishloqda zo‘rning zo‘ri bo‘lib tanilgan chog‘lari shaharga tez-tez boradigan odat chiqaribdi, – dedi mahzun. – Kim so‘rasa, shaharliklar to‘yiga chaqirayapti, dermish. Bir kuni qabatida qiz olib qaytganida, gap nimadaligini hamma ilg‘ab, zimdan kulibdi. Dong‘i shaharga tarqalgan dorboz buvaning otdan otga sakrab o‘yin ko‘rsatuvchi qizini o‘g‘irlab, otiga o‘ngarib qaytganini eshitmagan quloq qolmagandi hisob. Qizning ota-enasi qishloqqa zir qatnabdi, chor tomonga yuguribdi, polvon qizning tirigi tugul o‘ligini ham bermasligini aytib, darvozasiga katta qulf osib qo‘yibdi. Benihoya o‘r, qaysar, cho‘rtkesar edi rahmatli. Qizidan ko‘ngligini uzolmay enasi bechora yum-yum yig‘larmish-u, o‘rnidan qo‘zg‘alolmashmish. Sochlarini yulib, o‘zini yerga otib yig‘laganlari anchagacha og‘izdan tushmadi. Sho‘rlikkinaning holiga yig‘lamagan, oraga tushmagan qolmadi. Polvonni murosaga

keltiraman deb, zir qatnayverganidan rahmatli Raim oqsoqolning kalishi teshilgan deyishgandi buvilarim. Oxiri, jigarporasini qaytarolmasligini sezib, ota-ena kelgan yo‘liga bo‘zlab-bo‘zlab ketgan ekan.

– Buvi-chi? Chavandoz, kamiga otning tilini yaxshi bilgan qiz polvondan qochish evini qilolmasa? E, buvining ham ko‘ngli iligan, shekilli-da!

– Unday dema, tarbiyasiz! Uyalmaysanmi, birovga bilib-bilmay tosh otgani. Shaharda o‘qib, miyamning mag‘zi pishdi, tilim ikki qarichga o‘sdi, degin, – onamning rostakamiga jahli chiqdi. Chiroyli yuzi qizardi. Qovoqlari pir-pir uchdi. Qo‘lidagi g‘altakni asabiy o‘radi. Keyin xiyla o‘ziga kelib, yana davom etdi.

– Uff, ayolning zaifaligi qursin... Otdan otga sakrab o‘ynagani bilan buvi ham bir ojiza. Qo‘lidan nima ham kelsin, bolam. Gulsum buvi Abbos polvonning bir so‘zligi-yu, vajohati, qon tomgan qamchisidan qo‘rqib, avvaliga alamini yig‘idan olibdi. Keyin-keyin taqdiriga ko‘nibdi. Polvon bobo qizni o‘g‘irlab qaytgan tuni buviga Kalomullohni tutqazib, qasam ham ichiribdi: “Qayta ot minsam, tomosha maydonini o‘ylab yurak-bag‘rimni ezsam, xesh-aqrabomni qo‘msab, ko‘zyoshi to‘ksam, polvon yuziga qora surtib, qochishni o‘ylasam... palon-pismadon bo‘lay”.

Oh, buvini kelinligida ko‘rsang edi... Biz unda jamalaksoch qaqajonlar edik. Ko‘chadan o‘tganida qalampirmunchiq bilan rayhonning hidi chor tarafni tutardi. Sochpopuklaridagi tangalar jiring-jiringlab, tinchimizni o‘g‘irlardi. Birinma-ketin o‘g‘il-qizli bo‘ldi-yu, qishloqdan nariga chiqolmay, tim qora sochlari fe‘li tez, qo‘li darrov qamchiga yuguradigan polvon boboning xizmatida oqardi. Shungami, buvi bechora butun umr gung-soqovdek yashadi, otlarning dupur-dupuridan ichi so‘tilib ketsa ham tashida bilintirmasdi. Tomoshagohlar changini yutib o‘sgan qiz qishloqning g‘o‘zapoyasigayam, tappisi bilan achchiq tutunigayam chidadi. Biror marta Gulsum buvining taqdiridan kuyungani, o‘tgan umridan norozi ekani, eriga tik boqqanini na begona ko‘rdi, na tanish eshitdi. Bir sengamas, kim shaharga otlansa, o‘shaning yo‘lini poylab, sirkka kirishini

tayinlab-tayinlab qo'yadi buvi sho'rlik. Shuginaga ovunib, hovuri bosilsa kerak-da...

Onamning mungga o'ralgan ovozi uzoq-uzoqlardan eshitilayotgandek edi. Ko'z o'ngimdan buvining yosh bolalardek chapak urib, yolg'onlarimni hayrat bilan tinglayotgani o'tdi. Ehtimol, o'shanda otlarning dupurini, dorbozning osmon o'yinlarini, vahshiy hayvonlarning sohibiga itoat etib, tomosha ko'rsatishini entikib eslagandir. Balki, aka-ukalari, opa-singillarining qabatida dorboz otasining tanbeh-dakkilarini ko'zlarini yerga qadab eshitganlarini xotira tasmaidan o'tkazgandir. Otlari-chi, sahnani misoli oq bulutdek to'ldirib, yollariga osilgan qo'ng'iroqlarini jingirlatib, tinmay chopayotgan tulporlari-chi... sog'inganidan yurak-bag'ri ezildimikan?

O'y-xayollardan charchab, tunni oqartirdim. Ertaga tushga yaqin yo'lga otlanaman. Narsalarimni yo'lxaltamga zich joylab, yana xayol ichiga sho'ng'idim. Vaqt buncha shoshqin. Tun yana jichcha cho'zilsaydi, deymen pichirlab. O'qishni tamomlagach, qishloqqa qaytsammikan yo shahar tuzukmikan? Tarixchi-arxeologga shahar durust – o'sadi, unadi, obro' topadi, maoshi ham chakkimas. Hozirdan "Qishloqda qol, jiyanimiz malimlikka o'qiyapti, deb to'rt yildan baqqa gerdayib yurippiz", deyishadi. Agar shaharni tanlasam, malomatga qolishim aniq. Eh, yana bilmadim...

Beadad o'ylar girdobida subhi kozibda uyqu eltibdi. Tush ko'ribman. G'alati tush. Kelinni kuyovnikiga eltishga hozirlangan, yaltir-yaltur latta-puttalar bilan bezatilgan tulporda Gulsum buvi charaqlab o'tirganmish-u, nuqul qamchisini havoda o'ynatarmish. "Hammasiga sen aybdor, sen!" deya jonivorni hol-joniga qo'ymay qiynarmish. Keyin ot tinmay yig'larmish, bunga sari buvi qah-qah otib kularmish. Keyin osmon birdaniga gumburlab, atrofda yengil, tanni yayratadigan yoqimli shabada esibdi. Allaqaydan uchib kelgan qaldirg'ochlarga hushim ketib, buvi bilan yasatig'liq tulporni unutibman. Qushlardan ko'zimni uzib, yon-verimga qarasam, buvi allaqachon otini yetaklab, ancha olislab ketibdi. Quyosh chiqayotgan tomonga – sharqqa qarab ohista ildamlayotganmish... Chaqirsam,

ovozim chiqmas, yuguray desam, oyog'im yerdan uzilmasmish. Jon halqumida qichqirganimdan cho'chib o'yg'ondim.

Tashqariga otilib chiqib, toza havodan kappa-kappa, yutoqib nafas oldim. Xiyol o'zimga kelgach, ayvon ustuniga suyanib piq-piq yig'layotgan onamning ovozini tanib yuragim jig' etdi. Qovoqlarimni ishqalab, yuz-qo'limni tez-tez yuvib, onamning oldiga cho'kkaladim.

– Tinchlikmi, aya? Nima gap?

– Gulsum buvi... – deydi onam zo'r-bazo'r. – Berib qo'yibmi-i-iz...

* * *

Gulsum buvini tuproqqa topshirib, marakasi o'tgach, to'g'ri shaharga qaytdim. Amaliyot uchun chekka qishloqqa jo'nab ketgan do'stlarimning ortidan borishni chetga surdim. Ko'nglimda qilcha yorug'lik yo'q. Boshim xumdek shishgan. Ichimni nimadir, o'zimga ham begona hislar kemirgani-kemirgan... Hali qilishim kerak ish bor. Avval o'shani saranjomlab, keyin o'z yumushimga unnayman.

...Dum-dumaloq sahnning aylanasiga terilgan o'rindiqlardan birida o'tiribman. Ko'zim navbatma-navbat mahoratini ko'rsatayotgan o'yinchilarda. Mana, nihoyat, tor doira ichra gir-gir chopishga o'rgatilgan oppoq tulporini minib, parimonand qiz o'rtaga chiqdi. Hammaga yengil ta'zim qilib, tomoshasini boshladi. Qizginaning bir otdan ikkinchisiga sakrab, mohir chavandozdek qars-qars harakatlarini kuzatayapman-u, xuddi ot ustida u emas, Gulsum buvi, bir zamonlar anor yuzli, qaddi novdadek tik, o'n yetti yoshli malak – oq tulporning haqiqiy sohibasi turgandek go'yo. Rostdan, tor sahnada qamchisini havolatib-havolatib Gulsum buvi o'ynayapti. Ana, otining qulog'iga nedir deb shivirladi. Jonivor ham dumini gajak qilib, sohibasining izmidan chiqmaydi. Tuyoqlarning dupurlashi yuragiga quvvat bo'layotgandir... Qars-qars chapaklar-chi, balki tomirlaridagi qonini gupurtirayotgandir. Ehtimol, shu atrofda Abbos polvon ham o'tirgandir, qizginani tulporidan, tomoshagohidan qanday ayirishni o'ylab, olib qochish ilinjida kiprik qoqmayotgandir...

ShE'R – GO'ZALLIK SINGLISI



Adhambek ALIMBEKOV,
*filologiya fanlari nomzodi,
dotsent*

Qo'limga bir yaxshi she'riy kitob tushib qolsa, fikri teran shoirimiz Maqsud Shayxzodaning "She'r chin go'zallik singlisi ekan..." she'rini eslayman.

*She'rsiz qalblarga achinaman men,
Ularda na tonglar kunduzin boshlar,
Na oqshom yulduzlar ufqin ochar keng,
Na bahor chog'ida sayraydi qushlar.*

Darhaqiqat, she'rga oshufta qalb bir yurt desak, uning tonglari, oqshomi, yozida qishida o'zgacha, har kunida fayz bo'ladi. Qalbi go'zal insonlar qancha ko'p bo'lsa, olam go'zallashadi. Umuman, so'z sehriga, soz nolasiga mast bo'lmagan, go'zal manzaralarni ko'rganda ko'zi yonuvchi insondan yomonlik chiqmaydi. She'r qalb mulki, mulk sohibida go'zal bo'lishi kerak.

Jo'rabek Jahonning "Ko'ngil poytaxti" she'riy to'plami yuqoridagi fikrlarni uyg'otdi. Kitobga "Ulug' o'zanlardan taralgan jilg'a" so'zboshisini yozgan O'zbekiston xalq shoir Sirojiddin Sayyid "Qat'iyat va rostgo'ylik Jo'rabekning dil uloviga aylanmog'i lozim" – deya shogirdiga ta'kidnoma istak bildirarkan adabiyotimizda iqtidorli shoir "bo'y berayotgani rost" bo'lishidan quvonasiz. "So'z ishqida", "Hayot manzaralari", "Umrim bo'yi ko'zlaringga termulsaydim", "Istiqloq

nomasi", "Adabiyot alifbosi", "Ey, ko'kdagi yulduzim" fasllariga ajratilgan to'plamga taniqli adabiyotshunos olim Suvon Meli "Jo'rlikka jahd" so'ngso'z yozgan. Muallifning she'rlarini mavzu mohiyatidan kelib chiqib fasllarga bo'lib berishi yaxshi. Chunki o'quvchida muallifning mavzuni yoritishdagi mahoratiga oid tasavvur to'liq shakllanadi.

Kitob mumtoz adabiyotga nisbatan an'anaviy yo'lda, zamonaviy adabiyotga nisbatan noan'anaviy yo'lda boshlanadi. Yosh shoir salaflardan o'mak olib to'plamini Oллоhga o'tinch bilan, "Iltijo" bilan boshlabdi. "Ko'nglimda yo'q tuyg'ularni yozdirmagin" deya o'tinadi. Va siz shoir ko'nglida borini yozibdimi, yoki iltijo bilan to'xtab qolibdimi deya kitobni varaqlay boshlaysiz.

Shoir dilidagi dardini yorish uchun so'zlarga murojaat qiladi. U maqtanmaydi, aksincha, ko'ngildagidek so'z aytolmasa, o'ziga o'zi qoyilmasman deya koyinadi, ya'ni o'zini izlovga yo'naltiradi. "So'zlar" she'rida shoirning so'zdan tilka ruhiyati, ko'nglida borini aytolmasdan turolmasligi, shoirning xislati ekanligi yaxshi berilgan. Muhimi shoir so'zni Sizlaydi, o'zidan yuksak deb biladi. So'zga munosabatda ko'rinada shoirning kimligi. "Yasholmasang kerak men bilan" singari she'rlari, "Adabiyot alifbosi" kichik dostoni ham mohiyatan so'z sharafiga

bitilgan asarlardek taassurot qoldiradi. Shoir dunyoni so'zlarda ko'rayotgandek. Azalda kalom bo'lganiga ishora bordek. She'r dardida yuragini g'ijimlagan shoir "Ko'ylagimning dazmoli tekis, uvalanib ketgan faqat jon" qiyosini topadi. Kimgadir bu zo'r tashbehmasdir, ammo she'r ishqida uvalangan jonni his qilish kerak.

Lirik she'r ruhiy holatning mahsuli sifatida yuzaga kelar ekan, shoimning holati o'quvchiga ta'sir qilishi, uning xayolot dunyosini boyitishi, estetik zavq berishi bilan birga fikrlashga ham undovi darkor. She'rda fikr va tuyg'u uyg'unligi quyilib kelishi kerak. Fikrni topib, shakl izlansa yo shakl topib fikr izlansa mutanosiblik buziladi. Har qanday yaxshi she'r shakl va mazmun omuxtaligida tug'iladi. "Vazifa"dagi vazifaga qarang: "Buyurilgan eng og'ir yumush - yashash kerak o'xshab insonga" misrlarini o'qiganda haqiqiy inson bo'lib yashash odamga qanchalik vazifa yuklatishini yana bir bor anglab yetamiz. "Yolg'izlik"ning ko'z ilg'amas, ammo yukli jihati:

*Shirin so'zlar aytib o'zingga,
Soyang bilan nonushta yeysan.
Ishdan qaytib kelgach paltoga,
Boqib "Sizni sevaman!" deysan.*

Shoir holat bilan ruhiyatni berayotir. Yolg'iz kishining uyidagi oddiy manzara tasviri orqali uning kayfiyati, kayfiyat ichida orzularini sezdirayotir. "Qanday yupatishni bilmayman, tavba" misrasi bilan boshlanuvchi she'rda yomg'ir haqida so'z yo'q. Zukko o'quvchi "odamni yupatish mumkindir, do'stlar, Osmonni yupatib bo'lmaydi" yakuniy satrlaridan tinimsiz yog'ayotgan yomg'ir vaqtini yig'layotgan osmonga qiyos qilingani va lirik qahramon yupanch so'zlarini aytisada osmonni yupata olmayotganini his qiliasiz. "Orol" she'rida ham dengizlarning "Ko'ngli qolib butun insoniyatdan" chekinayotgani dunyoda odamlar bir-biriga qilayotgan zo'ravonlik, urush-u axloqiy noqisliklar aytilmasdan aytiladi. "Soya bilan suhbat", "Hovlidagi dor" kabi she'rlarda narsalarni jonlidek tasvirlab, masalan: hovlidagi kir dori

bilan dorboz o'ynaydigan dor va boshqa dorlarni qiyoslanar ekan, "Har holda bosmaydi ustidan", "odamlarni osishmas unga, va yiqilib tushmas hech kimsa" misralarida shoir qiyoslarining mohiyati anglashiladi. Siz o'ylamagan tomonlarga fikringizni tortishi ko'rinadi. Kuzni yoshi o'tgan bahorga qiyoslash ham esga kelmaydigan topildiqlardan. "Qishni sevar manov daraxtlar", "Sharf", "Marosim" singari she'rlarda yangi topilgan qiyoslar ko'proq salbiy jihatlarni ko'rsatishga qaratilgandek. Masalan, sharfning sirtmoqqa o'xshatilishi. Bunday she'rlarda holatga yangicha qarash sezilsa-da o'quvchi ruhiga musbat ta'sir qilishi mumkin. She'rdan esa ijobiy ta'sirlangan ma'qul. Lekin baribir shoimning o'zgacha qarashini his qiliasiz.

*Qorachig'im tirnar qorachiqlaring
Qorachig'laringda bor achchiqlaring.
Ko'zlaring bunchalar chiroyli desam,
Yuzingni berkitib achchiq yig'lading.*

*Boshladingmi endi og'rir boshlaring,
Nigohlarim kesib tashlar qoshlaring.
Kaftlarimda tutib qolmoqchi edim,
Buncha og'ir ekan, jonim, yoshlaring.*

Shoir alleteratsiya – tovushlar takrori, uyg'unligi asosida ohangdorliknigina kuchaytirib qolmaydi, so'zni o'ynatib ma'no yuklaydi. Natijada ifodaviylik ortadi. Ko'z yoshining og'irligi bo'lishi mumkinmi. Bunday og'irlik mazmunda, ya'ni shoimning suyuklisi ko'z yoshlariga bo'lgan munosabatda. Bu munosabat muhabbatdan kelib chiqadi.

Jo'rabek yozgan sevgi mavzusidagi she'rlarda ortiqcha "o'ldim-kuydim" yo'q. Jo'rabek Jahon mavzuga boshqacharoq yondashadi. Fikrlar detallarda, uzvlarda izhor qilinadi.

*Men sizni sevaman!
Ishonmasangiz,
Uyimning kalitin beraman sizga.
Men yo'q paytimda ham borib ochsangiz,
Ilgichlarda osig' turar baxt...*

Yoki yana bir she'rida xijron
azobini tasvirlashiga e'tibor
qilaylik:

*Sen ketding...
Yenglarim silkib qo'l,
Ayriliq azobin angladi.
Shu kuni...
Ko'ylagim buncha ho'l,
Yig'ladi, yig'ladi, yig'ladi.*

*So'ng seni eslatib surating,
Oxiri sarg'aydi g'azabdan...*

Yengning qo'l sitashi, ko'ylakning yig'lashi, suratning sarg'ayishi shoirning jonlantirilgan ramzlarda aytayotgan dil izhori, dardlariga ishorasidir. U "men" demayapti, xuddi shu bilan g'ururini ham toptamayapti. "Istak kuchi", "Meni sevasanmi?", "Tong otmoqda...", "Salom ayt mang" she'rlarida ham ana shunday ichkin holatlar o'ziga xos tasvirlanadi.

To'plamda bolalarga bag'ishlangan she'rlar borligi meni quvontirdi.

*Hamma harfni o'rganib,
Ko'ngil qo'ydim kitobga.
Assalom deb xat yozib,
Jo'nataman oftobga.*

Yoshlar ichida shoirlar ko'p, bolalar shoiri kam. Ajabmaski, kelajakda Jo'rabek bolalarga atab yaxshi she'rlar yozsa. "Irodaga", "Yangi yil" she'rlari bunga umid uyg'otadi.

Jo'rabek Jahon fikrlarini obrazli qilib aytishni xush ko'radi. "Do'stlarim cho'kib ketgan, odamlar orasiga" kabi.

"Ona yer" deb boshlanuvchi she'rdagi: "Ho'l emas kul qilar ko'z yoshing-vulqon", "Oy ham homilador bo'libdi kecha", "Ana, tinog'ingda qotib qoldi qon", "Turnalar uchmoqda baxtni opichlab", "Yulduzlar – Qorqizning muzlagan yoshi", "Ish tashlasha boshlar yaproqlar g'ij-g'ij", "To'kilganda yulduzlar rangi, Kun lashkari keladi yaqin" misralari yosh shoirning chiroyli tashbehtar topish yo'lidagi izlanishlardan darak.



Jo'rabekning she'rlaridagi yana bir jihat falsafiy fikrlashga moyillik kuchliligidir. "Odamzotning ajdodi maymun", "Otamning ko'ziga...", "Shafqat va go'zallik", "She'r va surat", "Falsafa" she'rlarida bu yaqqol seziladi. Bunga e'tibor qaratganim yoshlarda falsafiy mushohadalarga

intilish nisbatan kam bo'ladi.

To'plamdagi ayrim she'rlar haqida tanqidiy gaplar ham aytish mumkin. "Evrilish", "Ruh she'ri", "Yangi yil oqshomida" kabi she'rlarda fikrni maromida aytaolmaslik seziladi. Ba'zi she'rlar yurak amri bilan emas, maxsus yozilgandek taassurot qoldiradi. Ko'p uchraydigan qofiyalanish tarzi ham bor. Lekin yoshlarga yaxshi niyatda, ijobiy tomonini bo'rttirib yondoshgan durust. Chunki ular oldinda ko'p o'rganadilar. To'plamdagi g'azal yozishga intilish, "Maktub" singari Pushkinga o'xshatmalarning bo'lishi yosh shoirning izlanishlaridan dalolat.

Biz maqolada so'ngso'zda tahlilga tortilgan she'rlar xususida gapirmadikkim takror bo'lmasin deb.

Umuman, Jo'rabek she'rlarida yoniq his bor. Qalb bor. Zo'raki yozilgan she'rlarimas. Ko'nglida borini qog'ozga to'kadi. Borlari ham turfa bo'lishi tabiiy. Ammo yaxshimi-yomonmi o'ziniki. Jo'rabek to'plamini "Ko'ngil poytaxti" deya nomlabdi. Birinchi kitobi "Tuyg'ular shaharchasi" edi. Shaharchadan poytaxtga ko'chgandek shoir she'rdan she'rga o'ssin. Mening nazarimda shoirning ko'ngil poytaxti she'riyat. Jo'rabek Jahonga she'riyat poytaxtingiz poydor bo'lib, o'zingiz ham shu poydorlikka sodiq qoling, degim keladi.

O'zi yozganidek:
*Mo'jiza yarating!
Mo'jiza kutmang!*



**Dilnoza
RUSTAMOVA,**

*O'zbekiston
Respublikasi Fanlar
Akademiyasi Alisher
Navoiy nomidagi
Davlat adabiyot muzeyi
stajyor-tadqiqotchisi.*

Karantin mutolaasi

“Ijtimoiy masofa” – shu ikki soʻz butun dunyo odamlarini bir-biridan ajratib turgandek. Bu biz oʻrgangan odatiy, erkin hayot emas, butunlay yangicha yashash tarzini taqozo etmoqda. Mart oyidan boshlangan karantin davri inson faoliyatini oʻzgartirib yubordi. Endi unda vaqtini toʻla oʻzi iroda qilishga imkoniyat paydo boʻldi. Yoshlarning hayotiga befarq boʻlmagan “Yoshlik” jurnali esa ularning vaqtini toʻgʻri taqsimlayotganliklarini bilish maqsadida “Men sevgan asar” nomli insholar tanlovini eʼlon qilgandi. Salkam ikki oy davomida tahririyatga kelgan 100 ga yaqin insho yigit-qizlarning nafaqat jurnalga, balki adabiyotga munosabatlarini ham koʻrsatdi.

Tahririyat tomonidan eʼlon qilingan tanlov oʻsmir-yoshlar oʻrtasida edi. Shunga qaramay bolalarning tanlovda ishtirok etishga bel bogʻlaganligi va oʻqigan asarlari haqida mulohazalarni yozib joʻnatganligi quvonarli. Shu bois, ularning yozganlarini ham tahlilga tortishga va oʻz munosabatimizni bildirishga qaror qildik.

Zamonning bir kishisi sifatida karantinning ilk kunidanoq ijtimoiy tarmoqlardan vaqtini uyda qanday samarali oʻtkazish mumkinligi haqida 3-4 ta taniqli nashrlarning tavsiyalariga qarab qoʻyaman. Hujjatli filmlar koʻrish, online kurslarda qatnashish, oʻzingizga notanish biror mashgʻulot bilan shugʻullanish, kundalik qoidalarga qatʼiy rioya etish, meditatsiya qilish kabilardan oldin kitob oʻqish tavsiyasi turadi. Hatto xorijiy saytlarda kitobxonlar uchun “Quarantine club”lar tashkil etilgan. Sababi uyda qolgan millionlarcha odamlar kuchli stress, xavotir

oqimiga tushib qolganda eng samarali yechim mutolaadir. Albatta, bunday paytda qanday kitobni oʻqish ham ahamiyatli. Ayni vaziyatda kitobxonlar qaysi asarlar mutolaasiga mashgʻul boʻlganliklarini tahririyatga kelgan ijodiy ishlar orqali bilishga muvaffaq boʻldik. Ularning eng yaxshilarini saralab olishga baholi qudrat urindik. Ijodiy ishlar avvalo yosh chegarasiga koʻra ajratildi.

Badiiy asar kitobxonning yoshiga mos tanlanganligi, uning nima haqida ekanligi, voqealar rivoji nimaga ishora qilayotgani, asar haqiqatga yaqinmi yoki aksincha, yozuvchi aytayotgan fikr oʻquvchi uchun nechogʻli ahamiyatligini ifodalay olganligi, qahramonlarning xarakter-xususiyatlarini tahlil qila olishi, boshqa asarlar bilan qiyoslay bilishi insholarni saralashda asosiy mezonlardan boʻldi.

10-14 yoshli ishtirokchilar ishlari asosan Muso Toshmuhammad oʻgʻli Oybek, Oʻtkir Hoshimov, Xudoyberdi

To'xtaboyev asarlari haqida yozilgan. Afsuski, ularda fikrlar xilma-xilligini uchratish mushkul. "Bolalik", "Dunyoning ishlari", "Sariq devni minib", "Besh bolali yigitcha" kabi asarlar kitobxon sifatida endi shakllanayotgan bu yoshdagi o'quvchi uchun foydali, ammo barcha qatnashchilarda aynan bir xil mavzudagi asarning tanlanishi, bizda hali ikki yo uchtagina badiiy asardan boshqasini tavsiya qila oladigan muallim va ota-onalar ko'p ham kitobxon emasligini bildirib qo'ydi.

Xorazmlik Bekberganova Zilolaning inshosida kitob mutolaasi, "Dunyoning ishlari" haqidagi boshqa yozuvchilar fikri, qissaning syujetiga biroz to'xtalinadi-yu, xulosada: "Bu asar onamizni sevish bilan birga, boshqa yaqinlarimizni ham qadrlashni o'rgatar ekan. Men O'tkir Hoshimovning bu asarini juda sevib o'qidim", deya yakunlanadi. Shu bois asosiy mazmun qisqa mulohazadagina iborat bo'lib qolgan.

Ayni shu asar haqidagi Shermetova Muniraning ijodiy ishida biroz bo'lsa-da o'ziga xoslik seziladi. Mavzuni real hayot bilan bog'lay olgan, ammo unda tahlildan ko'ra ijtimoiy hayot haqidagi odatiy jummalarga keng o'rin berib yuborilgan.

4-sinf o'quvchisi G'anisherning inshosini o'qib, fikrda erkin bu bolakayning rus sinfida o'qisa-da, o'zbek tiliga mehri balandligini sezasiz. U

"Sariq devni minib" romani haqida yozadi. Mazmunda syujet bayoni ustunlik qilsa-da, yosh kitobxon asarni nega o'qiyotganini, aynan nimasi sevimli bo'lgani, kitob va kino o'rtasidagi nozik farqlarni ilg'agani kishini quvontiradi.

15-19 yoshlilar o'rtasida Bobur, Behbudiy, Maqsud Shayxzoda, Said Ahmad, O'tkir Hoshimov, jahon adabiyotidan Jek London asarlari o'qilayotganini kuzatdik. Afsuski, ularda ham aynan darslikda berilgan asarlarga o'qilgan. Shu sabab tahlillarda ba'zan o'xshatmalar yoki darslikdan to'g'ridan-to'g'ri ko'chirib olingan nuqtalar kishini ranjitadi. Zero, tanlovning birdan-bir talabi kitobxon o'z mulohazalarini erkin tarzda bayon qilib berishi edi. "Ikki eshik orasi" haqida yozilgan Rahimova Feruza va Xudoyberganova Asilaning insholaridagi tahlillar 10-sinf adabiyot darsligidagi tahlil bilan bir xil yoki "Boburnoma" haqida yozayotib, asardagi faktlarni tinmay keltirgan

mualliflar ham, buning o'rniga mutolaadan nima olganliklarini yozishganda maqsadga muvofiq bo'lardi. Shu o'rinda Sotimova Gulzoda va Hayitboyev Yorqinjonlarning ijodiy ishlarini sevib o'qilgan asarlarga munosib berilgan baho deyish mumkin. Gulzoda "Ufq" trilogiyasi haqida yozar ekan, nimalarni his qilganini, mutolaa uni qanchalik zavqqa to'ldirganini bayon qiladi, davr fojiasidan xulosa chiqaradi. Yorqin esa otasi uning uchun ataylab sotib olgan va muhabbat qo'yan ilk kitobi haqidagi xotiralari bilan o'rtoqlashadi. Beixtiyor mutolaaga berilgan bola gavdalanadi ko'z oldingizda. Xudoyberdi To'xtaboyevning yana qancha-qancha bolalarda kitobga shunday mehr uyg'otgani haqida o'ylaysiz. Fikrlari tiyrak, ijodga muhabbati bor adabiyot ixlosmandi darrov e'tiboringizni tortadi.

20-30 yoshli kitobxonlar o'zbek adabiyotidan Tog'ay Murod, Said Ahmad, O'tkir



Bugungi avlod badiiy asarning mohiyatini emas, syujetini eslab qolmoqda. Boringki, ko'rinib turgan mazmunnigina tahlilga torishga qodir.

Hoshimov, Pirimqul Qodirov, Ulug'bek Hamdam, jahon adabiyotidan esa Alber Kamyu, Stendal, Jeyn Ostin, Remark, Mixail Bulgakov, Chingiz Aytmatov, Vitaliy Zakrutkin, Robert Kiosaki, Jorj Samuyel Kleyson asarlarini mutolaa qilgan. Ijodiy ishlar mavzuning ko'lami va ifodasi jihatdan jiddiy farqlanadi. Hatto ayrim yigit-qizlar tahririyatga o'z sirlari va ularni qiynayotgan muammolarini aytishga chog'lanishadi.

“Usta va Margarita” – har kim o'qishi va ayni damda o'qimasligi kerak bo'lgan asar” inshosi muallifi Ravshan Burxonov kitobni mifologik obrazlar orqali tahlil qilishga urinadi. Uni Gyotening “Faust” asari bilan qiyoslaydi. Asar syujetini bayon qilish asnosida uning ramziy ifodalarini sharhlab boradi. “Dunyoda yovuz odamlar yo'q, faqat baxtsiz odamlar bor”, “Har kimning qismati o'z e'tiqodiga qarab belgilanadi” kabi o'ziga ma'qul kelgan fikrlardan iqtibos keltiradi. Muallif asarni nega har kim o'qishi kerakligini bir qadar tushuntira olgan, ammo

nega o'qimasligi kerakligiga to'xtalmaydi.

Ijodiy yondashuv, chuqur tahlil, hayotiy qiyoslar bilan Kamyuning “Begona” qissasi asosida yozilgan Qo'ldoshev Sherzodning inshosi ham e'tiborga munosib ishlardan. Uning asardan olgan ta'sirlanish va xulosalari ham o'ziga xos. Garchi mantiqan noto'g'ri, ayrim joylarida sovuqqonlik bilan berilgan baholar bo'lsa-da, mustaqil bildirilgan xulosalar kitobxonni shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Shirinoyni “Uch og'aynini o'qib” inshosi esa bolaligi bilan bog'liq xotiralarni esga olish bilan boshlanadi. Dastlab, buvisining urush haqidagi hikoyalari orqali paydo bo'lgan nafratini nemis xalqiga qaratgan qizning fikrlari kitob mutolaasidan so'ng butunlay boshqa o'zanga buriladi. U qahramonlarni bir-bir sanarkan, ularni xarakterlaydi, tahlil etadi, ularga hamdarlik qiladi. Nafratga esa butun bir xalq emas, uning ayrim kishilarigina munosib, deya xulosa qiladi.

Tahririyatga kelgan barcha insholarga fikr bildirish imkoniyatimiz yo'q. Ularning eng saralarigagina to'xtaldik. Tanlovning maqsadi karantin davrida yoshlarning mutolaa salmog'ini oshirish, shu orqali uyda qolib ham tasavvurni kengaytirish va yangi dunyoni ochish mumkinligini, vaqtning asosiy qismi ijtimoiy

tarmoqlardagi vaqtinchalik hamda stressni yana-da oshiruvchi ma'lumotlarga berib qo'yilishining oldini olish edi. Bu qaysidir ma'noda o'zini oqladi ham.

Ijodiy ishlarni o'qish asnosida ayrim mulohazalarni bildirish fikri tug'ildi. Bugungi avlod badiiy asarning mohiyatini emas, syujetini eslab qolmoqda. Boringki, ko'rinib turgan mazmunnigina tahlilga tortishga qodir.

Insholarda keltirilgan asarlar ko'p emas. Ustozlar va ota-onalar bunga e'tibor qaratishlari, avvalo o'zlari ko'proq o'qishlari lozim. 10-14 yoshli o'quvchilarga Mirkarim Osim, Tursunboy Adashboyev, Po'lat Mo'min, Anvar Obidjon asarlarini tavsiya etish mumkin. Hoshimjonning sarguzashtlari bilan birga Robinzon Kruzoning sarguzashtlarini ham mutolaa qilish foydali bo'lardi.

“Alpomish”, “Dalli”, “Rustamxon” kabi o'zbek xalq dostonlari, Alisher Navoiy asarlari, “Qissasi Rabg'uziy”, “Guliston”, “Kalila va Dimna” kabi mumtoz namunalar, jahon adabiyoti vakillaridan Ekzyuperi, Tolstoy, Dostayevskiy, Chexov, Turgenov, Tagor asarlari, qolaversa, diniy adabiyotlar ham “Men sevgan asar” deya yozilishga munosib manbalardir. Kelgusida shunday kitoblar mutolaasidan so'ng qog'ozga tushirilgan fikrlarni o'qishga umidvormiz. Quyida esa saralangan insholardan bir nechtasi berilmoqda.

Dunyo hamjamiyati uchun hamon dolzarb bo'lib turgan koronavirus epidemiyasi sababli odatiy turmush tarzimizga bir qator o'zgarishlar kirib keldi.

Karantin vaqtida tahririyatimiz tomonidan kitobxonlar o'rtasida "Men sevgan asar" nomli insholar tanlovini e'lon qilgan edi.

Tanlovda qatnashish istagini bildirgan o'smir-yoshlardan yuzga yaqin insholar keldi. Ular orasida maktabning quyi sinflarida o'qiydigan bolalar ham borligi hay'at a'zolarini quvontirdi. Aslida, kitob mutolaa qilib, o'qigan asari haqida mulohaza yuritayotgan qatnashchi borki, barchasi g'olibdir. Eng muhimi, ular vaqtdan unumli foydalandi, deb o'ylaymiz. Ammo tanlov borki, uning, albatta, g'olibi aniqlanishi kerak.

"Men sevgan asar" insholar tanlovi hay'at a'zolari:

Birinchi o'ringa O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi Shirinoy Azadovaning "Mening qalbim tog'larga ketdi" nomli inshosini;

Ikkinchi o'ringa Markaziy saylov komissiyasi matbuot xizmati yetakchi mutaxassisi Ravshan Burhonovning "Har kim o'qishi va ayni damda o'qimasligi kerak bo'lgan asar" nomli inshosini;

Uchinchi o'ringa Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanidagi 15-maktabning 11-sinf o'quvchisi Yorqinjon Hayitboyevning "Meni o'zgartirgan asar" nomli inshosini munosib topdi.

G'oliblarga tahririyat tomonidan ajratilgan sovg'alar pochta orqali yetkazib beriladi.

Aziz kitobxonlar, tanlovda munosib qatnashganingiz uchun barchangizga "Yoshlik" jurnali jamoasi minnadorlik bildiradi.



Shirinoy AZADOVA,
O'zJOKU talabasi

Mening qalbim tog'larga ketdi...

Dog'iston – tog'liklar makoni, tog'lar o'lkasi. Uch millionga yetib-yetmaydigan aholisi qirqdan ziyod tilda gaplashadi. Avarcha, agulcha, gruzincha, lezgincha, no'g'oycha... Tillar har xil bo'lsa-da, elatlar qalban mushtarak. Ularni ko'kka tutash tog'lari emas, tillari emas, Vatanga bo'lgan muhabbat jipslashtirib turadi.

Rasul Hamzatov – Dog'iston farzandi, avar xalqining erka o'g'loni. U Xunzaxning olis qishlog'i Sadada, Sadasa oilasida dunyoga keldi. Ammo u tug'ilganida Dog'iston o'z bag'rida Vatanini jondan ortiq sevadigan, olovyurak shoir dunyoga kelganidan hali bexabar edi. Yillar o'tib uning har bir asari, har bir she'ri Vatanga bo'lgan muhabbatidan yaraldi. "Mening Vatanim", "Mening qalbim tog'larda", "Tog' qizi" asarlari

nomlarining o'zidanoq bu haqiqatni anglash mumkin. Rasul Hamzatov hayotda ham, ijodda ham qaysi xalq vakili ekanini bir daqiqaga bo'lsa-da unutmadi.

"Mening Dog'istonim"... Bu asarni qo'limga olarkanman, kirish qismidayoq "Agar mening kitobimda ma'qul fikrni ko'rsang, tagiga chizib qo'y", – degan undovga ko'zim tushdi. Tan olish kerakki, har sahifada tagiga chiziladigan fikrlar juda ko'p. Badia kichik-kichik lavhalardan tashkil topgan. Muqaddimaning o'zidayoq falsafiy qarashlarni uqa boshlaysan kishi. Agar bu asarni qayta nomlash imkoni bo'lganida, men unga "Vatanga muhabbat" deb nom qo'yan bo'lardim. Odam zoti kindik qoni tomgan, o'sib-ulg'aygan bir toshloq zaminni shunchalar



sevishi mumkinmi?! Shuncha mehr mushdek yurakka qanday sig'di ekan?! Mehrki, ayrimlar ko'nikib qolgan balandparvozig-u soxta vatanparvarlikdan million chaqirim yiroq. Mehrki, tog' chashmasining suvidek beg'ubor. Mehrki, mutolaadan so'ng beixtiyor tomir-tomiringizgacha, yurak-yuragingizgacha singib ketadigan.

Men bu asarni o'qiganim yo'q, uning o'zi meni qo'limdan tutib olis tog'larga olib ketdi, avar, lezgin xalqlari odamlari bilan tog' ovullarida bamisoli birga yashadim. Hamzat Sadasaning hayotiy hikoyalaridan tingladim, Abutulibning ichakuzdi latifalaridan zavqlandim. Tog'liklar bilan bir muddat yashab ular haqida ancha narsani bilib oldim.

Tog'liklar ikki narsani asrashi kerak ekan: bo'rkini va nomini. Bo'rk tagida boshi borlar shubhasiz bo'rkini, yuragida olovi borlar o'z nomini pok saqlab qoladi.

Tog'likda shunday ajoyib odat bor: uyiga kelgan mehmonga xonadondagi qaysi buyum yoqib qolib uni maqtagudek bo'lsa, o'sha narsani ketar chog'ida mehmonga sovg'a qilishi shart.

Tog'liklarda ota-onaning gapi – farzand uchun qonun.

Tog'lik ona hech qachon qoidasi buzilgan she'rni jigarbandiga o'qimaydi.

Tog'liklar uylarini ataylab qiyin yo'llar eltuvchi tog' cho'qqilarida qurishadi.

Bilishadiki, bunday yo'llardan o'tib faqat chin do'stlargina izlab kelishi mumkin.

Tog'liklar odamning kimligini yetti narsada bilishadi: kulfatda, shodlikda, ayolga munosabatda, qilich tutishda, boylikda, ichkilik ichishda va o'zligida.

To'g'ri, barcha dog'istonliklarning Vatani bitta, lekin har bir tog'likning yuragida o'z Dog'istoni bor. Ha, Rasul Hamzatov "Ona tilim" she'rida avar tilining bor kuch-quadratini ifodalagan bo'lsa, "Mening Dog'istonim" orqali o'z vatani tarixi, urf-odatlarini, tanti xalqi va eng asosiysi – ularga bo'lgan cheksiz muhabbatini bor bo'ybasti bilan ko'rsata oldi. Asarning har sahifasidan yangi ma'no kashf etish, yangi bilim o'rganish mumkin.

Dunyodagi hech bir shoir, hech bir yozuvchi hali o'z vatanini bunchalik maromiga yetkazib misralariga sig'dira olmagan bo'lsa kerak. Dog'istonda million kishi yashaydi, ammo qirqdan ziyod til, O'zbekistonda

*Dog'istonda
million kishi
yashaydi, ammo
qirqdan ziyod til,
O'zbekistonda
esa 34 million
kishidan ziyod
odam, til –
yagona...*

esa 34 million kishidan ziyod odam, til – yagona... Bordi-yu xalqimiz ichida bor-yo'g'i 100 kishi O'zbekistonni, Rasul Hamzatov Dog'istonni sevganchalik sevsa, o'z millatiga shu qadar hurmat bajo keltirsa, men ular oldida bosh egar edim...

Asarni o'qishni har bir tengdoshimga tavsiya qilaman. Zora, tevarakdan faqat kamchilik va qusur izlovchi ko'zlar, Vatani kelajagi o'ziga ko'z tikib turganini sezmay-his qilmay, "surish kerak!" deb bemalol ayta oladigan so'zlar egalari fikrlarini o'zgartirsa bu asar mutolaasidan so'ng.

So'zimni asardan olingan ushbu parcha bilan yakunlashni lozim topdim: "Har bir odam bolaligidan o'z xalqining vakili bo'lish uchun dunyoga kelganini bilishi va shu sharaflil vazifani o'z zimmasiga olishi kerak".



Ravshan BURHONOV,
Markaziy saylov komissiyasi
matbuot xizmati yetakchi
mutaxassisi

Har kim o‘qishi va ayni damda o‘qimasligi kerak bo‘lgan asar

– *Kimsan, ayt!*
Men hargiz yomonlik tilab –
Yaxshilik qilguvchi Kuchning bir
qismi.
(Gyote, “Faust”)

“Usta va Margarita”... Dunyo adabiyotining eng mashhur, Mixail Bulgakov nomini jahonga tanitgan asarlaridan biri.

Muallif ushbu romanini 1928-yilda yoza boshlagan va umri so‘ngida nihoyasiga yetkazgan. Adibni yaqindan tanigan zamondoshlarining guvohlik berishicha, asarning bir necha varianti bo‘lgan. Asar voqealari mifologik obrazlar orqali qurilgan bo‘lsa ham, o‘sha davr siyosiy-ijtimoiy holatini ta’sirchan yoritib berganligi bilan ahamiyatlidir. Asar yozilishida yozuvchi har bir personajni alohida o‘rgangan, ayniqsa, Vollandni. Adib vafot etgach uning ish stolidan 150 betli “Iblis haqida” deb nomlangan yon daftar topilgan. Asarda barcha personajlar Vollandni “messir” deb chaqiradi. “Messir” so‘zining ma’nosi “Mefistofel”ning qisqartmasidir.

Mefistofel esa “iblis” degani. Asar voqealari “Faust”ga o‘xshab ketishi bilan xorijda ko‘plab tanqidlarga uchragan.

Asarni o‘qir ekansiz, nega asar “Usta va Margarita” deya nomlanganini tushuna olmaysiz. Asar Berlioz va Bezdombniyning Patriarx ko‘li yonida suhbatlashib o‘tirishidan boshlanadi. Suhbatga Vollandning qo‘shilishi bilan voqealar rivojlanadi. Asarda ikki voqea parallel tarzda hikoya qilinadi. Ikki hikoyani bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Bilamizki, sobiq Sho‘rolar mamlakati G‘arbda “Xudosizlar yurti” deb atalgan. Ateistlarning suhbatlari va Isoning o‘ldirilishi asarni biroz tushunarsiz qilgan. Asardagi barcha voqealar tizgini bir personajning taqdiri va hukmi bilan bog‘lanib qolgan. Bu personaj Volland. Volland asarda o‘sha davr hukumatining manfur siyosatini aks ettirgan. Insonlarning Volland aytganidek o‘lim topishi, tasodifan

yo‘qolib qolishlari, jinnixonaga tushishlar sobiq Sho‘rolarning siyosiy repressiyalarini fosh qilib bergan. Usta asarda ilk bor Bezdombniyning jinnixonaga tushishi bilan paydo bo‘ladi. Usta, mening fikrimcha, ziyoli insonlarning ramziy obrazini gavdalantirgan. Margarita esa ozodlik, hurlik va adolat timsoli. Eng og‘ir damlarda ham Margarita Ustani tark etmaydi. Doim unga umid baxshida etib turadi. Asarda Volland va uning yordamchilari tomonidan qilingan ishlarni to‘xtatishga hech bir kuch qodir emas.

Varette teatridagi tomosha esa olomonning erkinlikka, tanlash huquqiga bo‘lgan ehtiyojini jonli tarzda ifodalab bergan. Ana shu tomosha sahnasi asardagi kulminatsion nuqta,

tomoshadan so'ng sizda "endi nima bo'ladi?" degan savol tug'ilishi tabiiy. Asarni o'qir ekansiz, o'zi, Voland kim, u nima ish qiladi, nega unga hamma bo'ysunishi kerak kabi savollar miyangizda g'uj'on o'ynayveradi. Voland, bu – hukumat, aniqrog'i, hokimlik. Siz uning aslida nima ish qilishini bilmaysiz. Uning qudrati uning sirliligida, jozibadorligida. Birgina Voland personaji barcha voqealarning markazida turib, butun jarayonlarni boshqaradi. Volandning borlig'ini namoyon qilgan sahna "Iblis huzuridagi olamshumul ball" bobida namoyon bo'lgan. Asardagi eng dahshatli sahna aynan shu. Sahna markazida kamin paydo bo'lib tarixda o'tgan barcha razil kimsalarning tobuti shu kamindan otilib chiqadi va chirigan murdalar o'z qiyofasiga kirib Margaritaning tizzasidan bo'sa olishadi. Bu kimsalar o'g'ri, fohisha, qotil, jinoyatchi, yolg'onchi va eng



*Asarda
Margarita, bu
– ozodlik, erk
timsoli. Usta
uning oshig'i
– jamiyatdagi
ziyoli qatlam
vakillarining
asardagi talqini.*

manfur kimsalar bo'lishiga qaramay ozodlikka tashna insonlardir. Ular yilda bir marta qilgan gunohlari uchun afv etilib ozodlikka chiqariladi. Margarita esa ular uchun ozodlik ramzi sifatida qad rostlagan go'zal bir ayolki, barcha uni e'zozlamoqda. Asarda Margarita, bu – ozodlik, erk timsoli. Usta uning oshig'i – jamiyatdagi ziyoli qatlam vakillarining asardagi talqini. Yovuzlik Voland bo'lsa, ezgulik Iousha. Pontiy Pilat esa, arosatda qolgan xalq. Asar so'ngida Usta hamda Margaritaning taqdirini Iousha belgilab beradi. Ular Voland bilan birgalikda cheksizlikka ravona bo'ladilar. Go'zal bir vodiya Pontiy Pilatning arosatda o'tirganini ko'rishadi. Margarita uni ozod qilsa bo'lmaydimi, deb Volandga yuzlanadi. Voland esa uni faqatgina Usta ozod

qila olishini aytadi. Usta Pontiy Pilatni ozod etadi.

Darhaqiqat, asar so'ngi butun voqelik tizgini sachratib yuborgan ozodlik hissi bilan yakun topadi. Arastudan tortib to hozirgi davrga qadar, arosatda qolgan xalqni Voland singari hukumat ta'siridan faqatgina ziyolilar ozod qila oladilar.

Asardan iqtiboslar:

*Ha, inson o'ladi,
ammo bu muammoning
yarmi, xolos. Yomon xabar
shundaki, u ba'zan to'satdan
o'lib qoladi, mana, gap
nimada!*

*Sevgan inson sevgan
kishisining taqdirini
bo'lishishi kerak.*

*G'isht sababsiz hech
qachon hech kimning
boshiga tushib ketmaydi.*

*Dunyoda yovuz odamlar
yo'q, faqat baxtsiz odamlar
bor.*

*Qo'lyozmalar yonmaydi.
Hech qachon begonalar
bilan gaplashmang.*

*Meni kechir va tezroq
unutib yuborishga harakat
qil. Men seni mangu tark
etmoqdaman. Qidirma meni,
bundan foyda yo'q. Men
boshimga tushgan g'am va
musibatlardan jodugarga
aylandim. Men ketyapman.
Alvido. Margarita.*

*Lekin endi bizni sodir
bo'lgan shu fakt emas,
kelgusida bo'ladigan
voqealar qiziqtiradi.*

*Har kimning qismati o'z
e'tiqodiga qarab belgilanadi.*



Yorqinjon HAYITBOYEV

Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanidagi 15-maktabning 11-sinf o'quvchisi

*Kitob bu tafakkur, kitob – xazina,
Kitobxon insonda bo'lmaydi gina.
Qalbimiz yanada go'zal bo'lajak,
Yaxshi kitoblarni o'qisakkina...*

Kitob so'zini eshitganimda bir voqea yodimga keladi. Adashmasam, o'sha paytlari sakkiz yo to'qqiz yoshda edim. Dadam bilan daladan qaytishda bozorga borishni (va albatta, muzqaymoq olishni) kelishib olganimizdan so'ng sholipoyalar sari jo'nadik. Ayam dadamga bir qog'oz tutqazdi. Sevgi xati deb xomxayol bo'lishning hojati yo'q. Bu qog'ozda bozorlik ro'yxati yozilgandi. Dalaga bordik, sholiga suv me'yorida oqayotganini ko'rib, ko'nglimiz tinchidi. Axir, suv bo'lmasa, sholi ham bo'lmaydi-da. Dalada biroz aylanganimizdan keyin bozorga jo'nadik.

Bozorda kitob do'koni yonidan o'tdig-u, dadam darrov ortiga qaytdi. Muzqaymoqqa atiga o'n qadam qolganida men ham izimga qaytishga majbur bo'ldim. Ketmon ushlayverib temirday qattiq bo'lib ketgan dadamning qadoq qo'li qo'limni mahkam tutib olganidan keyin qaytmaslikning iloji ham yo'q edi-da. Kitob do'koniga kirgach dadam do'konchi opaga: "Shu bolaga mos

MENI O'ZGARTIRGAN ASAR

kitoblarni ko'rsating", deb qoldi. Xursand bo'lib ketdim. Nahotki, o'z-o'zimning kitobim bo'ladi endi!

Xullas, o'shanda Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" romanini sotib oldik. Keyin xuddi pultga o'xshaydigan, ekrani, tugmalari bor o'yinchoq ham oldik. Uyga esa... quruq qo'l bilan qaytdik. Ayam tilla ona. Dadamni darrov tushundi. "Bolamizni o'qimishli bo'lsin debsiz-da. Yaxshi o'ylabsiz. Hozircha hamma narsa yetarli. Yanagi safar olib kelarsiz..." dedi. Holbuki, ayam aldagandi. Chunki o'sha kuni ovqatga kartoshkani qo'shnimizdan olib chiqdik. Shu zaylda, mening birinchi shaxsiy kitobim ham paydo bo'ldi. Ungacha kutubxonadan ertak kitoblar olgandim-u, lekin bunday katta badiiy kitobni hech o'qimagandim. Ikkinchi sinfligimda oltinchi sinf o'quvchisi Hoshimjonning sarguzashtlari yozilgan kitobni o'qib chiqdim. Kuniga uch-to'rt betdan o'qirdim. Agar dadam uyda bo'lsalar, o'zlari yonlariga olib o'qishimni tomosha qilardilar. O'shanday kunlarda, hatto o'n betgacha o'qirdim. O'qib bo'lganimdan keyin dadam nimani o'qiganimni qaytadan so'rardi. Axir hozirgina ovozimni chiqarib o'qiganimni aytsam ham bari bir xayolimda qolganlarini so'zlab berishim shart edi.

Bo'lar bola boshidan, deyishadi-yu, lekin o'sha bolaning ham bo'ladigan bo'lishi

uchun kattalarning xizmati katta ekan. Sababi, bolaligimdan oilam kitobga mehr uyg'otmaganida edi, bugungi natijalarimga erisha olmagan bo'lardim. Birinchi sinflik paytimdan she'r yoza boshlaganman. Maktabga borishdan avval ayajonim menga yozishni allaqachon o'rgatgandilar. Ammo ayam o'rgatgan yozuv boshqacha-yu, maktabdagi boshqacharoq edi. Keyin bilsam, ayam kirill alifbosida yozishni o'rgatgan ekanlar. Yangi yozuvni ham tezda o'rganib oldim. Birinchi sinfdagi she'r yozishga bo'lgan ishtiyoq, ikkinchi sinfdagi dadamning sovg'asidan keyin yanada kuchaydi. Hoshimjonning sarguzashtlari haqida o'qib, o'zimni xuddi uning o'rnida tasavvur qilardim. Tasavvurimdagilarni esa she'rlarda aks ettirardim. O'sha paytdagi e'tibor va eng asosiysi, oilaviy muhit

tufayli kitobxon o'quvchiga aylandim. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida "Bugun bitta kitob o'qigan bola ertaga o'nta televizor ko'rgan bolaga yetakchilik qiladi", deb ta'kidlagan edilar. Inchunun, kitob insoniyatning eng yaqin do'sti, maslahatdoshidir. Kitoblarni quyoshga o'xshataman. Bechora quyosh insoniyat qancha xunrezliklar qilsa ham, doim dunyoni charog'on qilish uchun nur sochadi. Kitoblar quyoshday buyuk. Quyosh olamni yoritisa, kitoblar insonning qalbini nurga to'ldiradi. Bundan uch-to'rt yil avval yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlari sust ekanligi asosiy muammo edi. Lekin Prezidentimiz muammoga yechim sifatida shunday g'oyani o'rtaga tashladilarki, bu g'oya butun dunyoga o'rnak bo'ldi. Bugun yurtimizda "Kitob o'qigan mashina minadi", degan shior millionlab yoshlarning qalbiga kirib bordi. "Yosh kitobxon" tanlovining o'tkazilishi, g'oliblarga "Prezident sovg'asi" sifatida mashina sovg'a qilinishi butun dunyoga o'rnak qilsa arziydigan tashabbus bo'ldi.

Xudoyberdi To'xtaboyevning romanini o'qishdan boshlangan kitoblar olamiga sayohatim meni ham tanlovda qatnashishga undadi. O'qilishi kerak bo'lgan kitoblar ro'yxatini ko'rganimda ko'pi bilan allaqachon tanish

ekanligimdam quvondim. 2017-yilda tanlovning tuman, viloyat bosqichlarida g'olib bo'ldim. Respublika bosqichi 2018-yilda bo'ldi. Garchi, g'olib bo'lmasam-da, "Eng faol ishtirokchi" nominatsiyasi bilan taqdirlandim. Tanlovdan so'ng, ochig'i, juda xafa bo'ldim. Yutqazish alami shu qadar og'irligini bilmagan ekanman. Xonamga qamalib oldim. Ovqat ham yemay qo'ydim. Shunda dadam yonimga kelib, o'sha kitobni, men uchun qadri bo'lgan "Sariq devni minib" romanini qo'limga tutqazib, "Boshidan boshlaymiz", dedi-da, boshqa so'z demadi. "Boshidan boshlaymiz" jumlasini, garchi ikkita so'z bo'lsa ham, meni shu qadar ruhlantirdiki, xafagarchiliklar ham tarqadi. Faqat, endilikda ko'proq vaqtimni fanlarga ajratyapman. Tanlovda ham qatnashib turibman. Doim viloyat bosqichida o'rin olaman. Lekin, eng katta maqsadim universitet talabasi bo'lish. Bu yil jurnalistika universiteti talabasi bo'lish uchun imtihon topshirdim. Jurnalistikani tanlashim ham qiziq bo'lgan. Bir kuni uyimizga ijodim, yutuqlarim haqida ko'rsatuv tayyorlashga jurnalist keldi. Turli savollariga javob berdim. Hammasi yaxshi edi-yu, lekin shu jurnalistning bir fikri menga yoqmadi. Nima emishki, oilamda universitetda o'qiganlar bormikan? Men yo'q deb, oddiy dehqon oilasi ekanligimizni



aytganimda, jurnalist opa: “Ha, tushunarli. Unda ziyoli oila deb tanishtirmay qo‘yaqolaman”, dedi. Dadam bilan ayajonim unchalik e‘tibor berishmadi. Lekin menga alam qildi. “Oliy ma‘lumotli” degan diplomi borlar ziyoli ekan-u, lekin farzandi uchun ro‘zg‘oridan orttirib kitob olib beradigan mehnatkashlar ziyosiz ekan-da!.. Jurnalstning shu gapidan keyin o‘z oldimga yangi maqsad qo‘ydim. Men shunday jurnalist bo‘layki, ziyolilikni diplom bilan o‘lchaydigan ba‘zi kishilarga haqiqiy jurnalist qanday bo‘lishi kerakligini ko‘rsatib qo‘yay.

Chindan ham ijod qilishni yaxshi ko‘raman. Ham aql, ham qalb bilan fikrlashga harakat qilaman. Axir, O‘tkir Hoshimov bekorga “Ijodkorda qishloqning qalbi, shaharning aqli bo‘lishi kerak”, deb yozmagan-ku. Hoshimjon haqidagi kitobni, uning sarguzashtlari-yu hangomalarini o‘qib, juda ta’sirlangandim. Tanlovda yutqazib qo‘yganimga ham shu kitob bilan ovundim. Kitoblarni har ko‘rganimga, mening ham shunday kitoblarim chiqadi, deb niyat qilaman. Niyat qilgan inson, albatta, o‘ylaganiga erishar ekan. O‘n uch yoshimga birinchi she‘riy kitobim nashr qilindi. “Bolalik bayoti” deb nomlangan jajji kitobcha chiqqandagi quvonchimni tasavvur qila olmaysiz. “Tilla topgan sichqoncha” she‘rini Hoshimjonning sehrli qalpoqni topib olganidan ilhomlanib

Bu kitob menga, mening ruhiyatimga shu qadar ta’sir qilganki, uning natijasida bugun ijod qilib o‘tiribman.

yozgandim. O‘ylab qarasam, “Sariq devni minib” asari mening hayotimni anchagina o‘zgartirgan, ijodkor bo‘lishimga kattagina hissa qo‘shgan kitob ekan. Albatta, kitobga qanchalik mehrim bo‘lsa, uning muallifiga ham muhabbatim cheksiz. Ham o‘smirlarga, ham bolalarga birdek manzur bo‘ladigan asarlar yozgan yozuvchiga bo‘lgan hurmatim yuqori. Bolaligimdan Xudoyberdi To‘xtaboyev bilan uchrashishni orzu qilardim. Bilasizmi, O‘zbekiston orzular mamlakati. Bu yurtda hamma orzular amalga oshadi. 2018-yilda sevimli yozuvchimning uylariga bordim. She‘rlarimni, hikoyalarimni eshitib, qimmatli fikrlarini bildirdilar. Shunday qilib, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To‘xtaboyevning eng kenja shogirdlaridan biriga aylandim. Bu yil “Onam kiprigiga arzimas dunyo” nomli she‘riy kitobim chop etildi. Yuzdan ziyod she‘rlarim jamlangan to‘plamimga sevimli ustozim,

Xudoyberdi bobom so‘zboshi yozib berdilar. Ayniqsa, ularning “Yorqinjon o‘g‘lim, ijoding yorqin va bardavom bo‘lsin. Seni quchoqlab, peshonangdan o‘pib qolaman!” deb yozganlari qanday baxtli yosh ijodkorlar qatorida ekanimgan dalolat beradi. Ba‘zi paytlarda o‘ylanib qolaman. Yillar avval dadajonim aynan “Sariq devni minib”ni emas, boshqa kitobni olib berganlarida men bugungi natijalarga erisha olarmidim... Yo‘q, buni tasavvur ham qila olmayman. Bu kitob menga, mening ruhiyatimga shu qadar ta’sir qilganki, uning natijasida bugun ijod qilib o‘tiribman.

Karantin davri – kitob o‘qish uchun eng qulay imkoniyat vaqti. Ko‘p o‘qib, yaxshi niyat qilsak, albatta, g‘alabaga erishamiz. Tojdor virusning tojini yechish qo‘limizda. Buning uchun birdam bo‘lsak kifoya. Yozganlarimni yanada yaxshiroq anglamoqchi bo‘lsangiz, “Sariq devni minib” romanini o‘qib ko‘ring. Bolalar kitobi-ku, deyishga shoshmang. Chunki, bolalar ruhiyati, bolalar dunyosi kattalarni ham poklashga qodir. Axir, eh bolaligim qaytsaydi, deganlarning qanchasini eshitgansiz. Keling, ham xayolotda, ham hayotda bola kabi pok va samimiy, to‘g‘riso‘z bo‘lishga harakat qilib, bir-birimizga mehribon bo‘lib qolaylik.



Ijodkorga, ijodkorlikka berilgan ta'riflar ko'p, albatta. Mening nazarimda, ijodkorning zimmasiga tushadigan eng muhim vazifalardan biri – zamonasining tilmochi bo'la olishdir. Buning uchun esa, u ko'zgu bo'lmog'i, ko'zgu bo'lib, ota bobosi-yu, o'zi davrni o'quvchiga ko'rsatishi kerak bo'ladi. Shu ma'noda Mirzakalon Ismoilov risoladagidek yozuvchi edi. U bir tomondan, katta davrni, xalq taqdirini, xalqning boshidan va ko'nglidan kechganlarini qalamga oldi, qator qissalar va hozirgacha sevib o'qilayotgan ulkan dialogiya – “Farg'ona tong otguncha”ni yozdi hamda yangi zamonda katta dunyoga ko'zlarini endi-endi ocha boshlagan o'quvchilarini jahon adabiyoti bilan tanishtirish yo'lida bir olam baquvvat asarlarni o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qildi. Chin ijodkorning, ziyolining qismati mana shunday bo'ladi, aslida.

Mirzakalon Ismoilov havas qilishga, hayoti-yu, ijodini o'rganishga, hurmat va e'zoz ko'rsatishga arzigulik shaxs va ijodkordir.

Ulug'bek HAMDAM,
yozuvchi

Mirzakalon ISMOILY

1908-yili Qirg'izistonning O'sh shahrida dunyoga keldi. Ota-onadan erta yetim qolib, bolalar uyida tarbiyalandi.

Toshkentga kelib, o'zbek erlar bilim yurtida ta'lim oldi. 1928-1930-yillarda O'rta Osiyo Davlat universitetining Sharq fakultetida o'qidi, o'qituvchilik qildi.

Toshkent kinostudiyasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, “Qizil O'zbekiston” gazetasi va “Sharq yulduzi” jurnali tahririyatlarida hamda O'zbekiston Davlat nashriyotida xizmat qildi. U rus adabiyoti klassiklaridan M.Lermontov, L.Tolstoy, A.Chexov, M.Gorkiy, M.Sholoxov asarlarini hamda jahon adabiyoti namunalari o'zbek tiliga o'girdi. U 1942-1947-yillarda harbiy jurnalist sifatida armiya xizmatida bo'ldi.

Adib urushdan keyingi yillarda yaratgan “Farg'ona tong otguncha” (1958, 1967) trilogiyasida oktyabr to'ntarishi arafasidagi o'zbek mehnatkashlarining hayoti va ma'rifat sari intilishini tasvirladi. Roman o'zining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari bilan 60-yillar o'zbek nasri ravnaqiga munosib hissa bo'lib qo'shildi. M.Ismoilov yoshlar hayotini aks ettiruvchi “Bizning roman” (1963), ma'naviyat yog'dularini sharaflovchi “Odamiylik qissasi” (1965) kabi puxta, go'zal nasriy asarlari bilan ham kitobxonlar e'tiborini qozondi.

Ilhom Zoyirning “Yuz tillo mojarosi” romani qahramonlariga Afandi latifalarining sezilarli va samarali ta’siri bor, ayrimlari, hatto, voqealar mag’zi mag’ziga singib ham ketgan. Biroq romandagi bosh qahramon xalq og’zaki ijodidagi Afandining o’zigina emas, u muallif yaratgan tamoman yangi timsol. Roman bilan boshdan-oxirigacha tanishgan kishi bunga amin bo’ladi.

Sultonmurod OLIM,
adabiyotshunos



» Ilhom ZOYIR «

1961-yilning 2-iyulida Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida tug’ildi. 1984-yili Toshkent davlat universiteti (hozirgi O’zMU)ning jurnalistika fakultetida tamomlagan.

Birinchi hikoyalar to’plami – “Tarsaki” 1995-yili chop etildi. Shundan keyin “Yelpatak” (1997), “Tabassum bekati” (2000), “Qoidasi shunaqa” (2002), “To’g’ri so’zning to’qmog’i” (2003) hikoyalar to’plami, “Yuz tillo mojarosi” (2008), “Ajal piramidasi” (2008), “To’rtburchakli yosti” (2009), “Qismat o’chi” (2011) romanlari nashr etildi.

Ilhom Zoyir bolalar va o’smirlar uchun ham bir qator asarlar yaratdi. Jumladan, “Sichqoncha Tabuning sarguzashtlari” (2006), “Holva yemagan bola” (2007), “Quyosh bolalari” (2015) kabi qissalarini e’lon qildi. Shuningdek, jahon bolalar adabiyotidan Sinken Xoppning “Sehrli bo’r” (2004), Yan Ekxolmning “Sofdil Mallavoy” (2006) ertak-qissalarini o’zbek tiliga o’girdi. O’zining ham bir qator hikoya, qissa va romanlari tojik, qozoq, uyg’ur, koreys tillariga tarjima qilingan.

Adib qalamiga mansub ssenariy asosida “O’zbekfilm” studiyasida “Mergan melisa” (2007) badiiy filmi suratga olindi. “Qarz” (2011), “O’g’ri ham odam” (2013) komediyalari sahnalashtirildi.

Ilhom Zoyir 2009-yilda “Do’stlik” ordeni bilan taqdirlangan. U 2018-yilning 9-avgustida Toshkent shahrida vafot etdi.



Bulbul kabi xushnavo bo'libsən



Qiyomiddin QOTIY

1978-yili Afg'oniston
Islom Respublikasi
Foryob viloyati Andixo'y
tumanida tug'ilgan.
O'zbek, fors tillarida
ijod qiladi. Zahiriddin
Muhammad Bobur
nomidagi hamda "Hasht
Behisht" adabiy yig'ini
a'zosi. "Til haqi" va
"Shahriyori sar zamini
dil" kitoblari chop
etilgan. "Yak qadam on
taraf Taraz shahram"
to'plami nashr qilinish
arafasida.
She'rlari matbuotda
muntazam e'lon qilib
boriladi.

Imlomi yo inshomisen?

Qancha mehringdir qiziq, davlatmi yo dunyomisen?!
Qancha ham dersan chuchuk, shakkarmi yo halvomisen?!

Sen bilan ko'klam bo'lar, gul ochilar, kulgu kelar,
Qormi yo, yomg'irmi yo, dengizmi, yo daryomisen?!

Ko'kmi, yulduzmi, quyoshmi, oymi, kunmi yoki tun,
Tog' ila toshmi, ariqmi, yo'lmi yo sahromisen?!

Yupqasan, balki ko'ringaysen xayolim ko'ziga,
Hismi yo angiza, yo tuyg'umi, yo ro'yomisen?!

Masnaviyimi, yo muxammasmi, musaddasmi, g'azal?
Lafz yo mazmunmi, yo mantiqmi, yo ma'nomisen?!

Xomami, daftarmi, yo xilvatmi, yo sujami?
Vojami, yo she'r, yo imlomi, yo inshomisan?!

Shuncha bildim, Vomiqu Farhod yanglig' telbaman,
Bilmadim ey sho'xkim, Shirinmi, yo Uzromisan?!

* * *

Ey kosh, yashil sevgi ko'ngil bog'ida,
Jonimda so'lar erdi butar chog'ida.
Yanchildimu, yanchildimu, yanchildim, oh,
Bug'doydek ayriliq yovirchog'¹ida.

¹Yovirchoq – qo'lda bug'doy yanchadigan kichik tegirmon.

Bo'libsen

Ey sho'x, ne xush, liqo bo'libsen,
Oina sifat safo bo'libsen.

Sevgi chamanida sarv yanglig'
Sarvi sumanim, raso bo'libsen.

Tovus kabi xirom aylab,
Ne dilbaru dilrabo bo'libsen.

Ham ovlash uchun ko'ngil qushini
Shaxboz kabi balo bo'libsen.

Ishq ahliga yo'qdir iltifotig
Ne bo'ldiki, bevafo bo'libsen.

Mendan kechib-ay, sevimli yorim,
Begonaga oshno bo'libsen.

Oydek ochilib turarsen ammo,
Tundek yuragi qaro bo'libsen.

Bu sheva-yu, bu fusun birla
Ko'nglimning uyiga jo bo'libsen.

Kuylashga yurak so'zini Qotiy,
Bulbul kabi xushnavo bo'libsen.

Amal bo'libsiz

Ko'klam oyimi, hamal bo'libsiz,
Guldan ko'ra ham go'zal bo'libsiz.

Ko'ngilga yoqar qiliqlaringiz,
Sevgi suvi birla hal bo'libsiz.

Bir lahzada ming kelib esimga
Zavqimga to'la g'azal bo'libsiz.

Har kecha kelib tushimga, kunduz
Istaklarima badal bo'libsiz.

So'z irni bilan totar bu she'rim
Ne kim, baribir asal bo'libsiz.

O'zbek tilimga

Ey sevimli ona til, sen jismu men joning bo'lay,
Tomiringda qayta-qayta qaynagan qoning bo'lay.

Istagim bu der, qabul etgil, hayotim bo'yicha,
Chin yurakdan hurmat aylab sodiq o'g'loning bo'lay.

Yangidan so'z kemasin bir yangi yo'lga surgali,
Ey ma'oniylar dengizi, to'lqinli to'foning bo'lay.

O'rganib sendan adab bog'ida yashnatdik g'azal,
Endi ko'klam qilgali ko'rkam gulistonning bo'lay.

Ot qozon ochun bo'yicha o'zga bir tarix aro,
Shuhrating devoni uzra shonli unvoning bo'lay.

Dahr aro kuchli tuzum el og'zida qurgil yana,
Man esa Hindu, Buxoro-yu, Xurosoning bo'lay.

Bir eski sandiq

Ko'ksimda yurakmas, bir eski sandiq,
Ko'hna xotiralar bilan limmo-lim.
Bunda sof sevgimni etganman bandi,
Zang bosgan qulfiga qo'l urma, jonim.

Nega tushunmaysan, parvo qilmaysan?
Uyg'otib yuborma, xush onlarimni.
Shu mitti qutida, rostini aytsam,
Kishanlab qo'yganman isyonlarimni.

Tegsang, ochiladi birdan og'zi lang,
Otashin hislarim ko'taradi bosh.
Mangu makonini tark etib bu tong
Ko'ksimdan otilib chiqadi Quyosh!


Faxriddin HAYIT tarjimai



Djordj ORUELL

1903-yili Bengaliyada harbiy amaldor oilasida tugʻilgan. 1927-yilda imperiya politsiyasi xizmatidan boʻshab, "Djordj Oruell" taxallusi bilan ijod qila boshlaydi. "Parij va Londondagi faqir hayotim" (1933), "Kataloniyaga eʼtiqod" (1938), "Hayvonlar xoʻjaligi" (1945) va "1984" (1949) romanlari orqali dunyoga siyosiy yozuvchi sifatida tanildi. Oruell 1950-yilda sil kasalligidan vafot etgan.

Ingliz tilidan
OʻzDJTU magistranti
**Sojida
SAMANDAROVA**
tarjimasi



FILNING OTILISHI

(Hikoya)

Quyi Birmaning Molamyayn qishlogʻidagi koʻpchilik mendan nafratlanardi va bundan baʼzan gʻururlanib qoʻyardim, chunki oʻsha paytlari hayotimda bir marta boʻlsayam eʼtibor markazida boʻlgandim. Men shaharcha politsiyasida ofitser boʻlib ishlardim, mamlakatda esa aksilevropa qarashlar ancha ildiz otgan paytlar edi. Toʻgʻri, hech kimning ham qurol koʻtarib, qoʻzgʻolon uyushtirishga haddi sigʻmasdi, biroq biror yevropalik xonimcha yolgʻiz oʻzi bozor oralab ketayotgan boʻlsa, nordon palma sharbati bilan koʻylagi bejab qoʻyilardi. Politsiya xodimi sifatida men ham hammaning nishon markazida edim va piching-u kesatishlardan, tabiiyki, bebahra qolmasdim. Biror chaqqon birmalik meni futbol maydonida chalib yiqitsa va bunga birmalik hakam koʻz yumsa, olomon juda xunuk baqirib ustimdan kulardi. Bu holat bir necha marta sodir boʻldi. Oxir-oqibat, meni taʼqib qiluvchi va mazax qiluvchi sargʻish yuzlar-u ortimdan aytiladigan haqoratlar qattiq asabimga tega boshladi. Eng koʻp haddidan oshadiganlari yosh buddaviy ruhoniylar edi. Shaharda ularning bir necha minglagani yashar va koʻcha burchaklarida turib yevropaliklarni masxara qilishdan boshqa ishlari yoʻq edi.

Bularning barchasi sabr kosamning to'lishiga sabab bo'lardi. O'sha paytda imperializmning haqiqiy dahshatini anglab yetgandim, shu sababli ham tezroq xizmatimni yakunlashni o'ylardim. Nazariy jihatdan (yashirin, albatta) birmaliklarning yonini olib, ularga zug'um qiluvchi inglizlarga qarshi edim. Qilayotgan ishimga kelsak, uni siz tasavvur qilganingizdan-da ko'proq yomon ko'rardim. Shunga o'xshash ishda ishlab ko'rsangiz, imperiyaning iflos ishlariga yaqqol guvoh bo'lasiz. Badbo'y qafaslarda burishib turgan mahbuslarning tushkun qiyofalari, uzoq muddatga hukm qilingan mahkumlarning ko'kargan dahshat to'la qiyofalari, bambuk bilan savalanaverib momataloq bo'lib ketgan dumbalari - bularning barchasi meni aybdorlik hissiga asir qilib qo'yardi. Ammo hech narsaning o'zgarishiga umid qilolmasdim, chunki yosh va chalasavod edim, o'zimni qiynayotgan muammolar haqida Sharqdagi har bir ingliz ongiga majburan singdirilganidek jimgina o'y surardim. Hattoki, Britaniya imperiyasi zavolga yuz tutayotganiga, shuningdek, o'rini egallash ishtiyoqidagi yosh imperiyachalardan uning ancha yaxshiroq ekanligiga ham aqlim yetmasdi. Biladiganim shu ediki, o'zim xizmat qilayotgan imperiyamga nisbatan nafratim va ishimni yanada mushkullashtirayotgan badjahl mitti maxluqlarga qarshi g'azabim arosatida qovurilayotgan edim. Goh Britaniya rojaligi ko'zimga mazlum xalqni abadiy qo'rquv ostida tutib turadigan zolim hokimiyatdek ko'rinar, gohida esa men uchun buddaviy ruhoniylar qorniga pichoq tirashdan ortiq quvonch yo'qdek edi go'yo. Bu kabi o'ylar imperializmning qo'shimcha mahsulotidir, buni istalgan ingliz-hind rasmiysidan so'rab ishonch hosil qilishingiz mumkin, agar uni ishdan bo'sh payti uchratsangiz albatta.

Kunlardan bir kuni ozgina bo'lsa ham o'ylarimni ravshanlashtiradigan bitta voqea yuz berdi. Bu kichik bir voqea bo'lishiga qaramasdan, imperializmning asl mohiyatini to'laqonli oshkor etib, mustabid hokimiyat

manzaralariga guvoh bo'lishimga imkon berdi. Bir kuni erta tongda shaharning narigi chekkasidagi politsiya bo'limining uchastka inspektori qo'ng'iroq qilib, bitta fil bozorni tit-pitini chiqarayotganini aytdi. "Iltimos, kelib bir narsa qiling"mish, men nimayam qila olardim? Lekin nima bo'layotganini o'z ko'zim bilan ko'rish istagida otimga minib darrov yo'lga tushdim. Yo'l-yo'lakay filni otish uchun ancha kichiklik qiladigan, ammo shovqini hechqursa uni qo'rqitib qo'yar degan o'yda eski 44 kalibrli Vinchester miltig'imni oldim. Yo'lda ketayotganimda birmaliklar to'xtatib, filning qilmishlari haqida kuyib-yonib gapirib berishdi. U, albatta, yovvoyi emas, aksincha, qo'lga o'rgatilgan mast fil ekan. Quturgan payti zanjirlab qo'yishgan ekan-u, lekin o'tgan kecha zanjirni sindirib qochib ketibdi. Filni bunday holatda faqat uning mahavatigina nazorat qila olardi, u esa o'n ikki soat oldin allaqachon filning izidan tushib noto'g'ri yo'nalishga ketib qolgan va fil shaharda to'satdan yana paydo bo'lib qolgandi. Birma aholisi fil qarshisida qurolsiz va ojiz edilar. Ta'qibdagi fil esa allaqachon birovlarning bambuk kulbasini vayron qilishga, sigirini bosib ketishga va meva do'konlariga bostirib kirib, mahsulotlarni paqqos tushirishga ulguribdi; bular ham yetmagandek, oldidan shaharcha axlat tashish mashinasi chiqib qolib, filning oyoqlari ostida yerparchin bo'libdi.

Birma inspektori o'rinbosari va bir nechta hind mirshablari meni filni ko'rgan joylarida kutib turishgan ekan. U yer shaharchaning juda g'arib qismi bo'lib, tikka tog' yonbag'ridan pastga qarab ketgan, tomi palma barglari bilan yopilgan bambuk kulbalardan iborat labirint ekan. Esimda, yomg'irlar mavsumi boshlanishidan darak berayotgan bulutli bo'g'iq tonglardan biri edi. Yo'lda uchragan odamlardan filning qay tomonga ketganligi haqida surishtirib, odatdagidek, jo'yali javob ololmadik. Sharqda doim shunday; biron-bir voqea dastlabki eshitgan paytingiz ancha ravshandek tuyuladi, biroq voqea manzaralariga yaqinlashganingiz sari u mavhum bo'lib boraveradi. Ba'zilar fil

bu yoqqa qarab ketdi desa, boshqalari u yoqqa ketdi, deb qo'llarini bigiz qilib yo'l ko'rsatardi, uchinchi toifa odamlari esa hech qanaqa fil haqida eshitmaganini uqtirardi. Sal nariroqdagi baqir-chaqirni eshitib qolmagunimizcha fil to'g'risidagi butun hikoya g'irt uydirma ekan-ku, degan qarorga kelayozgandik. "Yo'qollaring bu yerdan zudlik bilan, hoy bolalar!", deya g'azabnok ohangda baqirganicha bitta qari kampir qo'lidagi qamchi bilan kulbasidan chiqib kelib, bir to'da yarim-yalang'och bolalarni shafqatsizlarcha hayday boshladi. Xuddi o'sha yerda yosh bolalar ko'rishni mumkin bo'lmagan nimadir bordek, bir necha ayol ham kampirga qo'shilib, ularni nari itara boshlashdi. Kulbani aylanib o'tib loyga chapishib yotgan qip yalang'och bir kishining murdasini ko'rdim. U janubiy hindistonlik qora ishchi ekan, o'lganiga ham uncha ko'p vaqt bo'lmapti. Atrofdagilarning aytishi bo'yicha, fil kulba yonida marhumning oldidan chiqib qolib, uni xartumi bilan o'rab olib yerga urgan. O'sha paytlar ayni yomg'ir mavsumi bo'lganligi uchun yer ham ancha yumshab qolgandi, murdaning yuzi esa bir fut chuqurlikdagi va bir necha yard uzunlikdagi ariqqa botib ketgandi. U qo'llarini qovushtirganicha bag'rini yerga berib yotardi, boshi esa bir tomonga keskin qayrilgan edi. Murdaning yuzi loy bilan qoplangan, ko'zlari katta-katta ochilgan, tishlari to'kilib, lablarida chidab bo'lmas azobdan achchiq tabassum ifodasi qotib qolgandi. (Aytganicha, hech qachon menga marhumlar go'zallashib qoladi demang. Men ko'rgan jasadlarning ko'pi shaytonga o'xshab ko'rinardi.) Bahaybat hayvonning oyog'i terini xuddi quyon terisiga o'xshab silliqqina shilib ketgandi. O'lgan odamni ko'rishim bilan fil otadigan miltiq olib kelish uchun yaqin atrofdagi bir do'stimning uyiga askar jo'natdim. Otimni esa allaqachon qaytarib yuborgan edim, chunki u filning hidini olsa, cho'chib ketishi va meni uloqtirib yuborishi turgan gap edi.

Bir necha daqiqadan so'ng askar miltiq va beshta patron bilan qaytib keldi, bu orada mahalliy birmaliklar kelib, fil bir necha yuz yard naridagi sholi dalalarida ekanligini aytishdi.

Oldinga qadam qo'yishim bilan kvartalning deyarli barcha aholisi uylaridan chiqib, ortimdan yura boshlashdi. Ular miltiqni ko'rib bo'lishgandi va meni filni otishga chog'lanyapti deb o'ylab hayajonlanib baqirishardi. Fil o'z uylarini buzib tashlayotganida ham bunchalik junbushga kelishmagan xalq endi uning otinishi arafasida o'zlarini tamoman boshqacha tutishayotgan edilar. Bo'lajak hodisa ingliz olomonini qiziqtirgani kabi ular uchun ham juda qiziqarli edi; bundan tashqari ular go'sht olishni xohlashardi. Bu meni juda noqulay ahvolga solib qo'ygan edi, chunki filni otish niyatim yo'q edi – o'zimni himoya qilish zaruriyati yuzasidan miltiqni oldirgandim, orqamdan olomonning ergashib yurishidan esa asabiylashib ketdim. Yelkamdagi miltiq va oldinga itarayotgan sanoqsiz xalq lashkari bilan o'zimni xuddi ahmoqdek his qilib tepalikdan tushdim. Tepalikdan pastda, kulbalardan biroz yiroqlashgan hududdan asfalt yo'l o'tgan bo'lib, undan quyiroqda hali shudgor qilinmagan bo'lsa-da, birinchi yomg'irdan keyin ivigan va maysalar bilan qoplangan minglab yardlarga cho'zilgan bo'm-bo'sh sholi dalalari bor edi. Yo'ldan sakkiz yard narida fil chap tomonini bizga qaratib turardi. U o'tlarni yulib, tizzasiga urib tozalab, og'ziga solish bilan band bo'lib, olomon yaqinlashayotganini payqamasdi.

Yo'l o'rtasida daf'atan turib qoldim, chunki filni ko'rishim bilan uni otmasligim kerakligini aniq his qildim. Harakatlanayotgan filni otish juda mushkul – bu ulkan va qimmatbaho texnikani yo'q qilish bilan barobar edi va bu ishning iloji boricha oldi olingani ma'qul. Bir qaraganda u tinchgina kavsh qaytarayotgan sigirchalik ham xavf tug'dirmasdi. O'shanda va hozir ham filning mastlik davri allaqachon poyoniga yetganiga amin edim; toki mahavati kelib uni tutib olib ketmaguncha shunchaki tentirab yursayam bo'lardi. Ustiga-ustak, uni otishni zig'irchayam xohlamayotgandim, shuning uchun ham boshqa hech kimga zarar yetkazmasligiga ishonch hosil qilish uchun uni biroz kuzatib keyin uyga qaytmoqchi bo'ldim.

Biroq shu lahza ortimdan ergashib keluvchilarga qaradim. Yo'lda kamida ikki mingtacha odam yig'ilgan bo'lib, bu miqdor daqiqqa sayin ko'payib borardi. Ularning sharofati bilan yo'ning ikkala tomoni ham to'silib qolgandi. Filning otib tashlanishidan shodlanib, tomoshani intiqlik ila kutayotgan yaltir-yultur kiyimlarga chulg'angan sarg'ish basharalar dengiziga boqdim. Ular hiyla ishlatmoqchi bo'lgan ko'zboylog'ichni tomosha qilganday, meni diqqat bilan kuzatib turishardi. Olomon meni yoqtirmasa-da, qo'limdagi sehrli miltiq sharofati bilan tomosha qilinishga arzirdim. To'satdan filni baribir otishim kerakligini angladim. Odamlar mendan shuni kutishardi va uni amalga oshirishim lozim edi; ikki mingta xohish meni rad etib bo'lmas kuch bilan oldinga siljitayotganini his qildim. Aynan shu daqiqada qo'limda miltiq bilan turgan holimda, ilk marotaba Sharqdagi oq tanlilar hukmronligining naqadar bo'sh va samarasiz ekanligini idrok etdim. Men tashqaridan qaraganda qurol-aslahasiz mahalliy aholi oldida qurollangan oq tanli sifatida bosh rolni ijro etayotgan aktyor bo'lib ko'rinsamda, aslida o'sha orqamda turgan sarg'ish basharalarning irodasi bilan dam u yoqqa, dam bu yoqqa turtulayotgan bema'ni bir qo'g'irchoq edim, xolos. Shu lahzada anglab yetdimki, oq tanli odam zolim bo'lganida, bu o'z erkinligini yo'qqa chiqaradi. U "sohib"ning qandaydir ichi bo'sh, sirti yaltiroq'-u ichi qaltiroq an'anaviy nushasiga aylanib qoladi. Hukmronligining sharti o'laroq, u umrini "tubjoy aholi"ga ta'sir o'tkazishga sarflashi va har bir inqiroz holatida "mahalliy aholi" kutgan ishni bajarishi kerak. U niqob kiyadi va yuzini o'sha niqobga moslashtirib oladi. Filni otishim lozim edi, buni miltiq olib kelishni buyurganimda zimmamga olib qo'ygandim. Sohib xuddi sohib singari yo'l tutishi joiz; u qat'iyatli ko'rinishi, o'z fikrini bilishi va aniq harakat qilishi lozim. Shu bois ham qo'lda miltiq, orqamda ikki ming odam bo'laturing, hech narsa qilmasdan serrayib turaverish imkonsiz edi. Olomon ustimdan kulardi. Butun hayotim, Sharqdagi har bir oq

tanli kishi hayoti – bu mazax qilinmaydigan uzoq davom etuvchi bir kurash edi.

Ammo filni otishni istamasdim. Uning bir tutam maysani fillarga xos parishonxotirlik bilan tizzalariga urishini tomosha qilib turdim. Uni otish xuddi qotillik sodir etishdek bo'lib tuyuldi. O'sha paytda hayvonlarni o'ldirishdan unchalik ta'sirlanmasdim, lekin hech qachon fil otib ko'rmagandim va otishni istamaganman ham. (Ulkan hayvonni o'ldirish doim biroz noxushdek tuyuladi.) Bundan tashqari, mahluqning egasini ham inobatga olish kerak edi. Tirikligida kamida yuz funtga baholanadigan fil o'lik holatida, ehtimol, tishlari uchungina besh funtga arzir. Ammo tezda biror nima qilmasam bo'lmasdi. Biz yetib borganimizda shu atrofda turgan ba'zi tajribali ko'rinuvchi birmaliklarga murojaat qilib, filning o'zini qanday tutganligini so'radim. Ularning barchasi bitta gapni aytishdi: agar uni yolg'iz qoldirsangiz, sizni payqamaydi, mabodo unga juda yaqin kelsangiz, tashlanishi mumkin.


Nima qilishim kerakligini tushunib yetdim. Men undan, aytaylik, yigirma besh yard beriroqda turib, uning fe'l-atvorini sinab ko'rishim kerak. Tashlanadigan bo'lsa, otib tashlayman; agar meni payqamasa, mahavati qaytib kelguncha undan nari ketish xavfsizroq bo'ladi. Biroq bunday qilmasligimga ko'zim yetardi. Qo'lida miltiq tutgan no'noq bir o't ochuvchi edim, zamin esa yumshoq loyga aylangan, har qadamda botib ketish mumkin edi. Agar fil tashlanib qolsa-yu, qulay paytni boy bersam, u holda xuddi asfalt tekislovchi mashina ostiga tushib qolgan baqada tirik qolishga qancha imkon bo'lsa, mening ham shuncha imkonim qolar edi. Shunga qaramay, o'zim haqimda emas, balki orqamda turgan sarg'ish yuzlar taqdirinigina o'ylardim, chunki o'sha paytda olomon meni kuzatib turardi, agar yolg'iz bo'lganimda muqarrar qo'rquvni umuman his qilmasmidim. Oq tanlilar mahalliy aholi oldida qo'rqmasligi kerak va shu bois u umuman qo'rqmaydi. Xayolimga kelgan yagona o'y agar biron noxushlik yuz bersa, ikki ming birmalik ta'qib qilinayotganimni, oyoq osti bo'lganimni

va tepalikda qolgan hind singari yanchilib, jilmaygan jasadga aylanishimni ko'rishlaridan iborat edi. Mabodo shunday voqea sodir bo'lsa, ularning ba'zilari ustimdan kulishi aniq edi. Bu hech qachon yuz bermaydi. Faqat bitta yo'l qolgandi.

Patronlarni stvolga joylab, yaxshiroq g'oya o'ylab topish uchun yo'lda yotib oldim. Olomon sukutga cho'mdi va axiyri teatr pardasi ko'tarilganini ko'rgan tomoshabinlar singari son-sanoqsiz tomoqlardan chuqur va past tovushda, lekin xursand xo'rsiniqlar eshitildi. Va nihoyat, ular o'z xursandchiligiga erishmoqda edilar. Qo'limda optik mo'ljallagichli ajoyib nemis miltig'i bor edi. O'shanda filni bir quloq teshigidan ikkinchisigacha bo'lgan xayoliy chiziqqa yo'naltirib otish kerakligini bilmasdim.

Shu bois, fil yonlamasiga turgani uchun, to'ppa-to'g'ri uning quloq teshigini mo'ljalga olishim lozim edi, biroq miya sal oldinroqda deb o'ylab, qulog'idan bir necha dyuym beriroq joyni nishonga olib yuboribman.

Tepkini bosganimda, na o'q ovozi eshitdim, na zarbani his qildim – aniq nishonga tekkanda shunaqa bo'ladi, lekin olomon orasida xursand baqir-chaqirlar ko'tarilganini eshitdim. Shu lahzada, juda qisqa vaqt ichida, fil o'qqa duchor bo'lgan bo'lsa ham, unda sirli va dahshatli o'zgarish yuz berdi. U qimirlamadi va yiqilmadi, lekin tanasining har bir chizig'i o'zgaragan edi. U birdan qotib olgan, burushgan, juda qarib ketganga o'xshardi, o'qning dahshatli zarbasi uni shol qilib qo'ygandek edi go'yo. Nihoyat, juda uzoq tuyulgan besh soniyadan so'ng, u



tiz cho'kib egilib qoldi. Og'zidan so'lagi oqdi. Ma'shum qarilik butun tanasiga o'z hukmini shunchalik kuchli o'tkazgandiki, uni ming yoshlarda deb tasavvur qilish mumkin edi. Men yana o'sha joyga qarata o'q uzdim. Ikkinchi zarbada ham u yiqilmadi, ammo umidsiz va zaif ahvolda - oyoqlari solinib, boshi ham bo'lganча zo'rg'a oyoqqa turib, tekislandi. Uchinchi marta o'q uzdim. Bu safargi o'q uni yiqitdi. Qattiq og'riq qay tarzda filning butun vujudini larzaga keltirib, oyoqlaridagi so'nggi kuchni qirqqaniga guvoh bo'ldim. Lekin yiqilayotganida tanasi xiyol ko'tarilganday tuyuldi, chunki fil orqa oyoqlari ustiga o'tirib qolganida, gavdasi ulkan qoya singari, xartumi esa daraxt singari osmonga ko'tarilganday bo'ldi. U birinchi va oxirgi marta na'ra tortdi. Keyin qornini men tomonga qaratib gursillab shunday qattiq yiqildiki, go'yo yotgan joyim qimirlab ketganday bo'ldi.

O'rimdan turdim. Birmaliklar allaqachon loy kechib yonimdan yugurib o'tib ketishdi. Endi hech qachon boshqa turolmasligi ravshan bo'lsa-da, fil hamon tirik edi. U og'riqdan ingraganча bir maromda nafas olib chiqarar, ochiq og'zidan hiqildog'ining och pushtirang chuqurchasi ko'rinib turardi. Uning o'lishini uzoq kutdim, lekin nafas olishi zaiflashmasdi. Nihoyat, qolgan ikkita o'qni yuragini tussmollab otdim. Qizil duxobadek quyuuq qoni otilib ketsa ham fil baribir jon bermadi. Otgan paytimda tanasi hatto qimirlamadi ham, azobli nafas olishi esa to'xtovsiz davom etaverdi. U juda sekin va qattiq azob chekib o'layotgandi, lekin shu bilan birga mendan anча olisga - o'q azob bermaydigan joyga ketayotgandi. Filning

azoblariga nuqta qo'yishim kerakligini angladim. Qimirlay olmaydigan, o'lishga ham ojiz yerda yotgan ulkan maxluqqa qarash, ayniqsa, uni o'ldira olmaslik juda ayanchli hol edi. Uydan kichikroq miltig'imni oldirib, uning yuragiga va tomog'iga qarata o'q otaverdim. Bular hech ta'sir qilmayotganday tuyuldi, azobli hansirashlar soat chiqillashi singari uzluksiz davom etaverdi.

Oxir-oqibat, manzaraga ortiq dosh berolmay u yerdan ketdim. Keyinchalik, eshitishim bo'yicha fil naq yarim soat o'lim bilan olishibdi. Ketishimdan oldin birmaliklar xanjar va savat olib kelishayotganini ko'ruvdim, tushgacha qolmay filning suyaklarigacha ship-shiydam qilib olib ketishibdi.

Albatta, o'shandan so'ng filning otilishi bo'yicha nihoyasiz munozaralar bo'lib o'tdi. Egasi g'azablандi, lekin u bor-yo'g'i faqat bitta hind edi va tabiiyki, qo'ldan hech narsa kelmasdi. Bundan tashqari, men qonunan to'g'ri ish qilgandim, chunki mast fil, agar egasi boshqara olmasa, quturgan it kabi o'ldirilishi kerak. Bu borada yevropaliklar ikki xil fikr bildirishdi: kattalar mening haqligimni ta'kidlashsa, yoshlar qora ishchini o'ldirgani uchun filni otishni sharmandalik deb baholashdi, chunki bitta fil har qanday janublik yalangoyoqdan qimmatroq turardi. So'ngra esa o'sha ishchining o'ldirilganidan juda xursand bo'ldim, chunki uning halokati meni qonuniy ravishda oqlab, filni otish uchun ishonarli bahona vazifasini bajardi. Ba'zan o'sha yerdagi odamlardan kimdir buni ahmoqdek ko'rinmasligim uchungina qilganimni sezib qolmadimikin, deya o'zimdan so'rab qo'yardim.

1936-yil





AFANDI MASLAHATXONASI

Yo'tal dorisi

Bir odam qattiq yo'talga giriftor bo'lib Afandidan dori so'radi.

- Surgi ich, – dedi Afandi.
- Yo'talga surgining nima daxli bor?
- Farqi bor! – dedi Avandi, – yo'talishga qo'rqasan...

To'g'ri maslahat

Bir bemor afandiga hasrat qildi:

- O'zimni ikkita doktorga ko'rsatgan edim, ikkalasi ikki xil maslahat berdi. Biri dengizga bor dedi, ikkinchisi piyoda yur, – deydi.
- Unda dengizga piyoda bora qoling, – dedi Afandi.

Nimaning terisi qalin

- Tumsoh, fil, tuyaning terisi.
- Ulardan ham qalinrog'i bormi?
- Bor: dangasa va xushomadgo'ylarning terisi ularnikidan ham qalinroq, – deb javob berdi Afandi.

Sadoqat

Tish doktori Afandini davolayotib:

- Endi "a" deng, – dedi.
- Boshlig'imning ruxsatisiz og'iz ochmayman! – dedi Afandi.



Muqovada:

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi poliklinikasi bosh vrachi Anvar RAJABOV.

Ahmad TO'RA olgan surat.

Bosishga 10.08.2020-yilda ruxsat berildi.

Qog'oz formati: 84x108 1/16
Nashriyot hisob tobog'i: 8
Obuna indeksi – 822.
ISSN 0207-9137.

Jurnal 2007-yil 4-mayda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0253 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin. Jurnalдан ko'chirib bosilganda "Yoshlik"dan olindi" deb izohlanishi shart.

"SILVER STAR PRINT" MChJ bosmaxonasida chop etildi. Buyurtma № 42. Adadi: 600. Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-uy.